



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2023

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:
Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Буриева Хайрия Амануллаевна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холикулов Ахмад Баймахаматович
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холикулова Шахноза Боймухамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Навоий Давлат педагогика институти

Татыбаев Азиз Суйничи
тарих фанлари номзоди
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Замонов Акбар Тургинович
тарих фанлари номзоди, доцент
Тошкент халқаро Кимё университети
Разаков Абдурасул Абдурахмонович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Раҳманкулова Зумрад Бойхурозовна
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Алиназарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Ўсаров Умид Абдумавлянович
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет Национального
Университета Узбекистана имени Мирзо
Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/> : E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib
Faculty of history of the National university of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/> : E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА/СОДЕРЖАНИЕ/CONTENT

1. Musayev Nuriddin Umirzakovich XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA KONCHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA FAOLIYATI.....	4
2. Кобзева Ольга Петровна ЖЕНЩИНЫ В СУФИЗМЕ.....	22
3. Розаков Абдурасул Абдурахманович ПОЛИТИКА АДМИНИСТРАЦИИ ПРЕЗИДЕНТА США У. ДЖ. КЛИНТОНА В СФЕРЕ ЗАНЯТОСТИ И СОКРАЩЕНИЯ БЕЗРАБОТИЦЫ.....	37
4. Tuxtabekov Kozimbek Azimbekovich SHAYBONIY HUKMDORLARINING MOVAROUNNAHRDA SIYOSIY HOKIMIYATNI EGALLASHI.....	51
5. Xudoyqulov Ural Karimovich O'ZBEKISTONNING JANUBIY VILOYATLARIDA XX ASRNING 70 - 80 YILLARIDA SANOAT KARKONA ISHCHILARNING TURAR JOYGA BO'LGAN TALAB VA MUAMMOLAR.....	63
6. Xolikulov Ahmad Baymahamatovich XIX-XX ASR BOSHLARIDA QASHQADARYO VOHASI BEKLIKLARIDA SOLIQ TURLARI.....	74
7. Tog'ayev Jasur Erkinovich BRONZA DAVRI IJTIMOY-IQTISODIY MUNOSABATLARI TARIXIGA DOIR MULOHAZALAR (JANUBIY O'ZBEKISTON MISOLIDA).....	90
8. Ochilov Alisher To'lis o'g'li IN SEARCH OF THE MATERIAL CULTURE OF BUKHARA OASIS.....	108
9. Sheripov Umarbek Atajanovich XIX ASRNING BIRINCHI CHORAGIDA XIVA XONLIGINING SIYOSIY VA IQTISODIY YUKSALISHI.....	121
10. Akhmedov G'ulomjon Jumanazarovich KONCHILIK ISHI RIVOJLANISHINING TARIXIY BOSQICHLARI (O'ZBEKISTON MISOLIDA).....	131
11. Kenjayeva Nafisa Turg'unboy qizi REMARKS ON THE GEOGRAPHY OF BRONZE AGE SITES IN CENTRAL ASIA.....	140
12. Yunusova Xurshida Erkinovna O'ZBEKISTON TARIXIY MADANIY YODGORLIKLARIGA MUNOSABAT (XX asrning 80yillar).....	155

Musayev N.U.
t.f.d., professor
O'zbekiston Milliy universiteti
Musayev58@mail.ru

**XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA
KONCHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA FAOLIYATI
ANNOTATSIYA**

Maqolada Turkistonda temir yullar qurilgandan keyin Sanoat korxonalari ko'plab qurila boshladi. Bu ayni paytda konchilik mahsulotlariga ehtiyejni oshirdi. Chekeken yarim orolida, Farg'ona vodiysining Moylisoy hududlaridan neft konlari topilganligi, Qizilqiya va Suluqta kumir konlari ochilganligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Cheleken yarim oroli, aka-uka Nobellar, temir yo'l, qurilish.

Мусаев Н.У.
д.и.н., профессор
Национальный университет Узбекистана
Musayev58@mail.ru

**ФОРМИРОВАНИЕ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ГОРНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ ТУРКЕСТАНА В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX
ВЕКА
АННОТАЦИЯ**

В статье отмечается, что после строительства железных дорог в Туркестане стали создаваться много промышленных предприятий. В то же время начал увеличиваться спрос на горнодобывающую продукцию. Вместе с тем, в представленной статье также дана информация об открытии месторождений нефти на полуострове Челекен, Мойлисайском районе Ферганской долины, открытии угольных месторождений в Кызылкии и Сулюкте.

Ключевые слова: Полуостров Челекен, братья Нобелли, железные дороги, строительства.

Musayev N.U.

DSc., professor

National university of Uzbekistan

Musayev58@mail.ru

**FORMATION AND ACTIVITY OF THE MINING INDUSTRY OF
TURKESTAN AT THE END OF THE 19TH - BEGINNING OF THE XX
CENTURY
ABSTRACT**

The article notes that after the construction of railways, many industrial enterprises began to be created in Turkestan. At the same time, the demand for mining products began to increase. At the same time, the presented article also provides information about the discovery of oil fields on the Cheleken Peninsula, the Moylisay region of the Fergana Valley, and the discovery of coal deposits in Kyzylkiya and Sulukta.

Key words: Cheleken Peninsula, Nobelli brothers, railways, construction.

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston o'lkasining katta qismi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan keyin bu hududlarni kezib chiqishgan rus sayyohlari va konchilik muhandislari bu yerda tabiiy boyliklarning ko'pligi va turli-tumanligini ko'rib hayratga tushishgan. «...Turkistonda qazilma boyliklar nihoyatda mo'l, -deb yozgan edi, muhandis P.S.Nazarov, -deyarli hech kim kelajakda o'lkaning Ural yoki Birinchi jahon urushidan oldingi Belgiya kabi kon sanoati rivojlangan mamlakatlar darajasida bo'lishi mumkinligini tasavvur ham qilolmaydi. Ammo, u allaqachon ikkinchi Ural yoki Belgiya bo'lgan edi. O'lkaning konchilik sanoati xalqaro miqyosda rivojlangan bir vaqtda Rossiya davlati yo'rgakda edi, yilnomachining yozishicha, bizning ajdodlarimiz hali hayvoniy odatlarini tark etmagan edilar». O'lka aholisining qadimdan konchilik bilan shug'ullanib kelganligini bu yerda saqlanib qolgan qadimgi konlarning qoldiqlari, qazib olingan tog'-tog' toshqollar ham tasdiqlaydi.

Qadimshunoslar olib borishgan tadqiqotlari jarayonida ko'plab shaharlar xarobalari va konlar qoldiqlarini topishgan. Bu tadqiqotlar X-XII asrlardayoq O'rta

Osiyo hududlarida konchilik sanoati ancha yaxshi yo'lga qo'yilganligini ko'rsatadi. Tadqiqotlar Xo'ttalda kumush va oltin, Ustrushonadan katta miqdorda temir rudasi, Jayxun (Sirdaryo) daryosi qumlarini yuvib, ulardan oltin ajratib olinganligini, Zarafshon daryosining yuqori qismida joylashgan Buttam konlaridan oltin, kumush, mis, temir, oniks (aqiq), navshadil, tuz va boshqa narsalar qazib olinganligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, Farg'ona va uni o'rab turgan tog'larda joylashgan ko'plab konlardan oltin, kumush, smola (qatron), ganch, temir, mis, qo'rg'oshin, simob, navshadil va boshqalar qazib olingan. Jumladan, Isfara yaqinida toshko'mir konlari bo'lgan. Farg'ona vodiysi hududlaridan qalayi va neft ham qazib olingan[1]. Qazilma boyliklarning topilishi o'lkada hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlarini rivojlantirish imkonini bergan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

XVI asrdan boshlab, O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi doimiy nizolar, ziddiyatlarning kuchayishi natijasida qo'shni mamlakatlar bilan aloqalar susayib, o'lka xalqlari o'zlarining tor qobiqlarida o'ralib qoldilar. Oqibatda, boshqa sohalar kabi, konchilik sanoati ham izdan chiqdi. Bu o'z navbatida xonliklarning qimmatbaho metallarga bo'lgan ehtiyojini muntazam oshirib bordi.

O'rta Osiyo xonliklari orasida harbiy va iqtisodiy jihatdan ancha baquvvat bo'lgan Buxoro amirligi hududlarida yirik oltin konlari mavjudligi haqida ko'plab xabarlar tarqalgan. XVIII asrdayoq Turkistonning oltin zahiralari haqida ma'lumotlar to'plagan Florio Beneveni Pyotr I ga Buxoro cho'llarida oltin va boshqa metallar ko'pligi, mahalliy aholi Nurota, Bukantov va boshqa joylardagi oltin konlaridan yaxshi xabardor bo'lsada, rudalarni sanoat usulida qazib olishga e'tibor berilmayotganligi haqida ma'lumotlar yuborgan. Bu ma'lumotlar bilan tanishgan Pyotr I 1713-yili turkman elchisi Xo'ja Nafasning o'lkada tilla olinishi haqidagi ma'lumotlariga aniqlik kiritish maqsadida O'rta Osiyoga A.B. Cherkasskiy harbiy ekspeditsiyasini (1714-1917-yillarda) jo'natgan edi. Biroq, bu ekspeditsiya Xiva xonligi tomonidan barbod qilingan.

XIX asr o'rtalarida Buxoro hukumati amir Nasrulloning topshirig'i bilan Nurota tog'larida temir rudasini qidirish ishlarini olib borgan. Topilgan ruda

bo'laklari Buxoroga olib kelingan. Bu vaqtda Shahrisabz tog'larida ham qidiruv ishlari olib borilgan. Biroq, xonliklar o'rtasida o'zaro nizolarning kuchayishi konchilik sanoatini yo'lga qo'yishga imkon bermadi.

Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoga bostirib kirishdan oldin O'rta Osiyo xonliklarida o'z ta'sir doirasini kengaytirish, aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va bu yerdagi tabiiy topish boyliklarni qidirib topish hamda o'rganish maqsadida bir qancha ekspeditsiyalar tuzilgan. Ular orasida muayyan topshiriq bilan Buxoro amirligi hududlariga jo'natilgan K.F.Butenev missiyasi ham bo'lib, uning tarkibida tog' injenerlari, geograflar, oltin konlarini o'rganish bo'yicha mutaxassislar, tog' texniklari, topograf, sharqshunos-tarjimonlar bo'lib, ularga o'nta qo'riqchi kazak hamrohlik qilgan.

1841- yil 15-mayda Orenburgdan yo'lga chiqqan Butenev guruhi 5-avgustda Buxoroga yetib kelgan. Butenev Buxoro amiri bilan savdo va diplomatik munosabatlarni yo'lga qo'yish borasida kutgan natijalariga erisha olmagan bo'lsada, amirlikning xo'jalik hayoti to'g'risida boy geografik, etnografik, tabiiy va tarixiy ma'lumotlar to'plashga muvaffaq bo'ldi. Missiya Zarafshon vodiysida geologik tekshirishlar olib borib, bu yerda temir, mis, ko'mir, qo'rg'oshin, grafit, feruza hatto oltin va kumush borligini aniqlagan. Olib borilgan tadqiqotlarining natijasi sifatida N.Xanikovning "Buxoro xonligi tavsifi" nomli kitobi, K.Butenevning "Buxoro mineral boyliklari", "Buxoroda po'lat toblash usuli haqida mulohazalar" nomli maqolalari bosilib chiqdi.

K.F.Butenev Buxoro va Xiva xonliklarida metall qazib chiqarish va unga ishlov berish juda sodda usullarda amalga oshirilganligini, 1841-yili Buxoroda 6 ta cho'yan quyish qozonlari bo'lganini yozib qoldirgan[2]. Bu metall quyish qozonlarida to'plar uchun o'qlar va boshqa harbiy qurollar, shuningdek dehqonchilik asbob-uskunalari yasalgan. Mis qimmat bo'lganligi uchun Buxoro amirligida to'p yasashda mis o'rniga ko'proq cho'yandan foydalanilgan. To'p yasashda ancha tajribali bo'lgan Shahrisabz ustalari amirlikda eng yirik to'p stvolini quyishgan, uni o'rnatish uchun o'n ikki g'ildirakli qurilma yasalgan[3].

Butenev Buxoro amirligi hunarmandlari metallsozlikda ma'lum tajribaga ega bo'lishlariga qaramasdan, amirlikda metall ishlab chiqarish nochor ahvolda ekanligini quyidagicha ta'riflaydi: «Buxoroda hunarmandchilik mukammallikning quyi bosqichida turadi, zavodchilik ishi yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Agar hukumatning bu sohaga e'tibori bundan keyin ham hozirgidagidek davom etsa, biror o'zgarish bo'lishi qiyin. Johil hukumatning zavodlar qurishi haqida so'z bo'lishi ham mumkin emas, chunki u bunday zavodlar kelajakda katta foyda keltirishini bilmaydi. Bundan tashqari, zavodlar qurish uchun mablag' ham, bilimdon kishilar ham yetishmaydi»[4]. Shu kabi sabablarga ko'ra, Buxoro amirligi konlaridan qazib olingan rudadan mis va qo'rg'oshinlar nihoyatda oddiy usulda qurilgan o'choqlarda ajratib olingan. Misdan buyumlar yasashda, qo'rg'oshindan o'qlar tayyorlashda ortiqcha isrofgarchiliklarga yo'l qo'yilgan. Bunday holda metall ishlab chiqarishdan kutilgan natijaga erishish imkoni yo'qligini ko'rgan hukmdorlar asosiy e'tiborini ular uchun nisbatan oson bo'lgan qishloq xo'jaligi, chorvachilik va hunarmandchilikni kuchaytirishga qaratishgan. Faqat janubiy bekliklar (Qoratog', Boysun)dagina xonaki usulda metall qazib olish davom etgan. Lekin bu metallar mahalliy aholi ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli bo'lmagan. Shuning uchun amirlik metallni Hirotdan, keyinchalik Rossiyadan olib kelishga majbur bo'lgan.

XIX asr o'rtalarigacha Qo'qon xonligida mahalliy aholining tajribasizligi va konchilik ilmi bo'lmaganligi tufayli, yonilg'i mahsulotlari- neft va toshko'mir qazib olish mashaqqatli ish hisoblangan. Ayrim manbalarda keltirilishicha, Rossiyadan kelib qolgan tatarlar O'ratepa tog'laridagi konlardan temir ajratib olishda toshko'mirdan foydalanishgan. Mahalliy hunarmandlar neft mahsulotlarini juda oddiy usullarda katta qiyinchiliklar bilan qazib olishgan. Xususan, neft topilgan quduqlar suvga to'ldirilgan va yuzaga chiqqan neftni tog' shuvoqlaridan yasalgan supurgilar bilan sidirib olingan. Shunday usulda Namangandan 40 km. masofada joylashgan «Moybuloq» konidan bir kecha kunduzda 60 pud (960 kg) gacha neft qazib olingan[5].

Bu davrda Qo‘qon xoni Xudoyorxonning ko‘rsatmasi bilan Boltaboy yuzboshi rahbarligida Moylisoy bo‘ylaridan neft qazib olingan. Konchilarga maxsus uylar qurib berilgan. Bu ishlarga xonning o‘g‘li Nasriddinbek boshchilik qilgan. Bundan tashqari, Qo‘qon tumanidagi Romitan qishlog‘i yaqinidan ham neft qazib olingan. Bu yerdagi quduqlarda kuniga o‘rtacha 2 chelak atrofida neft to‘plangan. Olingan neft aravalarda Marg‘ilonga keltirilgan va bu yerda maxsus idishlarda qizdirilib, undan kerosin olingan. Bu idishlar yopiq qozonga o‘xshagan qo‘lbola uskunalar bo‘lib, ularning yordamida neftdan kerosin olingan. Bu haqda injener Ivanov quyidagi ma’lumotlarni qoldirgan: «1880 yili men mahalliy tadbirkorning bu asboblarni ishlatayotganida ko‘rganman. Ushbu qurilma yordamida bir haftada 20 chelakkacha sifatsiz kerosin olingan»[6].

Mahalliy aholi neftdan kerosinni nihoyatda sodda usulda ajratib olgan. Jumladan, katta cho‘yan qozonga 40 chelakcha neft quyilib, qopqog‘i yopib qo‘yilgan. Qopqoqdan misdan yasalgan naycha chiqarilib, u sovuq suv solingan idishdan o‘tkazilgan. Qozonning qizdirilishi natijasida qaynagan neftdan ajralib chiqqan bug‘ mis naycha orqali sovuq suvdan o‘tganda kerosinga aylangan. Shu tariqa 40 chelak neftdan o‘rtacha 16 chelak kerosin olingan. Chiqindi mazutdan esa yoqilg‘i sifatida foydalanilgan. Kerosin ajratib olinmagan neftning o‘zidan ham tantanali marosimlarda qorong‘i kechalarni yoritish, mum olish, g‘ildiraklarni moylash, qichima va qo‘tir bilan kasallangan kishilarga surtishda dori sifatida foydalanilgan.

Qo‘qon xonligida ham neft konlarini qidirib topish va ulardan foydalanishga alohida e’tibor berilgan. Neft qazib olish ancha mashaqqatli ish bo‘lib, hukumat konchilik ishlari bilan shug‘ullangan kishilarni baholi qudrat rag‘batlantirib ham turgan. Jumladan, Muhammad Aziz Marg‘iloniy 1875 yili Oltiariq bilan Chimyon oralig‘idagi dashtdan qadimgi neft qudug‘ini topgan yigitning fikrini quyidagicha bayon qilgan edi: « Yer ostiga archadan qilingan zinani ko‘rib nihoyatda taajjublandik. Zohiran burun zomonda o‘tgan podsholar shunday yog‘larni izlashib, topgan joylaridan yer ostiga zinapoya qilishganligi va yog‘ olib

chiqqanliklari ma'lum bo'ldi. Chunonchi, u ko'rgan odamlarning muvajjibi tahsini (tahsinga loyiq) va hayratiga sabab bo'ldi»[7].

Turkistonda Rossiya imperiyasi hukmronligi o'rnatilgach, konchilik sanoati ishlarini ilmiy asosda o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borildi. Jumladan, 1869-yili 19-dekabrda K.P.Kaufman topshirig'i bilan Turkiston general-gubernatorligi huzuridagi konchilik ishlari rahbari A.S.Tatarinov kimyo laboratoriyasini tashkil qildi. Laboratoriya ishida Mushketov, Romanovskiy, Seversov, Middendorf kabi olimlar, Mishenkov, Davidov, Meyyer, Ivanov, Lopushinskiy kabi tog'-kon injenerlari qatnashishgan. Laboratoriya olimlari o'lkaning tabiiy boyliklari oltin, kumush, mis rudasi, qo'rg'oshin, temir va toshko'mir konlarini, keyinchalik tuz, neft, grafit hamda qurilish materiallari, qimmatbaho toshlarni aniqlashga jalb qilingan.

Qo'qon xonligining so'nggi yillarida neft konlari rus sanoatchilari ixtiyoriga berilgan. 1868-yil boshlarida Xudoyorxon bilan Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman o'rtasida imzolangan «Savdo bitimi»ning 1-moddasida «Rossiya savdogarlari uchun Qo'qon xonligining barcha shahar va qishloqlarida bemalol savdo-sotiq bilan shug'ullanish imkoni beriladi...» deyilgan. K.P.Kaufman Xudoyorxondan xonlik hududlarida rus «sanoatchi va tadbirkorlari»ga tog'-konchilik ishlari bilan shug'ullanishga ruxsat berishini so'ragan. Xudoyorxon foydalanilayotgan konlardan olib ketilayotgan mahsulotlarning 1/10 qismini xonning xazinasiga o'tkazish sharti bilan ruxsat bergan. 1868-yilning yozida savdogar Fyodorov ham Moybuloq neft buloqlaridan foydalanish uchun Xudoyorxondan ruxsat olgan[8].

Turkistonda qazilma boyliklar ko'pligini bilib olgan imperiya ma'murlari o'lkaga yirik geolog olimlarni jalb qildilar. 1874-yili shunday olimlardan biri I.V. Mushketov o'lkada ma'lum tizim va reja asosida tadqiqot ishlarini boshlab yubordi. U olti yil (1874-1880) davomida o'lkaning deyarli barcha viloyatlarini tadqiq qilib chiqdi va zarur materiallarni to'pladi. Mushketov bilan bir vaqtda G.D. Romanovskiy, Barbot-de-Marni, D.L.Ivanov va boshqa geologlar ham qidiruv ishlarini olib bordilar. Mushketov va Romanovskiylar uzoq va mashaqqatli

mehnatlari natijasida 1881-yili o'lkaning dastlabki geologik xaritasi yaratildi[9]. 1882-yili Rossiya Davlat geologiya komiteti tashkil etilgandan keyin Mushketov Turkiston general-gubernatorligining bosh geologi lavozimiga tayinlandi.

Mushketov va Romanovskiylar o'zlari olib borgan qidiruv ishlari asosida Farg'ona vodiysida qo'rg'oshin konlari ko'pligini, qo'rg'oshin bilan butun Rossiyani ta'minlash mumkinligini ma'lum qilishgan. Ular Xo'jand shahridan 25 chaqirim naridagi Qora Mozor tog'larida joylashgan «Darvozakon» yoki «Konsoy» konini tekshirishgan. Mahalliy aholiga qadimdan ma'lum bo'lgan bu konning maydoni 103 desyatina atrofida bo'lib, undan qo'rg'oshin, rux va mis qorishmalari qazib olingan. Olimlarning fikricha konni qayta ishga tushirish uchun chor hukumati 30-40 ming so'm pul sarflashi lozim bo'lgan¹². Ammo, chorizm bunga yetarli miqdorda mablag' ajratmagach, bu ishni keyinchalik xususiy korxonalar amalga oshirdi.

Turkiston o'lkaning tabiiy boyliklari Rossiya imperiyasi ishbilarmonlarni tezda o'ziga rom qildi. Ular o'lkaga kelib neft, toshko'mir, ruda, turli minerallar va boshqa qazilma boyliklarni qazib olish ishlarini boshlab yubordilar. Ayniqsa, Rossiyada neft sanoati bilan bog'liq moliya-kapitalistik munosabatlar nisbatan yaxshi yo'lga qo'yilganligi natijasida u maksimal darajada mablag' bilan ta'minlana boshlagan tarmoqlardan biriga aylandi. Boshqa tarmoqlardan farq qilib, neft sanoatining nafaqat ichki, balki jahon bozorida ham ahamiyati oshib bordi. Natijada, Rossiya neft sanoati o'ziga chet el kapitalini jalb qiluvchi asosiy tarmoqlardan biriga aylandi. Rus ishbilarmonlari bilan hamkorlik qilgan chet el kapitali Turkistonga ham kirib keldi. Neftning asosiy qismi Kaspiy bo'yi viloyatining Nebitdag, Cheleken oroli, Qizil Arvat, Bola-Eshim degan joylarida, Farg'ona viloyatining Qo'qon, Marg'ilon va Namangan uyezdlarida jadal qazib olina boshladi.

Farg'ona vodiysida konchilik quduqlarini qazishda turli usullardan foydalanilgan. Jumladan, Chang'irtosh neft konlariga tog' yon bag'irlaridan yonlama usulda qazilgan lahmalar orqali borilgan. Bunga Turkiston general-gubernatorligining tog'-kon ishlari bo'yicha mutaxassisi K.Gilev tomonidan

D.P.Petrovga Qirqo'g'il hududidagi Ko'ktepa ko'mir konida ish olib borishiga ruxsat berilgan[10]. 1883-yil avgust oyidan yil oxirigacha Farg'ona viloyati konchilik ishlari boshqarmasi tomonidan Karimdevona qishlog'i yaqinidagi 2 ta neft bulog'i hamda Konibodom yaqinidagi neft buloqlarida, Moylisoy bo'ylaridagi neft konlarini ijaraga olishga va Ko'gart yaqinidagi Markay ko'mir konlarida ish olib borishga ruxsat berilgan.

Tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, D.I.Petrovga Farg'ona vodiysida neftni sanoat darajasida ishlab chiqarishni boshlagan birinchi tadbirkor sifatida qaralgan. 1885-yili Petrov SHo'rsuv hududida chuqurligi 35-40 metr bo'lgan 2 ta neft qudug'i qazdirib, ikki ishchisi bilan bir kecha-kunduzda 400 kilogramgacha mahsulot olganligi, undan shu joyda qurilgan zavodda kerosin ajratib olinganligi bayon etilgan[11]. K.K.Palanning 1908-yildagi «Hisoboti»da «Qamishboshidagi 10 desyatina (11 ga) yerda, 1883-yilda diametri 8 dyuym (219 mm) va chuqurligi 8 sajen (17 m)dan 53 sajen (113 m) gacha bo'lgan 7 ta quduq qazilgan. Dastlab barcha quduqlardan 300 pud (5 t) ga yaqin, so'ng har bir quduqdan 10-15 pud (164-245 kg) atrofida neft qazib olingan. 1890-yilgacha bu yerda kichik kerosin zavodi mavjud bo'lgan»[12].

1871-yili Bokuda neft sanoati korxonalariga asos solgan aka-uka Robert va Alfred Nobellar 1876-yili Cheleken orolida neft qazish ishlarini boshlab yubordilar. Ular uncha chuqur bo'lmagan (40 sarjin) to'rtta quduq qazdirishgan va qariyb 20 yil shu quduqlardan neft qazib olishgan. Faqat 20 yildan keyingina Boku tipidagi diametri keng (18 dyuyma) quduqlar qazishga kirishilgan.

Aka-uka Nobellardan keyin, 1882-yildan boshlab sanoatchi S.Palashkovskiy Cheleken orolining turli joylarida 14 ta quduq qazdirgan. U 12 yil davomida olib borilgan qazish ishlariga 600000 rubl atrofida mablag' sarflasa-da kutilgan natijaga erisha olmagan, 1893-yili qazish ishlarini to'xtatishga majbur bo'ldi[13]. Palashkovskiy xarajatlarning bir qismini qoplash maqsadida Cheleken orolidan birinchi bo'lib ozokerit (tog' mumi) qazib olishni yo'lga qo'ygan bo'lishiga qaramasdan, olgan daromadi ketgan harajatlarini qoplay olmadi.

O'sha vaqtda Cheleken orolidagi yerlar bir necha kam suvli buloqlar bilan birga uchta turkman qishlog'iga qarashli edi. S.Palashkovskiy neft qazib olish niyatidan voz kechib, turkmanlar bilan tuzgan shartnomasini buzgandan keyin Zakaspiy viloyatining o'sha vaqtdagi boshlig'i general A.A.Kuropatkinning buyrug'i bilan bo'sh qolgan yerlar davlat ixtiyoriga o'tkazildi. Ishbilarmonlar orasida Chelekendan durustroq miqdorda neft qazib olish mumkin emasligi haqidagi mish-mishlar ham tarqaldi.

Shunga qaramasdan, «Aka-uka Nobellar» shirkati orolni tashlab ketmadilar, balki 1890-yilgacha bo'lgan ijara muddatini cho'zdilar va qo'shimcha quduqlar qazishga kirishdilar. Natijada, oroldagi uchta uchastkada quduqlar soni ko'paytirilib, ulardan 1903-1905-yillarda to'xtovsiz neft qazib olina boshlandi. Birinchi uchastkadan 1904, 1905-yillarda 360, 240 pud uchinchi uchastkadan (fontan bo'lib chiqqan) 2500, 5120 pud neft olingan. 1906-yili bu konlar bor yo'g'i uch hafta ishlab 141,2 pudgina neft qazib olingan. Bu vaqtda jahon bozorida neft mahsulotlari arzonlashib, Boku neftining ham narxi tushib keta boshladi. Bunday vaziyatda Boku neftiga nisbatan sarf harajatlari ortiqcha bo'lgan Cheleken nefti raqobatga bardosh bera olmadi.

Markaziy Cheleken neft sanoati jamiyati Cheleken neft ishab chiqarish korxonalarini saqlab qolish maqsadida davlatdan orolda yana 225 desyatina yerni xususiy qilib berishni so'radi. Bu yerlar Sakin degan kimsaga ijaraga berildi. Biroq, bir qator imkoniyatlari bo'lgani holda neft sanoatining ishi 1907-yilgacha yaxshi yo'lga qo'yilmadi. Faqat 1907 yilning oxiriga kelib, «Aka-uka Nobellar» shirkatining eski, tashlandiq quduqlaridan biri qaytadan 77 sarjin chuqurlikkacha burg'ulandi[14]. Bu quduqdan neft fantani otilib chiqqandan so'nggina Chelekenga qiziqish kuchayib, orol neft sanoatchilarini yana o'ziga jalb qila boshladi.

Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida Cheleken orolidan neft qazib olish keskin ko'tarildi. Agar 1901-yili bu yerdan 600 ming pud neft qazib olingan bo'lsa, oradan 10 yil o'tgach u ko'rsatgich 15 mln. pudga yetdi[15]. Cheleken orolidagi eng yirik firma Isabek Gadjiyevga tegishli bo'lib, 1912-yil yanvarida firma 30 ta quduqqa ega edi. 1911-yili firma 7 mln. pud neft qazib olgan va uni Bokuga tashib

ketgan. «Aka-uka Nobellar» shirkati orolda neft qazib olish bo'yicha ikkinchi o'rnida turar edi. 1911-yili shirkat 2954597 pud neft qazib olgan, uning 300000 pudi Astraxanga, qolgani Bokuga tashib ketilgan[16]. Bu vaqtga kelib, Turkiston nefti ishbilarmonlarga katta foyda keltira boshladi.

Turkiston nefti e'tiborga tusha boshlagandan keyin, 1908-yilga kelib o'lkada 30 ga yaqin neft korxonalari ish boshladilar. Ular xususiy shirkatlardan tashqari, «Chimyon», «Cheleken-Dog'iston aksionerlik jamiyati»ga, «Rishton», «Bitum» va «Turkiston neft shirkati»ga, «V.Alekseyev», «Neft» shirkatlariga hamda «Aka-uka Nobellar» firmasiga tegishli edi[17]. Farg'ona viloyatining Qo'qon, Marg'ilon va Namangan uyezdlari hududlarida katta neft konlari bo'lib, u yerlarda 9 ta firma o'z faoliyatini boshladi. Ular orasida «Chimyon», «Selroha» va Valuyevaga tegishli (otasi knyaz Xilkovdan meros qolgan) Moylisoy firmalari eng yiriklari edi. Keyinchalik, «Aka-uka Nobellar» shirkati «Chimyon», Moylisoy va «Selroha» shirkatlari aksiyalarining yarmidan ko'pini (10000 dan 6000 tasini) sotib olib, bu konlarning asosiy xo'jayiniga aylandi.

O'lkada «Selroha» neft qazib olish savdo jamiyati – «Santo» o'z faoliyatini 1905-yili 500 ming rubllik asosiy kapital bilan boshlagan edi. «Santo»ning dastlabki ta'sischisi N.N.Suxanov jamiyat faoliyatini jonlantirish uchun Moskvaning yirik firmalari va banklari bilan hamkorlik qilishga urindi. Jamiyat ishiga Moskva fabrikachilari – I.D. Morozov, P.A.Morozov, I.M.Lyubimov, I.P.Ushkov, A.B.Naydenovlar jalb qilindi. Oradan 5 yil o'tgach, jamiyat faoliyatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, 1913-yili jamiyat aksiyalarining asosiy qismi Rus-Osiyo banki va neft bozorida xorijiy kapitallar bilan yaqin aloqada bo'lgan monopolistlar – A.I.Putilov, L.Lianozov, P.Glazberg va boshqalar ixtiyoriga o'tdi. Shu yili jamiyat boshqaruvi jamiyat aksiyalarining asosiy qismi Peterburg aksionerlari ixtiyoriga o'tganligini tan oldi[18]. Shundan keyin, aksionerlar yig'ilishi «Santo» idorasini Moskvadan Peterburgga ko'chirishga qaror qildi.

«Santo» jamiyati neft qazib olishni yildan-yilga oshirib bordi. Urush yillari vaziyat og'ir bo'lishiga qaramasdan 1915-yili 1166901 pud neft qazib olindi. Bu

1914-yilga nisbatan 134256 pud ko'p edi. Agar «Santo» jamiyatining foydasi 1912-yili 11705 rublni tashkil qilgan bo'lsa, 1915-yili u 114407 rubl 42 kopeyeka yetdi. Shunday qilib, «Santo» neft korxonasi dastlab o'z faoliyatini 500 ming rubllik kapital bilan boshlagan bo'lsa, 1916-yilga kelib uning kapitali 2 mln. rubldan oshdi[19].

Asosiy kapitali 2 mln. rublni tashkil qilgan «Chimyon» aksionerlik jamiyati «Santo» jamiyatidan farq qilib, o'z ishlarini bir tekisda olib bora olmadi. Agar 1908-yili jamiyat 2749000 pud neft qazib olgan bo'lsa, 1909-yili bu ko'rsatkich 783000 pudni tashkil qildi, xolos. «Chimyon» jamiyati ixtiyorida 20 ta quduq bo'lib, ularda 290 kishi ishlagan. Jamiyatning ishlab chiqarish jarayonidagi tushkunlik holati ishchilarning turmush tarziga ham ta'sir ko'rsatgan: ish o'rinlari qisqartirildi, ish haqi yanada kamaytirildi. Bu kon ishchilarining noroziligini keltirib chiqardi.

Turkiston neft sanoatining qulay imkoniyatlari bo'lishiga qaramasdan, uning sekin rivojlanishiga quduqlarning neft chiqarish quvvati kamayganligi, malakali ishchi kuchi, zarur texnik jihozlarning yetishmasligidan tashqari, Cheleken orolida o'rnatilgan «Aka-uka Nobellar» shirkati Dog'iston-Cheleken aksionerlik jamiyatini tuzib, Turkistondagi boshqa neft shirkatlarini ma'lum darajada cheklab qo'yishga urinishlari ham sabab bo'layotgan edi. Buning natijasida shirkat Baku neftini «Chimyon» jamiyati orqali sotishdan katta foyda ola boshladi.

«Aka-uka Nobellar» shirkati Turkiston neft konlarini o'z monopoliyasiga aylantirish, o'lkada o'zining Kavkaz va Chelekendan qazib olingan neft mahsulotlarini sotish maqsadida Farg'ona viloyatining Vannovskaya temir yo'l stansiyasida neftni qayta ishlash zavodini qurdi. «Chimyon» neft konidan stansiyagacha quvurlar yotqizildi. O'lkaga tayyor mahsulotlarni keltirishga nisbatan temir yo'l orqali keltirilgan xom ashyoni qayta ishlash «Aka-uka Nobellar» shirkatiga katta iqtisodiy foyda keltirdi. Bu shirkat Turkistonda o'z mavqeini mustahkamlab olish uchun o'lkada bozorlarida neft mahsulotlarini arzon narxda sota boshladi. V.N.Oglobin ma'lumotiga ko'ra, 1913-yil bahorida Boku neftining bir pudi Moskvada 50-53 kopeyeka sotilgani holda, Turkistonda neft

mahsulotlari 45 kopeyekdan sotilgan[20]. Shunga qaramasdan, Turkiston nefti shirkatga iqtisodiy jihatdan katta foyda keltirgan.

Keyinchalik, neftga boy «Chimyon» konlari «Aka-uka Nobellar» shirkati vositachiligida Turkistonda ko'chmas mulk olish huquqiga ega bo'lmagan chet ellik kapitalistlar qo'liga o'ta boshladi. Turkiston neftiga Nobellar shirkatidan tashqari nemis moliya kapitali, Fransiya kapitali manfaatlariga xizmat qilgan Rus-Osiyo banki, 1909-yildan boshlab ingliz kapitali ham o'z mablag'larini qo'ya boshladi. S.P.Konopkaning ma'lumotlarida keltirilishicha, «Knyaz Xilkovga qarashli bo'lgan va 1909-yili 40 ming pud neft bergan Namangan uyezdidagi Moylisoy neft sanoati korxonalarining kelajagi porloq. 1909-yili bu korxonalar Xilkovning vorisi A.O.Valuyeva tomonidan «Javobgarligi cheklangan Farg'ona neft jamiyati» deb nomlangan ingliz aksionerlik jamiyatiga berildi». Bu jamiyat Moylisoy neft korxonalarini kengaytirish va neft qazib chiqarishni ko'paytirish maqsadida 2,5 mln. rubl ajratdi. Buning uchun Londonda 8 mln. rubllik aksiya chiqarildi. «Biroq, - deb yozadi V.N.Ogloblin, 1913 yilgacha konsessiya bir pud ham neft ololmadi»[21]. Faqat, Birinchi jahon urushi boshlangandan keyingina Angliya kapitali Turkiston neftiga qisman ta'sir ko'rsata boshladi. Chunki, bu davrda, Nobel shirkati o'zini mablag' bilan ta'minlab turgan nemis bank kapitali bilan aloqasini uzgan, «fransuz bank guruhi Rus-Osiyo banki orqali rus neftini to'la monopoliya qilish yo'lida sezilarli natijalarga erishayotgan edi»[15].

Turkiston neft sanoatini monopoliyalashtirish jarayoni qanday borganligini shirkatlar faoliyati aks etdirilgan jadvalda ham ko'rish mumkin (jadvalda 1915-yil 1-yanvargacha bo'lgan ma'lumot keltirilgan).

Shuni ta'kidlash lozimki, konlarning yirik shirkatlar ixtiyoriga o'ta boshlaganiga qaramasdan, neft qazib olish korxonalarining samaradorligini oshirishda jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lmadi. Yirik firmalar o'rtasidagi raqobatlar ularning inqirozini ham tezlashtirdi. Masalan, Turkiston neft bozorida o'z monopoliyasini o'rnatish maqsadida «Chimyon» jamiyati aksiyalarini sotib olgan «Aka-uka Nobellar» shirkatining yangi rahbariyati o'z faoliyatini jonlantira olmadi. Natijada, 1915-yilni shirkat 1520 ming rubl (asosiy kapital 2,5 mln. rubl

bo'lgan holda) ziyon bilan yakunladi. Shirkat keyingi yillarda ham o'z ishini o'nglay olmadi. 1917-yil 1-yanvarida shirkat ko'rgan zarar 1671 ming rublga yetdi. Bu jamiyatning to'la inqirozga uchraganini bildirar edi. Turkistonda neft sanoatini sekin rivojlanishiga taklifga nisbatan talabning kamligi ham asosiy sabablardan biri bo'lgan. Neft sanoatidan ilgariroq vujudga kelgan zavod fabrikalar, shuningdek temir yo'l transporti ko'proq ko'mir va saksovul yoqishga moslashtirilgan edi. Shuning uchun ham mhalliy aholi ehtiyojlari uchun ham neft mahsulotlari kam miqdorda talab qilingan. Turkiston neftini Rossiyaning Yevropa qismiga olib borib sotish Boku neftiga nisbatan qimmatga tushar va o'zini oqlamas edi.

O'lkaning chorizm hukmronligi o'rnatila boshlagan yerlarida neft kabi toshko'mirni ham sanoat usulida qazib olishga e'tibor kuchaydi. Konchilik ilmning bilimdoni, ishbilarmon A.S. Tatarinov 1865 yili Chimkentdan 90 chaqirim masofada joylashgan Katta Bug'on daryosi yaqinida ancha yirik toshko'mir konini topdi. Ko'miri ancha sifatli bo'lgan bu konda 1865 yilning yozida qazish ishlari boshlab yuborildi. Tatarinov nomini olgan bu kon, nafaqat o'lkadagi dastlabki konchilik sanoati korxonasi, balki birinchi kapitalistik korxona ham edi. Mustamlakachi hukumat «toshko'mir butun o'lka uchun sanoat taraqqiyoti manbai» ekanligini hisobga olib, konni zarur mablag' bilan taminlashga va'da bergan bo'lsada, biroq bu va'da hamisha ham bajarilavermaganligi tufayli korxona ko'pincha qiyin vaziyatlarga tushib turdi. Ammo, uddaburon Tatarinov bir necha yil davomida nafaqat konni saqlab qolishga, balki undan qazib olinadigan ko'mirni ko'paytirishga ham (1871-yilgacha) erishdi. Agar, 1866-yili kondan 3500 pud ko'mir qazib olingan bo'lsa, 1869-yil bu ko'rsatkich 81000 pudga yetdi, ya'ni ikki yil davomida 23 % o'sdi[20]. Biroq, nisbatan ancha sodda qurilgan bu korxona keyinchalik raqobatga bardosh bera olmadi.

Tatarinov koni bilan bir qatorda savdogar Pervushin (Toshkentdan 80 chaqirim masofadagi Xo'jand qishlog'i yaqinida) va Xo'jand shahrining komendanti, polkovnik Favitskiylar (Xo'jand shahridan 35 chaqirim janubi g'arbda joylashgan Qo'qimsoy yaqinida) ko'mir konlarini ochdilar. Bundan tashqari, Pervushin 1873-

yili Ugom daryosining yuqori oqimida yana bitta toshko‘mir konini ishga tushirdi. Pervushinga tegishli konlardan qazib olingan toshko‘mir Toshkentdagi aroq-vino zavodlari hamda ipak o‘rash fabrikalarida ishlatilgan. Favitskiyning mahalliy aholiga ilgari ma‘lum bo‘lgan konidan 1868 -yildan boshlab sanoat usulida ko‘mir qazib olishga kirishildi. Bu korxona harbiy buyurtmalar (asosan Orol floti uchun), Xludovning ipak yigirish fabrikasiga hamda mansabdor shaxslar va mulkdorlar uchun ko‘mir yetkazib bergan. Favitskiy konining toshko‘miriga talab katta va iste‘molchilari ko‘p bo‘lganligi uchun, bu kon Pervushinnikiga nisbatan tez rivojlandi. Agar, 1868-yili Favitskiy konidan 14 ming pud toshko‘mir qazib olingan bo‘lsa, 1873-yili bu ko‘rsatkich 68 ming pudga yetgan[18]. Favitskiy koni haqidagi so‘nggi ma‘lumotlar 1875-yilning hisobotlarida, Pervushin konlari haqidagi ma‘lumotlar 1885-yilning hisobotlarida uchrashiga qarab, bu konlar nisbatan ancha uzoq faoliyat ko‘rsatgan, degan xulosaga kelish mumkin.

XIX asrning 60-70-yillarida o‘lkaning toshko‘mir sanoati asosan Tatarinov, Pervushin va Favitskiy konlari bilan cheklanib qolgan edi. Bunga asosan konlar topilgan tog‘li zonalarini o‘zlashtirish, u yerdan toshko‘mirni tashib ketish katta xarajat va qo‘shimcha ishchi kuchi talab qilganligi tufayli bu sohaga hukumat tomonidan yetarli e‘tibor berilmaganligi sabab bo‘ldi. Konchilik sanoati bilan shug‘ullangan rus burjuaziyasi bu davrda hali mayda sanoatchilar, ishbilarmonlar yoki omad izlab kelgan tijoratchilardan iborat bo‘lib, ularning yirik sanoat ishlab chiqarishini vujudga keltirish imkoniyati chegaralangan edi. Shuning uchun ham tishbilarmon tadbirkorlar iloji boricha talab doimiy suratda katta bo‘lgan konchilik tarmoqlarini qidirishga majbur bo‘lishgan.

XIX – asr o‘rtalarida chorizm zulmidan qochib Qo‘qon xonligiga kelib qolishgan tatarlar Sirdaryoning yuqori qismidagi tog‘lardan oltin qidirishgan. 1851-yili Safarboy sarkor Nerchinskdan kelib qolgan Sulton ismli tatarga qumdan oltin ajratib oladigan qurilma yasashni topshirgan. O‘lka oltin qazish ishlar nihoyatda sodda usulda bo‘lib, xonliklarning bir yilda qazib olgan oltinlari bir necha puddan oshmagan. Shunday bo‘lsada, xonliklar oltin zahiralarini sir

saqlashga harakat qilishib, boshqalarga oltin konlarida qazish ishlari olib borishlariga ruxsat berishmagan.

Qo‘qon xonligi hududlarida oltindan tashqari, qo‘rg‘oshin va kumush konlari ham bo‘lgan. Jumladan, Oloy tog‘larining Zardoli degan xilvat joyidan qo‘rg‘oshin va kumush qazib olingan. Qirg‘izlar Chotqol tog‘larining Maydantol degan joyidagi konlardan kumush qazib olishgan. Isfara qishlog‘idan uncha uzoq bo‘lmagan Koniyut g‘oridan qadimdan kumushga boy bo‘lgan (23 %) temir rudasi qazib olingan[19].

Xonliklar hududlarida turli metallarga boy rudalar ko‘p bo‘lgan. Biroq, tajriba va bilim yetishmaganligi tufayli ulardan oddiy usulda sof metall ajratib olish nihoyatda mushkulligicha qolgan. Masalan, 1839-yili Muhammad Alixon tomonidan Olatov koniga yuborilgan konchilar 1000 choriqqina ruda olib kelishgan, undan bor yo‘g‘i 1 choriq toza kumush ajratib olingan, xolos. Bu ahvolda xonlikning kumushga bo‘lgan talabini qondirib bo‘lmagandan keyin, Qo‘qon hukmdorlari Xitoydan katta miqdorda kumush sotib olishga majbur bo‘lishgan.

Mahalliy aholi mumning asosan tog‘ mumi (ozokerit) va sariq mumni yaxshi bilganlar. Farg‘ona vodiysida tog‘ mumi yaxshi daromad manbai hisoblanib, u Moylisoy bo‘ylaridagi Ko‘ktosh tog‘lari yon bag‘irlaridan XX asr boshlarigacha qazib olingan. Mumga qadimdan etikdo‘z, maxsido‘z, kavushdo‘z va boshqa hunarmandlar katta ehtiyoj sezishgan. Mumdan teriga ishlov berishda, qog‘oz ishlab chiqarishda, suyak, bo‘g‘in, teri kasalliklarini davolashda ham foydalanilgan. Sariq mumdan esa sham, sovun tayyorlangan. Undan harbiy maqsadlarda ham foydalanilgan. Jumladan, 1850-yillarda Qo‘qon xonligida hayvon terisiga dori solib tayyorlangan va arg‘amchi bilan bog‘langan piltali to‘p (shar)larning qobig‘iga mum surtib chiqilgan[20].

Qo‘qon xonligida qo‘rg‘oshin va neft qazib olishga ham alohida e‘tibor berilgan. Xonning topshirig‘i bilan Vodilning g‘arbidagi «Kon» degan joydan o‘zbeklar, «La‘lkon» degan joydan qirg‘izlar qo‘rg‘oshin qazib olishgan. Biroq, bu konlardan olingan qo‘rg‘oshin qo‘shinlar ehtiyojidan ortmagan. Biroq, o‘lkada

cho‘yan va po‘latga ehtiyoj katta bo‘lishiga qaramasdan, bilim va tajriba yetishmasligi oqibatida rudadan sanoat usulida metall ajratib olish yo‘lga qo‘yilmadi.

XULOSA

Shunday qilib, Turkiston o‘lkasining qazilma boyliklari ko‘p bo‘lishiga qaramasdan bu soha nisbatan sekin rivojlandi. Imperiya hukumati yirik konlarni o‘ziga sadoqatli kishilarga berishga harakat qildi. Asosan aslzodalardan iborat bo‘lgan bunday kishilar konchilik sanoatida kapitalistik ishlab chiqarishni yaxshi yo‘lga qo‘ya olmadilar. Rossiya kapitalistlarining beburdligi va iqtisodiy nochorligi tufayli o‘lka konchilik sanoatining yirik shirkatlari chet el yirik firmalar ixtiyoriga o‘tib qoldilar. O‘lkadagi Moylisoy, Chimyon, Qizilqiya, Cheleken va boshqa konlar Santo, Nobel kabi shirkatlar orqali nemis, ingliz va boshqa chet el kapitalistlariga katta daromad keltirdi. Dastlab toshko‘mir va saksovluga moslashgan o‘lka sanoat korxonalari va temir yo‘l transporti neft mahsulotlaridan samarali foydalanmadilar. Shuningdek, o‘lka aholisining ko‘pchilik qismini neft va toshko‘mir sotib olishga qurbilari yetmaganliklari uchun konchilik sanoati mahsulotlari ko‘p sotilmadi. Biroq, sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan bu ikkala tarmoq mahsulotlariga ham talab ortib bordi. Ularga katta miqdorda chet el kapitali jalb qilinib ishlab chiqarish jarayonining markazlashuvi kuchaydi. Bu jarayon konchilikda paxta tozalash va yog‘ ishlab chiqarish sanoatiga nisbatan ancha yuqori edi.

IQTIBOSLAR / ЧОККИ / REFERENCES

1. Negmatov N.N. Gosudarstvo Samanidov. –Dushanbe: «Donish», 1977. – S.71.
2. Istoriya tadjikskogo naroda. t. II, kn, II, -M.: «Nauka», 1964, -S.95.
3. Tam je. -S. 64.
4. Ivanov D.L. Neftyaniye istochniki Ferganskoy oblasti // Turkestanskiye vedomosti. 1882, sent. № 33-34, -S. 19-20
5. Jamolhoji I.N. Farg‘ona vodiysida neft sanoatining shakllanish va rivojlanish tarixi (1860-1917). Tarix fan. nom. diss. –T., 2004. 28-b.

6. O‘zR MDA, 1-fond, 15-ro‘yxat, 18-ish, 5-9-v.
7. Vlasova E.N., Deyeva YE.A., Kravets L.N., Fayziyeva Formirovaniye rabocheho klassa v dorevolutsionnom Uzbekistane. –Tashkent, «Fan», 1979. -S. 31-32.
8. Kalitskiy K.P. Neftyaniye mestorajdeniya Fergani // Izv. geol. kom-ta. T. XXXIII. –1914. -№ 7.
9. Palen K.K. Otchyot po revizii Turkestanskogo kraya... -SPb. –S. 100.
10. Rojdestvenskiy A. Materiali iz istorii neftepromishlennosti na ostrove Cheleken. // Zakaspiyskoye
11. Ogloblin V.N. Promishlennost i trgovlya Turkestana... -S.-28.
12. Dmitriyev-Mamonov A.I. Putevoditel po Tukestanu i jeleznim dorogam Sredneaziatskoy i Tashkentskoy. Izd. 8-ye, -SPb., 1915. -S. 12.
13. Ismailov R.Y. Iz istorii formirovaniya pervix kadrov rabocheho klassa v Turkestane na rubeje XIX-XX vv. // Vestnik LGU, vip. 4, 1957, № 20. -S.141.
14. SGIAL, f. 1468, op. 1, d. 17, l-14.
15. Qarang: Babaxanov. M. Predposilki revolyutsionnogo soyuza trudyashixsya Turkestanskogo kraya s Rossiyskim proletoriatom. –Dushanbe: «Irfon», 1975. -S. 97.
16. Oglobin V.N. Promishlennost i trgovlya Turkestana... -S.29.
17. Vanag N. Finansoviy kapital v Rossii nakanune mirovoy voyni. –M., 1925. -S.134.
18. O‘R MDA, f. I-1, r.15, h.142, v.3. h. 170, v.4.
19. O‘R MDA f. I-1, r.25, h.185, v.3.
20. Bobobekov H. Qo‘qon tarixi. –T.: «Fan», 1996. 103-b.

Кобзева О.П.

д.и.н., профессор

Национальный университет Узбекистана

Okobzeva75@mail.ru

ЖЕНЩИНЫ В СУФИЗМЕ

АННОТАЦИЯ

В представленной статье проанализирована история деятельности женщин в суфизме. Вместе с тем, на основе изучения новых научных работ по данной теме, автором сделаны выводы о том, что основной целью суфизма является воспитание добродетельного человека, а его нация, пол и статус при этом не имеют значения. Кроме того, приведены сведения об участии женщин в деятельности суфийских тарикатов.

Ключевые слова: Суфизм, тарикат, развитие, влияние, жизнь.

Кобзева О.П.

т.ф.д., профессор

Ўзбекистон Миллий университети

Okobzeva75@mail.ru

SO‘FIYLIKDA AYOLLAR

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tasavvufdagi ayollar faoliyati tarixi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, muallif ushbu mavzudagi yangi ilmiy asarlarni o‘rganishga asoslanib, so‘fiylikning asosiy maqsadi fazilatli insonni tarbiyalash ekanligi, uning millati, jinsi va mavqei muhim emas degan xulosaga kelgan. Bundan tashqari, so‘fiylik tariqatlari faoliyatida ayollarning ishtiroki haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: So‘fiylik, tariqat, rivojlanish, ta'sir qilish, hayot.

Kobzyeva O.P.

DSc., professor

National university of Uzbekistan

Okobzeva75@mail.ru

WOMEN IN SUFISM

ABTRACT

This article analyzes the history of women's activities in Sufism. At the same time, based on the study of new scientific works on this topic, the author concluded

that the main goal of Sufism is the education of a virtuous person, and his nation, gender and status do not matter. In addition, information is provided on the participation of women in the activities of Sufi tariqats.

Key words: Sufism, tariqat, development, influence, life.

ВВЕДЕНИЕ

В истории можно увидеть женщин-суфиев, у которых были ученики-мужчины. Они становились ученицами шейхов, посещали текке и даже могли получить статус наместника (халифа) шейха. Подобно тому, как в ранней истории тасаввуфа встречаются суфии, отказавшиеся от мирской жизни, которых называли «рахиб» (монах), были и именуемые «рахоба» женщины, предпочитавшие аналогичный образ жизни.

Одной из первых святых в суфизме считается полулегендарная Раби‘а ал-Адавия из Басры (717–801). Она стала родоначальницей концепции чистой любви в суфизме. Раби‘а говорила, что «женщину, которая постоянно молится, Всевышний ценит, как мужчину»[1], ведь не имеет значения, кто именно вступил на путь Познания, Бог не взирает на лица людей, так как Он смотрит в их души[1]. Она не выходила замуж, ничего не брала у людей. Когда ей присылали подарки, отсылала их обратно со словами: «Я не нуждаюсь ни в чем из мирской жизни». Чтобы попросить ее о молитве, послушать ее и стать ее учениками, к ней приходило множество людей. Среди них были и такие прославленные суфии, как Малик ибн Динар, Шакик Балхи, Суфьян Саури и Рабах Кайси. Согласно Рабие Адавие, основа тасаввуфа – любовь. Человек, который служит Господу ради рая, а не из любви к Нему, подобен слуге, работающему за плату.

ОСНОВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Анализ научной литературы и имеющихся интернет источников показывает, что Хафса бинт Сирийн -сестра Мухаммада ибн Сирина (653-729) – богослова из поколения табиитов, знатока хадисов, правоведа, комментатора Корана и толкователя снов. Прославилась своим поклонением,

аскетизмом и знанием мусульманского права – фикха. Даже брат отправлял к ней людей, которые приходили к нему с вопросами по толкованию Корана.

Айша Нишапури была одной из тех женщин-суфиев, которые, движимые принципом «Любить створенных ради их Творца», были наполнены любовью и состраданием ко всем живущим.

10. The Clinton-Gore Economic Record: The Longest Expansion In History And Over 22.4 Million New Jobs. November 3, 2000. // <http://clinton4.nara.gov>.
11. Исайкина А.Н. Влияние борьбы за сбалансированный бюджет на изменение социальной политики администрации Клинтона: 1993-2001 гг.: диссертация кандидата исторических наук: 07.00.03 Москва 2014. – С.25.

12. The Clinton-Gore Economic Record: The Longest Expansion In History And Over 22.4 Million New Jobs. November 3, 2000. // <http://clinton4.nara.gov>.

13. Лютов А.А. Государственная политика США в области занятости и безработицы на рубеже XX – XXI веков. Дисс. к.ист.н. – Москва: РАН Институт США и Канады, 2002 // <http://dlib.rsl.ru>

14. Лебедева Л.Ф. Государственная политика социальной защиты населения в США США и Канада: экономика, политика, культура. 2005. № 2 (422). С. 17-32..

15. The Clinton-Gore Economic Record: The Longest Expansion In History And Over 22.4 Million New Jobs. November 3, 2000. // <http://clinton4.nara.gov>.

16. Department of Health and Human Services. Administration for Children and Families. Temporary Assistance for Needy Families Program (TANF); Final Rule. Volume 64, Number 69. April 12, 1999.

17. Исайкина А.Н. Влияние борьбы за сбалансированный бюджет на изменение социальной политики администрации Клинтона: 1993-2001 гг.: диссертация ... кандидата исторических наук: 07.00.03 Москва 2014. – С.25.

18. The Clinton-Gore Economic Record: The Longest Expansion In History And Over 22.4 Million New Jobs. November 3, 2000. // <http://clinton4.nara.gov>.

19. Лютов А.А. Государственная политика США в области занятости и безработицы на рубеже XX – XXI веков. Дисс. к.ист.н. – Москва: РАН Институт США и Канады, 2002 // <http://dlib.rsl.ru>

20. U.S. Department of Health & Human Services, Administration for Children and Families. Total TANF Recipients by State. // <http://www.acf.hhs.gov>.

21. U.S. Department of Health & Human Services, Administration for Children and Families. Total TANF Recipients by State. // <http://www.acf.hhs.gov>.

22. Лютов А.А. Государственная политика США в области занятости и безработицы на рубеже XX – XXI веков. Дисс. к.ист.н. – Москва: РАН Институт США и Канады, 2002 // <http://dlib.rsl.ru>

Tuxtabekov K.A.

t.f.n., dotsent

O'zbekiston Milliy universiteti

kozimazimbek@mail.ru

SHAYBONIY HUKMDORLARINING MOVAROUNNAHRDA SIYOSIY HOKIMIYATNI EGALLASHI ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Shaybonilar sulolasi siyosiy tarixi va uning asoschisi tog'risida hamda bu sulola vakili Muhammad Shayboniyxonning siyosi maydonga chiqish va Movarounnahrda hokimiyatni egallashi masalalri ko'rsatib berilgan. Shunigdek, Shayboniyxonning qozoqlar siyosiy musobatlari tarixi bo'yicha fikrlar bayon etilgan.

Калит сўзлар: Shayboniylar sulolasi, Shayboniyxon, Dashti qipchoq, shayboniylar hukmronligi davrida ijtimoiy-siyosiy hayot va davlat boshqaruvi, Movarounnahr, Xuroson, Temuriylar davri, Ubaydullaxon, Abdullaxon.

Тухтабеков К.А.

к.и.н., доцент

Национальный университет Узбекистана

kozimazimbek@mail.ru

УСТАНОВЛЕНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ ВЛАСТИ В МАВЕРАННАХРЕ ПРАВИТЕЛЯМИ ШЕЙБАНИДОВ АННОТАЦИЯ

В данной статье рассказывается о политической истории династии Шейбанидов и ее основателе, а также о выходе на политическую арену и захвате власти в Мавераннахре представителем этой династии Мухаммедом Шейбани-ханом. Также изложены история политических отношений Шейбани-хана с казахскими ханами.

Ключевые слова: династия Шейбанидов, Шейбани-хан, Дашти-Кипчак, общественно-политическая жизнь и государственное управление в период правления Шейбанидов, Мавераннахр, Хорасан, период Тимуридов, Убайдуллахан, Абдуллахан.

Tuxtabekov K.A.

PhD., associate professor

National university of Uzbekistan

kozimazimbek@mail.ru

ESTABLISHMENT OF POLITICAL POWER IN MAVERANNAHR BY THE SHEYBANID RULERS ABSTRACT

This article tells about the political history of the Sheibanid dynasty and its founder, as well as about the entry into the political arena and the seizure of power in Transoxiana by the representative of this dynasty, Muhammad Sheibanikhan. The history of Sheibani Khan's political relations with the Kazakh khans is also described.

Key words: Sheibanid dynasty, Sheibani Khan, Dashti-Kipchak, Socio-political life and public administration during the reign of Sheibanids, Transoxiana, Khorasan, Timurid period, Ubaydullahan, Abdullahan.

KIRISH

O'zbek xalqi davlatchiligi taraqqiyotida Shayboniylar sulolasining hukmronligi katta ahamiyat kasb etadi. XV asrda Dashti Qipchoqda ko'chmanchi o'zbeklar davlati tashkil topdi. Bu davlatning asoschisi Abulxayrxon edi. Biroq, bu davlat atigi 40 yil yashadi, u 1468-yilda inqirozga yuz tutdi. Buning asosiy sababi - Dashti Qipchoqni siyosiy jihatdan birlashtirishning mustahkam iqtisodiy asoslari ta'minlamaganligi hamda qabila boshliqlarining mustaqillikka intilishlari oqibatida yuz bergan o'zaro ichki urushlarning avjga chiqqanligi edi.

Dashti Qipchoq qabilalarini birlashtirish va o'zbek davlatini qayta bunyod etish vazifasini Shayboniyxon amalga oshirdi [1]. Shayboniyxonning siyosat maydoniga chiqishi Temuriylar saltanatining parokandalikka uchragan davriga to'g'ri keladi. Movarounnahrda tarixiy vaziyatni to'g'ri baholay olgan Shayboniyxon uning hududlarini ishg'ol etishga kirishdi. Shayboniyxon bilan keskin urush harakatlarini olib borgan temuriylar avlodi – o'z davrining yirik davlat arbobi Bobur podshoh edi. Biroq, uning harakatlari ham muvofaqiyatsiz chiqdi. Shayboniyxon g'alabasi bilan Temuriylar saltanatiga xotima berildi. Movarounnahrda Shayboniyxon

saltanati qaror topdi. XVI asrdan boshlab Movarounnahrda yashovchi turkiy xalqlar o'zbeklar deb ataladigan bo'ldi. Biroq, bu bilan o'zbeklar xalq sifatida XVI asrga kelib shakllandi deb bo'lmaydi. Ko'chmanchi o'zbeklardan mahalliy aholiga o'zbek degan nom o'tdi [2].

Shayboniylar davlati Abdullaxon II davrida yirik markazlashgan davlatga aylandi. Biroq, bu davlat ham mustahkam emas edi. Chunki, bu davlat ham kuch bilan barpo etilgan edi. Mahalliy hukmdorlar markaziy hokmiyatga bo'ysunishni istamas edi. Natijada, shayboniylar hukmronligi bir asrdan so'ng barham topdi.

O'rta Osiyoda shayboniylar hukmronligi davrida ijtimoiy-siyosiy hayot va davlat boshqaruvi, o'lkadagi iqtisodiy va madaniy taraqqiyot davom ettirildi. Shuningdek, shayboniylar va undan keyingi davrlarda mamlakatning xonliklarga bo'linib ketishi tufayli ularning ijtimoiy-siyosiy ahvoli va davlat boshqaruvi, aholisining etnik tarkibida, iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonlarida, xonliklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda salbiy holatlar kuzatiladi. Xonliklarning jahon hamjamiyati taraqqiyotidan orqada qolishi kuzatiladi. Shu bilan birga, Rossiya va O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi munosabatlar rivoji jarayonida u yoki bu tomonning an'anaviy xalqaro munosabatlar qoidalariga rioya qilishi, o'z niyatlarini amalga oshirishda O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida birlik va hamkorlikning yo'qligi, aksincha, ular o'rtasida olib borilgan o'zaro urushlar istilochilar uchun qulay imkoniyatlar yaratdi.

Vatanimiz tarixi faqat u yoki bu nom bilan ataladigan saltanat yoki davlatning vujudga kelishi, hamda uning yemirilishi tarixidagina iborat emas. Vatanimiz tarixi ayni paytda ajdodlarimizning buyuk bunyodkorlik tarixi hamdir. To'g'ri, XVI asrda va undan keyingi davrlarda xalqimizning buyuk bunyodkorlik ishlari Amir Temur va Temuriylar davridagiga qaraganda birmuncha bo'shashdi. Buning asosiy sababi siyosiy tarqoqlik bo'ldi. Amir Temurdan so'ng temuriyzodalarning toj-u taxt uchun o'zaro kurashlari oqibatida ulkan davlat parchalanib ketdi. Shundan so'nggi butun tariximiz davomida hech kim (Abdullaxon II dan boshqa) markazlashgan yagona davlat tuzishning uddasidan chiqqa olmadi [3]. Buning asosiy sabablari – qabilaviy mehdudlik, jahon hamjamiyatidan uzilib qolish oqibati

edi. Lekin, Amir Temurdan keyin bunyodkorlik ishlari to'xtab qolmadi, XVI asrda ham davom etdi.

Shayboniylar hamda tashkil topgan mustaqil xonliklar Buyuk Ipak yo'li tufayli Osiyo va Yevropa davlatlari bilan savdo va elchilik munosabatlarini muntazam davom ettirganlar. XVI asrga kelib dengiz savdo yo'lining ochilishi va Buyuk Ipak yo'li xalqaro nufuzi pasayishiga qaramay, xalqaro munosabatlar davom etdi [4].

Shayboniylar Movarounnahrda hokimiyat tepasiga kelgan XVI asrda Osiyoning bir-biriga tutash qismida uch siyosiy kuch kurash maydoniga chiqqan edi. Bular: Movarounnahrda – shayboniylar, Eronda – safaviylar, Hindistonda – boburiylar. Ularning manfaatlari to'qnashgan nuqta Xuroson bo'ldi. Chunki, Xuroson ham harbiy-siyosiy, ham savdo-iqtisodiy jihatdan muhim o'rin tutar edi. Shuningdek, Xuroson – Movarounnahr, Eron va Hindiston yo'nalishida o'ziga xos darvoza vazifasini ham o'tar edi.

Xurosonni nazorat qilish masalasida shayboniylar va safaviylar o'rtasida keskin kurash ketgan. Bu masalada Shayboniixon, Ubaydullaxon va Abdullaxonlar davrida shayboniylar ustunlik qilganlar. Qolgan vaqtlarda safaviylarning qo'li baland kelgan. Oqibatda, ular Xurosonni Movarounnahrdan ajratib tashlashga muvaffaq bo'lganlar.

Albatta, XVI asrdan boshlab O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayotida ham XIV-XV asrlardagi mavqeyini saqlab qola olmagan. Aksincha, shu davrdan boshlab madaniy hayotning orqaga ketishi ro'y berdi va unda uzoq turg'unlik davri boshlandi. Shunga qaramay bu davr faqatgina o'zaro urushlar, ichki nizolar, toj-u taxt talashuvlari tarixidangina iborat bo'lib qolmagan.

Hatto, taxt uchun, markaziy hokimiyatni kuchaytirish uchun qo'shnilarining hududlarini bosib olish uchun kurashgan hukmdorlar orasida ijod bilan shug'ullangan, ilm-fan va adabiyot ahliga homiylik qilganlari ham bo'lgan. Masalan, Shayboniixon, Ubaydullaxon va Abdullaxon shular jumlasidandir. Shu boisdan bu hukmdorlarning siyosiy portretlarini atroflicha o'rganilishi o'zbek xalqi davlatchiligi tarixini mukammal yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, Shayboniy hukmdorlarining siyosiy portretlarini o'rganilishi borasida amalga

o'shirilgan tadqiqotlar alohida ilmiy mavzu sifatida ko'tarilmagan va maxsus o'rganilmagan. Qolaversa, shayboniylar davriga oid izlanishlar natijalari maxsus ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida umumlashtirilmagan.

Buxoro xonligi XVI-XX asr boshlarida O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan yirik davlat bo'lib, unda 3 ta sulola – Shayboniylar (XVI asr), Ashtarxoniylar (XVII-XVIII asr o'rtalari) va Mang'itlar hukmronlik qilganlar. Bu sulolalar hukmronligi davrida xonlikning siyosiy nufuzi, kuch-qudrati turlicha bo'lganligi sababli ham Buxoro xonligini Shayboniylar davlati, Ashtarxoniylar davlati va Buxoro amirligi deb alohida ajratib atash hollari uchraydi [5].

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi o'zbeklar XVI asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonni egallab, temuriy shaxzodalar hukmronligiga chek qo'ydilar va bu ulkan hududda o'zlarining markazlashgan davlatiga asos soldilar. Bu davlat poytaxti avval Samarqand bo'lgan bo'lsa, XVI asr o'rtalaridan boshlab Buxoroga ko'chiriladi. Shundan keyin bu davlat Buxoro xonligi deb ham atala boshladi. Butun XVI asr mobaynida hokimiyatni o'z qo'llarida saqlab kelgan Shayboniylar sulolasi hukmronligi o'zbek davlatchiligi tarixida katta ahamiyatga ega bo'lib, xuddi shu davrda o'zbek xalqining etnik shakllanishidagi uchinchi davr boshlandi. Dashti Qipchoqlik o'zbeklar Movarounnahr va Xurosondagi mahalliy turkiy xalq – o'zining azaliy qon-qondoshlari bilan qo'shilib ketdi va ularga ham o'zining nomini berdi[6].

Balxash ko'li va Sirdaryoning quyi oqimlaridan to Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan ulkan hudud XI asrdan boshlab Dashti Qipchoq deb atala boshlandi. Qipchoqlar va boshqa turkiy qabilalar hukmronligi ostida bo'lgan bu hududni 1236 yilda Botuxon o'zining turk-mo'g'ul qo'shinlari bilan egalladi va tarixga Oltin O'rda nomi bilan kirgan davlatga asos soldi. XIV asr boshlarida ikki qismga bo'linib ketgan Oltin O'rda davlatining sharqiy qismida tashkil topgan davlat – Oq O'rda tarixiy manbalarda "O'zbeklar mamlakati" deb ham yuritilgan [7].

XV asr o'rtalarida bu hududda Jo'chixonning beshinchi o'g'li Shaybon urug'idan bo'lgan Abulxayrxon (1412–1468) ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga asos soldi. Bu davrda Oltin O'rta (Ko'k O'rda)da, Mo'g'ulistonda va temuriylar hukmronlik qilayotgan Movarounnahrda o'zaro feodal urushlar nihoyatda kuchayib ketdi. Bundan foydalangan Abulxayrxon Sirdaryoning o'rta oqimidagi bir qancha shaharlarni, Xorazmning bir qismini bosib olib, temuriylar davlatining yon qo'shnisi bo'lib qoldi. Abulxayrxonning vafotidan so'ng inqirozga uchragan bu davlat XV asrning 80-yillarida Muhammad Shayboniyxon (1451–1510) tomonidan qayta tiklandi. Shayboniyxonning hokimiyat tepasiga kelishida Movarounnahr amirlaridan olingan yordam ham katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Hozirgi Qozog'istonning katta qismi, janubi-g'arbiy Sibirni va Xorazmning janubi-g'arbiy qismini o'z ichiga olgan bu davlat bilan temuriylar davlati o'rtasida o'zaro iqtisodiy va siyosiy aloqalar mavjud edi. Temuriy shahzodalarning ko'pchiligi toj-u taxt uchun kurashda ko'chmanchi o'zbeklardan moddiy va harbiy yordam olib turganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan [8].

Aslida bitta millatga, bitta xalqqa mansub bo'lgan har ikki davlatning hukmron tabaqalari bir-birlari bilan quda bo'lishga intilganlar. Xususan, ko'pgina temuriy shahzodalar Dashti Qipchoqdan kelin olgan bo'lsalar, ba'zi temuriy malikalar u yerga kelin bo'lib tushganlar. XV asrning 20-yillarida Oq O'rdada nizolar kuchaygan davrda ham har ikki o'rtada savdo-sotiq ishlari to'xtamagan, O'rta Osiyolik savdogarlarning Dashti Qipchoqqa borib savdo-sotiq qilib, qaytib kelishgan [9].

XV asrning 80-yillarida Shayboniyxon va qozoq xonlari (Burunduqxon, Qosim sulton va boshqalar) o'rtasida O'zbek ulusida siyosiy hokimiyat uchun kuchli kurashlar bo'lib turishiga qaramay samarqandlik va buxorolik savdogarlarning karvonlari Dashti Qipchoqqa uzluksiz qatnab turgan[10].

Shayboniylar davlatining asoschisi Muhammad Shohbaxt Shayboniyxon (1451–1510) bo'lib, u iste'dodli shoir va zamonasining o'qimishli, bilimdon kishilaridan biri edi. U hokimiyatni qo'lga olmasdan oldin, Buxoroda bir necha muddat yashab, bu yerdagi madrasada ta'lim oladi, diniy va dunyoviy ilmlarni

o'rganadi. Mashhur ilohiyat olimi Muhammad Xitoy uning ustozi bo'lganligi, mashhur shayx va olim xoja Muhammad Porsoning izdoshlaridan Hofiz Husayn Busiriy va uning xalifasi xoja Mahmud hamda Buxoroyi sharifning boshqa ko'pgina ulamo-yu shuarolari ham Shayboniyxon bilan yaqin munosabatda bo'lgan [11].

Ko'chmanchi o'zbeklar xoni sifatida hokimiyatni qo'lga olgan Shayboniyxon tez orada tajribali davlat rahbari va harbiy sarkarda ekanligini namoyish qildi. XV asrning 90-yillaridayoq Movarounnahrning markaziy viloyatlariga – o'zaro kurashlar va ichki nizolar tufayli tobora zaiflashib borayotgan temuriylar davlati hududlariga hujumlar uyushtira boshladi. Bu davrda Movarounnahrdagi temuriylar saltanati amalda mustaqil boshqariladigan kichik-kichik viloyatlarga bo'linib ketgan edi. Ayniqsa, 1494-yilda Samarqand hukmdori Sulton Ahmad Mirzo vafotidan so'ng temuriy shahzodalarning o'zaro nizolari yanada kuchayib, mamlakatda boshboshdoqlik, ko'p hokimiyatchilik yuzaga keldi. Bundan foydalanishga intilgan Shayboniyxon 1497 yilda Movarounnahrda o'zining dastlabki hujumini uyushtirdi. U katta kuch bilan Samarqandga yurish qildi, lekin shaharni ololmasdan, Qarshi va Shaxrisabzga hujum qilib katta o'lja bilan qaytib ketadi [12].

Temuriy shahzodalar Boysunqur Mirzo va Sulton Alilar o'rtasidagi Samarqand taxti uchun bo'lgan urushlardan foydalangan Andijon hokimi Zahiriddin Muhammad Bobur 1497-yilda temuriylar poytaxti Samarqand shahrini egallaydi. Lekin qisqa vaqt (100 kun) hukmronlikdan so'ng yana Andijonga qaytib ketishga majbur bo'ladi. Samarqand taxtiga temuriy shahzoda, Qarshi hokimi Sulton Ali o'tiradi. Temuriylarning bu nizolarini diqqat bilan kuzatib turgan Shayboniyxon 1599-yilda katta kuch bilan yana Samarqandni qamal qiladi. Buxoro hokimi Boqi Tarxonning 10 ming kishilik qo'shin bilan samarqandliklarga yordamga kelayotganligidan xabar topgan Shayboniyxon qamalni to'xtatib unga qarshi chiqadi [13]. Samarqand va Buxoro oralig'ida joylashgan Dobusiya qal'asini mudofaa qilib turgan Boqi Tarxon qo'shinlari bilan bo'lgan qisqa jangdan so'ng, uning qo'shinlari himoyasiz qolgan Buxoroga yurish qilib, shaharni jangsiz

egallaydilar. Boqi Tarxon Samarqand va Buxoroliklarning birlashgan qo'shiniga bosh bo'lib Buxoroga qaytadi. Lekin, Shayboniyxonning inisi Sulton Mahmud boshchiligidagi saralangan o'zbek qo'shinlari bilan Buxoro ostonasida bo'lgan jangda mag'lubiyatga uchrab, Qarshi shahriga chekinadi [14].

Bu voqealarni kuzatib turgan va temuriy hukmdorlar uchun jiddiy xavf paydo bo'lganligini anglagan Bobur Mirzo 1500-yilda o'z qo'shini bilan yana temuriylarning poytaxt shahriga – Samarqandga yurish qiladi. Lekin Shayboniyxon undan oldinroq harakat qilib Samarqandni qamal qildi. Shahar hokimi Sulton Ali o'zining ba'zi amaldorlari taxtni Bobur Mirzoga topshirish uchun yashirin harakatlar olib borayotganligidan xabar topib, Shayboniyxon bilan muzokaralar olib borishga majbur bo'ladi. Ular orasidagi kelishuvga binoan Shayboniyxon Sulton Alining onasiga uylanadi va Samarqand shahrini ham jangsiz qo'lga kiritadi. Tez orada Qarshi va Xuzor (G'uzor) shaharlari ham shayboniylar tomonidan bosib olinadi[15].

Movarounnahrning ikki yirik shaharlari – Buxoro va Samarqandning jangsiz Shayboniyxon qo'lga o'tishi, uning nafaqat tajribali sarkarda, balki yetuk davlat arbobi va aqlli siyosatchi ham ekanligini ko'rsatib turibdi. Shayboniyxonning bu xususiyatlari "Musaxxir al-bilod" asarida batafsil tasvirlangan [16].

Shayboniyxon 1501-yilda asosiy qo'shini bilan Toshkent hokimi Mahmudxon va Farg'ona hokimi Ahmadxonlarga qarshi yurish qilib Toshkent viloyatidagi Shohruxiyani va boshqa qal'alarni bosib oladi.

Xuddi shu paytda Bobur Mirzo Samarqandagi o'ziga xayrxoh kishilar yordamida shaharni ikkinchi marta qo'lga kiritishga erishdi. Qarshi va G'uzorda ham shayboniylarga qarshi g'alayon ko'tarildi. Movarounnahrda Shayboniylar uchun tahlikali vaziyat yuzaga keldi. O'zining Movarounnahrda asosiy raqibi Bobur Mirzo ekanligini anglagan Shayboniyxon katta kuch bilan Samarqandga qaytadi va shahar yaqinidagi jangda Bobur Mirzo qo'shinlariga qattiq zarba beradi [17]. Shaharga qaytib, mudofaaga o'tishga majbur bo'lgan Bobur Mirzo boshqa temuriy hukmdorlardan yordam ololmaganidan so'ng, uzoq qamalga bardosh berolmay, Shayboniyxon bilan kelishuvga ko'ra Samarqandni tashlab chiqib

ketishga majbur bo'ladi [18]. Zarafshon va Qashqadaryo vohalari yana Shayboniyxon qo'liga o'tadi.

Shayboniyxon bu g'alabadan so'ng Movarounnahr va Xurosonning turli viloyatlarini qo'lga kiritish uchun bir necha yo'nalishda janglar olib bordi. Bu vazifani bajarishda tajribali sarkardalar Sulton Mahmud Bahodir, Ubaydulla Sulton, Hamza Sulton, Ko'chkunchixon, Suyunchxo'jaxonlar katta rol o'ynadilar. 1501–1502-yillarda Sulton Mahmud boshchiligidagi qo'shinlar Dizzaq (Jizzax), O'ratepa, Shosh, Shohruxiya, Sayram kabi shahar va qal'alarni egallaydi.

Shayboniyxon 1503-yilning oxirida Sulton Mahmud boshchiligida qo'shinlarni Xorazmni egallash uchun yuboradi. Bu birinchi harbiy yurish davomida Xorazmning bir qismi, xususan, Kat qal'asi egallandi. Lekin Shayboniyxon Hisor viloyatiga yurish qilish uchun barcha kuchlarini yig'ayotganligi sababli, Sulton Mahmud katta o'lja bilan Buxoroga qaytdi. Xorazmni butunlay egallash uchun Shayboniyxon 1504-yilda ikkinchi marta harbiy yurish qildi. 1505-yilning yozida Urganch shahri egallangach Xorazm to'la bosib olindi [19].

Shayboniyxon 1504-yilda Hisor viloyatini bosib oladi. Hisor hokimi Xusravshoh katta harbiy kuchga ega bo'lsa-da, Shayboniyxonga jiddiy qarshilik ko'rsata olmadi. Qunduz, Tolqon, Badaxshon va Balx ishg'ol etildi. Bu harbiy yurishlarda qatnashgan lashkarboshi Sulton Mahmud 1505-yil Qunduzda kasallikdan vafot etadi. Uning jasadi Samarqandga olib kelinib dafn etiladi [20].

1504-yilda Balx shahrini qamal qilib turgan Shayboniyxon qozoq sultonlarining Movarounnahrqa hujum qilganligini eshitib, orqaga qaytadi va Dashti Qipchoqqa yurish qiladi.

Qozoq sultonlari chekingan bo'lsalar-da, 1506-yilda Shayboniyxonning Xurosondaligidan foydalanib yana Movarounnahrni talon-taroj qiladi. Shayboniyxon ularni yana Dashti Qipchoqning ichkarisigacha quvib kiradi. Biroq, qozoq sultonlari hujumi 1508-yilda yana takrorlandi. Bu vaqtda Shayboniyxon Qadahor va Zamindovur viloyatlarini ishg'ol qilib, Qobulda turgan Bobur bilan jangga kuch to'playotgan edi. Qozoq sultonlari Ahmad va Jonish Sultonlar Buxoro va Samarqandni talab, katta o'lja bilan qaytib ketdilar[21].

Shayboniyxon 1509-yilda Dashti Qipchoqqa yurish qiladi va Joniy Sultonning yurti Qora Abdalni egallaydi. Burunduqxon va Qosim sulton Dashti Qipchoqning ichkarisiga chekinadi, Shayboniyxon ularni butunlay tor-mor qila olmadi. Sig‘noq, Yassi, Savron shaharlari qayta qo‘lga kiritildi.

Movarounnahrning markazida mustahkam o‘rnashib olgan Shayboniyxon Xurosonni zabt etishga kirishdi. Sulton Husayn Boyqaro 1506-yilda vafot etgach, Hirot taxtiga ikki shahzoda Muzaffar va Badiuzzamon o‘tkazildi. Temuriy shahzodalarning kelishib harakat qila olmaganligi va harbiy jihatdan uquvsizligidan foydalangan Shayboniyxon Balx shahrini egalladi. 1507-yilda Hirot shahri ham qo‘lga olinganidan keyin butun Xuroson Shayboniylar davlatiga qo‘shib olindi[22].

Movarounnahr va Xuroson egallangandan so‘ng Shayboniyxon 1509-yilning aprel oyida Qarshidan Eronga qarab yo‘lga tushadi. Biroq, yo‘lda o‘zbek sultonlarini o‘z uluslariga qaytarib yuboradi. Marv, Mashhad, Tus shaharlarini egallab, 1510-yilda Erondan qaytayotgan Shayboniyxonni, orqadan kelgan Eron shohi Ismoil Safaviy qo‘shinlari bilan Marv yaqinida bo‘lgan jangda Shayboniyxon halok bo‘ldi [23].

Taxtga Shayboniyxonning amakisi Ko‘chkinchixon (1510–1529) ko‘tarildi. O‘zbek sultonlari orasida boshlangan kelishmovchiliklar tufayli shayboniylar mag‘lubiyatga uchray boshladi. Xuroson va Xorazm qo‘ldan boy berildi. Bobur 1511-yilda Eron qo‘shinlari yordamida Samarqandni bosib oldi. Eronliklar 1512-yilda Qarshi shahrini qo‘lga kiritdilar [24].

Hal qiluvchi jang G‘ijduvon yaqinida bo‘lib o‘tdi. 1512-yilning noyabr oyida Buxoroga yurish qilgan Bobur va eronliklarning birlashgan qo‘shinini Ubaydulla Sulton tor-mor qildi. Bobur Mirzo Movarounnahr taxtidan umidini uzib, yana Qobulga qaytib ketdi. Shayboniylar Samarqand taxtini qo‘lga kiritdilar va Ko‘chkunchixon hukmronligi qayta tiklandi.

XULOSA

Shayboniy hukmdorlar o‘rtasidagi o‘zaro kurashlar oxir-oqibat bu sulola vakillarining butunlay qirilib ketishiga olib keldi va 1601-yilda

Pirmuhammadxonning o‘limidan keyin Buxoro taxti yangi sulola – Ashtarxoniylar (joniylar) qo‘liga o‘tdi.

Shayboniylar davlatidagi ichki ziddiyatlar ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ldi:

1. Markaziy hokimiyat bilan mahalliy hokimiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar;
2. Hukmron tabaqalar bilan mehnatkash omma o‘rtasidagi ziddiyatlar.

IQTIBOSLAR / ЧОСКИ / REFERENCES

1. Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихи Рашидий. – Т.: Шарқ, 2010. 243-бет.
2. Аҳмедов Б. Ўзбек улуси. – Т.: Мерос, 1992. 35-бет.
3. Ўзбекистон халқлари тарихи. – Т.: Фан, 1994. 13-15 бетлар.
4. Гуломов Х.Ғ. Ўрта Осиё ва Россия. – Т.: Университет, 2007. 16-бет.
5. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Сагдуллаев А.С., Аминов Б. Ва бошқалар. I қисми. – Т., 2000. 147-бет.
6. Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т.: Шарқ, 2001. 25-бет.
7. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. – Т: Ўқитувчи, 1994. 77-бет.
8. Аҳмедов Б.А. Ўзбек улуси. – Т.: Мерос, 1992. 15-бет.
9. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъ ус-садайн ва мажмуаъ ул-бахрайн. – Т.: Фан, 1969. 43-бет.
10. Гуломов Х.Ғ. Ўрта Осиё ва Россия. – Т., 2007. 8-9-бетлар.
11. Муҳаммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-билод. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. 35-бет.
12. Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1994. 137-138 бетлар.
13. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Т.: Юлдузча, 1989. 56-71-бетлар.
14. Муҳаммадёр ибн Араб Қатагон. Ўша асар. 77-82-бетлар.
15. Бобур. Бобурнома. Ўша нашр, 71-73 бетлар.
16. Муҳаммадёр ибн Араб Қатагон. Ўша асар. 119-бет.
17. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом (Шарифномаи шоҳий). 1-китоб. – Т.: Шарқ, 1999. 56-57-бетлар.

18. Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихи Рашидий. – Т.: Шарқ, 2010. 305-308-бетлар.
19. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т.: 2001. 310-330-бетлар.
20. Товориhi гузидан нусратнома. – Т.: Фан, 1967. 27-бет.
21. Фазлуллоҳ ибн Рўзбеҳон Исфажоний. Меҳмонномаи Бухоро. – М., 1976. 16-бет.
22. Муҳаммад Ҳайдар мирза. Ўша асар. 313-бет.
23. Восифий, Зайниддин Маҳмуд. Бадоеъ ул-воқоеъ. – Т., 1979. 30-бет.
24. Ҳасанхожа Нисорий. Музокиири аҳбоб. – Т., 1993. 23-бет.

Xudoyqulov U.K.

t.f.n., dotsent

O'zbekiston Milliy universiteti

Xuralkarim77@mail.ru

**O'ZBEKISTONNING JANUBIY VILOYATLARIDA XX ASRNING 70 -
80 YILLARIDA SANOAT KORXONA ISHCHILARNING TURAR JOYGA
BO'LGAN TALAB VA MUAMMOLAR
ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada sanoat korxona ishchilarining XX asrning 70 – 80 yillar davrida turar joyga bo'lgan munosabatlarini batafsil yoritilib berilgan. Shuningdek, O'zbekistonda uy-joy, ma'muriy–maishiy, xizmat binolar qurilishini yaxshilash maqsadida, yangi qurilish loyhalarini yaratish, ishlab chiqarishga jalb etish maqsadida davlat rejasi asosida amaliy ishlar bajarilganligi, bu davrda qurilgan uy-joylar Sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan ijobiy ishlardan biri bo'lsada, biroq uy-joy qurilishi tashkilotlari tomonidan yangi qurilgan uy-joy binolarining sifatsizligi, ichki jihozlanishini talab darajasida emasligi, suv va gaz ta'minotidagi nosozlik, temir-beton binolarni mahalliy sharoitga mos kelmasligi tufayli ishga tushirilgan uy-joy binolari zamonaviy ehtiyojlarga moslanmagan taxlil qilingan.

Kalit so'zlar: Sanoat kompleksi, qurilish sanoati, turar-joy, ma'muriy-maishiy, transport, aloqa, temir yo'llar, sovet hukumati, yengil va oziq-ovqat sanoati.

Худойкулов У.К.

к.и.н., доцент

Национальный университет Узбекистана

Xuralkarim77@mail.ru

**ПОТРЕБНОСТИ И ПРОБЛЕМЫ РАЗМЕЩЕНИЯ РАБОТНИКОВ
ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ ЮЖНЫХ РЕГИОНОВ
УЗБЕКИСТАНА В 1970-1980-Е ГГ
АННОТАЦИЯ**

В данной статье подробно описано отношение работников промышленных предприятий к жилью в 70-80-е годы 20 века. Также на основе государственного плана проводились практические работы по совершенствованию строительства жилищных, административно-бытовых и служебных зданий, созданию новых строек, вовлечению их в

производство. Однако жилищно-строительные организации поручили из-за низкого качества вновь построенных жилых домов, отсутствия внутреннего оборудования, отсутствия водоснабжения и газоснабжения, несоответствия железобетонных зданий местным условиям анализировались как не приспособленные к современным потребностям.

Ключевые слова: Промышленный комплекс, строительная индустрия, жилищный, административно-бытовой, транспорт, связь, железные дороги, Советская власть.

Xudoyqulov U.K.

PhD., associate professor
National university of Uzbekistan
Xuralkarim77@mail.ru

REQUIREMENTS AND PROBLEMS FOR ACCOMMODATION OF INDUSTRIAL FACTORY WORKERS IN THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN IN THE 1970s - 1980s

ABSTRACT

This article describes in detail the relationship of workers of industrial enterprises to housing in the 70s-80s of the 20th century. Also, practical works were carried out on the basis of the state plan in order to improve the construction of housing, administrative-household, and service buildings, to create new construction projects, and to involve them in production. However, housing construction organizations commissioned due to the poor quality of newly built residential buildings, lack of internal equipment, water and gas supply failure, non-conformity of reinforced concrete buildings to local conditions were analyzed as not adapted to modern needs.

Keywords: Industrial complex, construction industry, residential, administrative-household, transport, communications, railways, Soviet government.

KIRISH

Mustaqillik yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar keng miqyosdagi islohotlarning amalga oshirilishi tufayli, jamiyatning tubdan o'zgarishi, yangi ijtimoiy tuzumning shakllanishiga imkoniyat yaratdi. O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 16 dekabr «O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish to‘g‘risida»gi va 1998 yil 27 iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutining faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarorlari o‘zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi bo‘yicha tadqiqotlarni rivojlantirish konsepsiyasining g‘oyaviy metodologik asosini tashkil etib [1] Vatanimiz tarixini haqqoniy yoritishga keng yo‘l ochib berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov milliy mafkuraning shakllanish jarayonida tarix fanining o‘rniga yuksak baho berib: «Milliy mafkurani shakllantirishdagi eng katta manba-bu haqqoniy yoritilgan tarixdir», -deb ko‘rsatgan edi.[2] Shuningdek, birinchi Prezidentimiz tarixning inson va jamiyat taraqqiyotidagi roliga baho berib, “O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko‘p bora o‘z isbotini topgan”[3]-deb ta’kidlaydi

Respublikada yengil va oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi: muammolar va natijalar tarixini janubiy viloyatlar misolida o‘rganish shubhasiz, tarixni yanada chuqurroq tarzda yoritish uchun imkoniyat yaratadi. Chunki, janubiy viloyatlarning yengil va oziq-ovqat sanoati Respublikamiz iqtisodiyotida hamda aholini ish bilan ta’minlashda alohida salohiyatga ega bo‘lib, ushbu sohalarning tarixiy rivojlanish tendensiyalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish bugungi kunda tarixshunoslik sohasida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida yuzaga chiqmoqda. Ilmiy tadqiqot mavzusini dolzarbligini ilmiy tahlil etishda xolisona va tarixiy tahlilga alohida e’tibor berilib, 1991 yilgacha yengil va oziq-ovqat sanoati sohasida Sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan siyosatning mazmun va mohiyati manbalar asosida yoritildi. Chunki, O‘zbekistonda ushbu yillarda yengil va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishga alohida e’tibor berilgan bo‘lsada, biroq, ushbu yo‘nalishlarning hammasi markaz manfaatlariga moslashtirilgan holda olib borilib, milliy ahamiyatga ega yengil va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishga sovet hukumatini tomonidan hech qanday moddiy va ma’naviy sharoit yaratib berilmadi. ushbu mavzuni tarixshunosligini o‘rganish dolzarb masala bo‘lib fanlararo yondoshuvni taqozo etadi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Tabiiyki, bu davrda turar joy muammolari dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Yangi shaharlar, aholi markazlarining paydo bo'lishi, yangi yerlarni o'zlashtirish hamda madaniy-maishiy xo'jalik ishlariga oid qurilish ishlarini ko'payishi qurilish mahsulotlariga bo'lgan talabni oshib borishiga olib keldi. Natijada yangi g'isht zavodlarini qurish, mavjud g'isht zavodlarini ta'mirlash hisobiga mahsulotga bo'lgan ehtiyojlarning qondirilishi uchun yangi imkoniyatlar ishga solindi. 1970 yilda xalq xo'jaligi hamda aholini talab ehtiyojlarini hisobga olgan holda g'isht ishlab chiqarish yengil va oziq-ovqat sanoati ishchi-xodimlari uchun Qashqadaryo viloyatida 47,3 million donaga, Surxondaryo viloyatida 87,6 million donaga o'sdi. Janubiy viloyatlarda temir-beton konstruksiyasi qurilish mahsulotlari ishlab chiqarishiga alohida e'tibor berilib, ko'p qavatli uy-joylar, madaniy-maishiy, jamoat, ma'muriy binolarni qurish imkoniyatlariga keng yo'l ochildi. 1970 yilda Qashqadaryo viloyatida 40,5 ming kub metr, Surxondaryo viloyatida 111,5 ming kub metr temir-beton qurilish mahsulotlari ishlab chiqildi [4].

O'zbekistonda uy-joy, ma'muriy-maishiy, xizmat binolar qurilishini yaxshilash maqsadida, yangi qurilish loyihalarini yaratish, ishlab chiqarishga jalb etish maqsadida davlat rejasi asosida amaliy ishlar bajarildi. Temir-beton konstruksiya qurilish materiallarini ishlab chiqarish va yig'ish respublikada 1970 yil 2870,7 ming kub metr, 1975 yil 3899,0 ming kub metrni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Qashqadaryo viloyatida 1970 yil 36,4 ming kub metr, 1975 yil 138,2 ming kub metrni, Surxondaryo viloyatida esa 1970 yil 108,3 ming kub metr, 1975 yil 155,8 ming kub metrni tashkil etdi [5].

Bu davrda qurilish ishlarini jadallashib, aholi sonining tabiiy o'sishi, migratsion jarayonlarning kuchayishi, paxtachilikni keng miqyosda ko'proq rivojlantirishga bo'lgan intilishlar hamda ommaviy yangi yerlarni o'zlashtirilishi, yangi sanoat korxonalari, madaniy-maishiy soha binolari uchun qurilishga bo'lgan ehtiyojning oshib berishi yangi sanoat komplekslarining barpo etilishi va qurilish

mahsulotlariga talabning oshib borishiga olib keldi. Respublikadagi mavjud qurilish sanoat korxonalari 1980 yil 4642 ming kub metr temir-beton konstruksiya mahsulotlarini ishlab chiqargan bo'lsa, 1985 yilda bu ko'rsatgich 6078,0 ming kub metrni tashkil etdi. Shuningdek, temir-beton qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish Qashqadaryo viloyatida 1980 yil 232,1 ming kub metr, 1985 yilda esa 439,6 ming kub metr, Surxondaryo viloyatida 1980 yil 197,8 ming kub metr, 1985 yilda 300,1 ming kub metrni tashkil etdi [6].

Uy-joyga bo'lgan talabni qondirish masalasida sovet hukumati uy-joy qurilishi, kooperativ va qurilish tashkilotlariga katta e'tibor bilan qarab, mablag'lar sarflashni ko'paytirdi. Qurilishga sarflanayotgan mablag'lar asosan shaharsozlik, sanoat korxonalar, madaniy-maishiy sohadagi uy-joy binolarini qurishga qaratildi. 1971-1975 yillarda yengil va oziq-ovqat sanoati ishchi-xodimlariga O'zbekiston SSR bo'yicha 2526 million rubl sarflandi. Qashqadaryo viloyatiga 191 million rubl sarflanib, 1909 ming kv metr uy-joy binolari qurilgan bo'lsa, Surxondaryo viloyatiga 150 million rubl miqdordagi mablag'lar sarflanib, 1418 ming kv metr uy-joy binolari qurildi [7].

Shuni alohida qayd etish kerakki, ushbu mablag'lar yengil va oziq-ovqat sanoati ishchi-xodimlarini son jihatdan o'sishi, yangi oilalarni uy-joy bilan ta'minlash uchun yetarli emas edi. Shuningdek, sarflanayotgan mablag'lar hisobida qurilayotgan uy-joy maxsus "imtiyozlar" asosida O'zbekistonga yuborilgan mutaxassislar, xodimlar, harbiylarga ko'proq ajratilar edi. Eng tahlilga jalb qilinadigan narsa, 1970 yilga kelib paxta yakka hokimligi natijasida aholiga uy-joy qurish uchun tomorqa berish to'xtatilgan bo'lib, berilishi mumkin bo'lgan tomorqalar ham ekin ekilmaydigan, tashlandiq yoki past-balandlikdan iborat bo'lgan, o'zlashtirilmagan yerlardan ajratildi.

Sanoat komplekslarini qurish hamda qurilish sanoatining takomillashib borishi natijasida turar-joy, ma'muriy-maishiy, transport, aloqa, temir yo'llar hamda boshqa xo'jalik sohalari uchun qurilish materiallarini yetkazib berishga alohida e'tibor berildi. Chunki sovet hukumati o'zining yengil va oziq-ovqat sanoati ishchi-xodimlarini uy-joy bilan ta'minlash strategiyasida ushbu masalani

birinchi o'ringa qo'ygan edi. Sanoatlashgan rayonlar, zavod-fabrikalar hamda qurilish sanoatiga asosan rusiyzabon aholi joylashgan bo'lib, Markazdan yuborilgan kishilarni uy-joy bilan ta'minlash asosiy masala edi. Ayniqsa, migratsion jarayonlar O'zbekistonda 1971-1975 yillarla kuchli bo'lib, Rossiya markazidan aholini ko'chib kelishi kuchaydi. Natijada respublikada yengil va oziq-ovqat sanoati ishchi-xodimlariga uy-joy qurilishi ko'payib, 1971-1975 yillarda 435,3 ming kvartira, 1976-1980 yillarda 453,1 ming kvartira qurib soha xodimlariga topshirildi. Shuningdek, janubiy hududlarda yengil va oziq-ovqat sanoati ishchi-xodimlariga uy-joy qurilishiga e'tibor berilib, yangi qurilish mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalar ishga tushirilishi tufayli 1971-1975 yillarda yengil va oziq-ovqat sanoati ishchi-xodimlariga Qashqadaryo viloyatida 33,4 ming kvartira, 1976-1980 yillarda 43,4 ming kvartira, Surxondaryo viloyatida 1971-1975 yillarda 24,9 ming kvartira, 1976-1980 yillarda 23,1 ming kvartira qurib, ishga tushirildi [8].

Uy-joy qurilishiga ehtiyojni hisobga olib, qurilish tashkilotlariga ajratilgan mablag'larning asosiy qismi markaziy shaharlarga sarflanib, janubiy hududlar hisobgangan Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarining Qarshi, Termiz, G'uzor, Shahrisabz, Kitob, Denov, SHerobod, SHo'rchi, Qumqo'rg'on kabi sanoatlashgan shaharlarida bu davrda ikki qavatli uy-joy binolari qurilib, ushbu uy-joylar asosan yengil va oziq-ovqat sanoati ishchi-xodimlari uchun ajratildi. Biroq bu ikki qavatli uylar mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olinmasdan, suv, gaz ta'minoti, sanitariya holati hisobga olinmay qurilgan binolar edi. 1975 yilda yengil va oziq-ovqat sanoati ishchi-xodimlariga Qashqadaryo viloyatida 42 million rubl sarflanib, 473 ming kv. metr uy-joy binolari qurilgan bo'lsa, Surxondaryo viloyatida 37 million rubl sarflanib, 288 ming kv. m. uy-joy binolari qurildi [9]. Biroq yuqorida qayd etilganidek uy-joy qurilishi o'z sifat va samaradorligi bilan talab darajasida emas edi.

Yangi uy-joy binolariga bo'lgan talab-ehtiyojlarni hisobga olib, O'zbekistonda aholi sonining o'sishi, yangi yosh oilalarning ko'payishi, yirik sanoat komplekslarining qurilishi, yangi yerlarning katta hajmda o'zlashtirilishi

natijasida qurilish tashkilotlari zimmasiga katta ishlar yuklatildi. Jumladan, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ham uy-joy qurilishiga e'tibor yanada kuchaytirildi. Chunki Markazni paxta xom ashyosi bilan ta'minlovchi ushbu hududlarda paxtani qayta ishlovchi sanoat korxonalari ko'plab qurilayotgan edi. 1975-1980 yillarda uy-joy qurilishiga O'zbekistonda 3198 million rubl sarflanib, 27382 ming kv.m. uy-joy binolari qurib ishga tushirilgan bo'lsa, Qashqadaryo viloyatida 275 million rubl sarflanib, 2468 ming kv. m. uy-joy binolari, Surxondaryo viloyatida esa 158 million rubl sarflanib, 1414 ming kv. m. uy-joy binolari qurib ishga tushirildi. Qurilish jarayonining tezlashishi asosan viloyatlardagi sanoatlashgan shaharlarda amalga oshirildi. Shuningdek, qurilish mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi zavodlar esa Qarshi, Shahrisabz, Termiz, Denov shaharlarda bo'lib, qurilish jihozlarini yetkazib berish masofasi qolgan hududlardan uzoq bo'lib, ushbu holat ortiqcha mablag'larni talab qilar edi.

1970-1980 yillarda O'zbekistonda uy-joy qurilishi masalasi yengil va oziq-ovqat sanoati ishchi-xodimlari sonining oshib borishi, yangi oilalarning uy-joyga bo'lgan talabi, migratsion aholi kelishining kuchayishi natijasida yanada dolzarb muhim masala bo'lib qolaverdi. Biroq shuni alohida qayd etish zarurki, qurilayotgan uylar yengil va oziq-ovqat sanoati ishchi-xodimlari talab-ehtiyojlariga javob bermay, temir-beton uskunali uylar qishda nihoyat sovuq, yozda kuchli issiq tufayli uy-joylarda yashash qiyin bo'lib, beton devorlarning ichki qismida yoz va qish davrida himoyalalanuvchi maxsus qatlamlar o'rnatilmagan, kanalizatsiya, suv, gaz ta'minotlari bilan ta'minlovchi moslamalar mustahkam qurilmaganligi tufayli aholi nihoyat darajada qiynalib yashar edi.

1980 yilda O'zbekiston bo'yicha uy-joy qurilishiga 714 million rubl sarflanib, 5742 ming kv. m. uy-joy binolari qurilgan bo'lsa, Qashqadaryo viloyatida 71 million rubl sarflanib, 125 ming kv. m. uy-joy binolari, Surxondaryo viloyatida 30 million rubl sarflanib, 256 ming kv. m. uy-joy binolari qurib ishga tushirildi. Ushbu ma'lumotlarda qayd etilgan raqamlar aholini uy-joyga bo'lgan talabini 42,7 foizini ta'minlashga yetar edi [10] Demak, uy-joyga bo'lgan talab-ehtiyoj

O'zbekistonda, jumladan, janubiy viloyatlarda eng asosiy muammolardan biri bo'lib qolaverdi.

O'zbekistonda uy-joy qurilishiga bo'lgan talab hamda aholining ehtiyojlarini hisobga olib qurilish ishlarini amalga oshirish cheklangan bo'lib, ushbu masala uchun zarur mablag', qurilish mahsulotlarini ajratish Markazning ixtiyorida bo'lganligi tufayli hamisha katta muammolar hamda to'siqlar paydo bo'lar edi. Uy-joy qurilishini jadallashtirish, yangi qurilish mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi zavodlarni qurish uchun O'zbekistonning ichki zahirasi yo'q edi. 1980-1990 yillarda zamonaviy uy-joylar qurish, ichki jihozlarni ta'minlash, estetik did bilan yangi uy-joy komplekslarini qurish imkoniyati yo'q edi, bu borada yangi loyihalar va takliflar hisobga olinmas edi. Shu tufayli sovet hukumati davrida, 1930-1950 yillarda qurilgan ikki, to'rt qavatli uylarni qurish loyihasi, tuzilishi, ichki va tashqi ko'rinish 1960-1990 yillarda ham deyarli o'zgarmadi. 1981-1985 yillarda uy-joy qurilishi uchun O'zbekistonda 4189 million rubl sarflanib, 6006 ming kv.m. uy-joy qurilgan bo'lsa, jumladan, Qashqadaryo viloyatda 401 million rubl sarflanib, 574 ming kv. m. uy-joy, Surxondaryo viloyatda 183 million rubl sarflanib, 384 ming kv. m. uy-joy binolari qurib ishga tushirildi [11]. Ushbu uy-joy binolari janubiy hududlarning ma'muriy va sanoatlashgan markazlari hamda yangi barpo etilgan Qarshi, Termiz, Muborak, Shahrisabz, Kitob, Qamashi, G'uzor, Denov, SHerobod, SHo'rchi, Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on kabi shaharlarda amalga oshirildi.

Bu davrda qurilgan uy-joylar Sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan ijobiy ishlardan biri bo'lsada, biroq uy-joy qurilishi tashkilotlari tomonidan yangi qurilgan uy-joy binolarining sifatsizligi, ichki jihozlanishini talab darajasida emasligi, suv va gaz ta'minotidagi nosozlik, temir-beton binolarni mahalliy sharoitga mos kelmasligi tufayli ishga tushirilgan uy-joy binolari zamonaviy ehtiyojlarga moslanmagan edi.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, tadqiq qilingan yillarda uy-joy qurilishi masalasini ijobiy xal etishga ancha urinish bo'ldi. Xullas, 1970-1990 yillarda janubiy viloyatlarda ko'plab uy-joy binolari qurildi.

1979 yildan e'tiboran O'zbekistonning 9 shahrida (Toshkent, Sirdaryo, Fargona, Andijon, Qarshi, Termiz va h.k) shaxsiy uy-joy qurish man etildi. Buning natijasida 1978 yilda Qashqadaryo viloyatida ishchi va xizmatchilarning o'z mablag'i va davlat qarzi hisobiga 108 ming kvadrat metr, Surxondaryo viloyatida 43 ming kvadrat metr uy-joy qurilgan bo'lsa, 1980 yilga kelib, bu ko'rsatkich Qashqadaryoda 98 ming kvadrat metr, Surxondaryoda 21 ming kvadrat metr uy-joyni tashkil qildi. Bu davrda yo'l qo'yilgan ayrim xatoliklarni tugatish va ishchi xizmatchilarni uy-joy bilan ta'minlash borasida bir qator aniq chora-tadbirlar amalga oshirildi [12].

Masalan, 1980 yilda Shahrisabz trikotaj fabrikasida 26 xonadonli uy; 5 ta yotoqxona mavjud edi. Bu davrda mazkur korxona ishchi va xizmatchilarini uy-joy bilan ta'minlash borasida anchagina xayrli ishlar amalga oshirildi. 1980 yilda O'z SSR yengil sanoat ministrligi tomonidan 16300 kv. metr uy-joy qurish uchun 3380 ming rubl kapital mablag' ajratildi. O'z SSR Ministrlar soveti korxonada uy-joyga ehtiyoj nihoyatda yuqoriligini xisobga olib, respublika budjetidan qo'shimcha ravishda 2 mln. rubl mablag'ni uy-joy qurish uchun ajratdi. Bu bilan 1980 yildan ushbu korxona o'zi uy-joy quruvchi tashkilotga aylandi.

Qarshi yog'-ekstraksiya zavodi ishchilari 1980 yilda mahalliy budjet hisobiga 1938 kv. metr va korxonaning o'z qurilish tashkiloti kuchi bilan 2834 kv. metr uy-joyga ega bo'ldilar. 1980 yilda Kitob vino punktida 18 ming rubl, umumiy maydoni 86 m² bo'lgan turar joy foydalanishga topshirildi [13].

Shahrisabz ip gazlama korxonasida 1985-1990 yillarda 10-15 ming kvadrat metr turar joy binosi qurilgan. Korxona ishchilar shaxarchasida yashovchi ishchi va xizmatchilarning yashash sharoitini yaxshilash borasida ham bir talay ishlar qilindi [14]. Jumladan, dehqon bozori, xammom va yozgi stadion qurilib ishga tushirildi.

Surxondaryo viloyati yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari ishchi va xizmatchilarining turar joyga bo'lgan ehtiyojini qondirish borasida ham ma'lum bir ishlar amalga oshirildi. Denov yog'-ekstraksiya zavodida 1980-1985 yillar

ichida 64 oila yangi davlat uylariga ega bo'lgan bo'lsa, 30 nafardan ortiq ishchi oilasi tomorqa oldi. 1986 yilda korxona o'z stadioniga ega bo'ldi [15].

1970-1980 yillarda sanoat korxonalari ishchi va injener-texnik xodimlarining uy-joyga bo'lgan talablarini qondirish maqsadida bir talay ishlar amalga oshirildi. Ammo ko'plab kamchiliklar ham mavjud edi. Xususan uy-joy qurilishida maxalliy sharoit e'tiborga olinmadi. Ayrim uylar sifatsiz topshirildi. Janubiy viloyat shaharlarining issiq iqlim sharoitida obodonchilik, ko'kalamzorlashtirish va aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega edi. Biroq bu sohada ayrim ishlar qilingan bo'lsa ham, ekilgan daraxtlarga o'z vaqtida qaramaslik oqibatida ularning ko'pchiligi qurib qolib, aholini ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi 45 foizni tashkil etib, betondan qilingan uy-joylarning 3-4 va xatto 2- qavatlariga ichimlik suvlari chiqmas edi. Buning ustiga binolar issiq yoz sharoitiga moslashtirilmagandi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni alohida qayd etish mumkinki, tadqiq qilingan yillarda Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari ishchi va xizmatchilarining moddiy-ma'naviy turmush darajasini yaxshilash borasida ancha chora-tadbirlar Janubiy viloyatlar yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari ishchi va xizmatchilarining moddiy-maishiy turmush tarzida amalga oshirilgan tadbirlarni tahlil qilar ekanmiz, quyidagi muammolar mavjudligini ko'rishimiz mumkin:

Birinchidan, korxonalar o'rtasida ishchi xizmatchilarning mehnat xaqi xajmini belgilashda jiddiy tafovutlar saqlanib, mehnat xaqini oshirish iqtisodiy qonunlarga deyarli asoslanmasdan, ma'muriy uslubda olib borilar edi. Bu boradagi chora-tadbirlar o'zining ijtimoiy moxiyati bilan barqarorlashtirishga qaratilgan bo'lsada, ayrim muammolarni keskinlashtirib yubordi.

Ikkinchidan, uy-joy bilan ta'minlash masalasida ko'pgina xatoliklar va nuqsonlarga yo'l qo'yildi. Uy-joy qurilishida mahalliy sharoit inobatga olinmay, ko'plab uy-joylar sifatsiz topshirilib, betondan qilingan uylarning yozda issiq,

qishda sovuq xolatini bartaraf etish muammolari hal qilinmadi, shuningdek, uylarni suv bilan ta'minlash qoniqarsiz xolatda edi.

Uchinchidan, korxonalar atrofini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari qoniqarsiz xolda olib borilib, o'zidan chang chiqaradigan paxta tozalash, to'qimachilik, ko'plab zaharli ximikatlarni tarqatadigan yog', go'sht-sut korxonalari atrof-muhitni ifloslanishi va ekologik vaziyatning og'irlashishiga olib keladi.

IQTIBOSLAR / ЧОККИ / REFERENCES

- 1.O'zbek xalqi davlatchiligi tarixi konsepsiyasi // O'zbekiston tarixi jurnali, 1999, 1-son, B.31-34.
- 2.Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. –T.: O'zbekiston, 2000.-B. 34.
- 3.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2009.-B.4.
- 4.Narodnoye xozyaystvo Uzbekskoy SSR. –T.: "Uzbekistan", 1971. – S.54.
- 5.Narodnoye xozyaystvo Uzbekskoy SSR. –T.: "Uzbekistan", 1986. – S.74.
- 6.Narodnoye xozyaystvo Uzbekskoy SSR. –T.: "Uzbekistan", 1986. – S.73.
- 7.Narodnoye xozyaystvo Uzbekskoy SSR. –T.: "Uzbekistan", 1971. – S.245.
- 8.Narodnoye xozyaystvo Uzbekskoy SSR. –T.: "Uzbekistan" 1986. – S.241.
- 9.Narodnoye xozyaystvo Uzbekskoy SSR. –T.: "Uzbekistan" 1971. – S.242.
- 10.Narodnoye xozyaystvo Uzbekskoy SSR. –T.: "Uzbekistan", 1971. – S. 243.
- 11.Qashqadaryo viloyati davlat arxivining Shahrisabz filiali, 144-fond, 1-ro'yxat, 17-hujjat, 83-varaq.
- 12.Surxondaryo davlat arxivining Denov filiali, 425-fond, 2-ro'yxat, 183-hujjat, 49-varaq.
- 13.Qashqadaryo viloyati davlat arxivining Shahrisabz filiali, 144-fond, 1-ro'yxat, 17-hujjat, 93-varaq.
- 14.Surxondaryo davlat arxivining Denov filiali, 425-fond, 2-ro'yxat, 183-hujjat, 79-varaq.
- 15.Tursunov S.N. Denov yog'-ekstratsiya zavodining tarixidan lavhalar. Denov, 1992. – 60 b.

Xolikulov A.B.

t.f.d., dotsent

O'zbekiston Milliy universiteti

akholikulov@gmail.com

**XIX-XX ASR BOSHLARIDA QASHQADARYO VOHASI
BEKLIKLARIDA SOLIQ TURLARI
ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada muallif XIX-XX asr boshlarida Qashqadaryo vohasi bekliliklaridagi soliq tizimini yozma manbalar, arxiv hujjatlari va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilgan. “Hiroj”, “ushr”, “tanabona”, “zakot” va boshqa soliq turlari haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro, amirlik, soliq, Rossiya imperiyasi, mulk.

Холикулов А.Б.

д.и.н., доцент

Национальный университет Узбекистана

akholikulov@gmail.com

**ВИДЫ НАЛОГОВ В БЕКСТВАХ КАШКАДАРЬИНСКОГО
ОАЗИСА В XIX – НАЧАЛЕ XX ВВ.
АННОТАЦИЯ**

В данной статье автор на основе привлечения широкого круга источников, архивных материалов и научной литературе, анализирует систему налогообложения в Бухарском эмерате XIX-начало XX вв. Подробно рассмотрены такие виды налогов как «хирож», «ушр», «танобона», «закот».

Ключевые слова: Бухара, эмират, налог, Российская империя, собственность.

Kholikulov A.B.

DSc., associate professor

National university of Uzbekistan

akholikulov@gmail.com

**TYPES OF TAXES IN THE KASHKADARYA OASIS REGIONS IN
THE 19th – EARLY 20th CENTURIES.
ABSTRACT**

In this article, the author, based on the involvement of a wide range of sources, archival materials and scientific literature, analyzes the taxation system in the

Bukhara Emirate of the 19th and early 20th centuries. Such types of taxes as “hirozh”, “ushr”, “tanobona”, “zakot” are considered in detail.

Key words: Bukhara, Emirate, tax, Russian empire, own.

KIRISH

XIX-XX asr boshlarida Buxoro amirligida shariatda belgilangan xiroj va ushr kabi yer soliqlari hamda hunarmandchilik, chorvachilik va savdo-sotiqdan olinadigan zakot asosiy soliqlar hisoblanar, amalda esa ko‘p sonli qo‘shimcha soliqlar, to‘lov va majburiyatlar mavjud edi. Amirlikning soliq siyosati mohiyatini aniqlashda mavjud soliqlar va ularning miqdori muhim o‘rin tutgani bois, dastavval asosiy soliq turlariga to‘xtalib o‘tish kerak bo‘ladi. Bu masalani avvalo, iqtisodiyotning asosini tashkil qiluvchi qishloq xo‘jaligidan olinadigan soliqlar misolida ko‘rib chiqamiz.

Amirlikda qo‘yidagi soliqlar joriy qilingan: xiroj bug‘doydan hosilning 1/3 ulushidan 1/10 qismigacha, chorvadan olinadigan zakot 1/40 hissa, tanobona (u beda ekilgan maydonlardan, uzum va mevali bog‘lardan olingan), bozorlarda sotilgan tovarlardan olinadigan zakot va boshqalar [1].

Bu davrda dehqonchilikdan olinadigan xirojning 2 turi mavjud bo‘lib, Ibodulla Orif xo‘ja Buxoriyning “Risoi al-Habibiya” asarida yozilishicha, xiroj solig‘i “xiroji muazzaf” va “xiroji muqassama”ga bo‘lingan [2]. Bulardan birinchisi, “xiroji vazifa” yoki “xiroji muazzaf” yer solig‘i hisoblangan. Bu soliq hosilga bog‘liq bo‘lmasdan, yerdan olinadigan hosilning miqdoridan qat’i nazar, barcha yerlardan bir xilda yig‘ib olingan. Mazkur soliq yilda ikki marta – bahor va kuz fasllarida mahsulot yoki pul ko‘rinishida olingan [3]. Pul bilan olinganda soliq miqdori bug‘doyning bozordagi narxidan kelib chiqib belgilangan.

Xirojning ikkinchi turi – “xiroji muqassama” yetishtirilgan hosildan belgilangan tartibda mahsulot yoki pul shaklida olingan. Bunda yerning holati va joylashgan o‘rni ham nazarda tutilgan [4].

Amirlikda “xiroji muqassama”ning miqdori mahsulot bilan o‘lchanganda hosilning 1/3, 1/4, yoki 1/5 qismiga teng hisoblangan. Bunda xirojning aniq miqdori

soliq yig'uvchi amaldorning yerlardan qancha miqdorda soliq olishni belgilashiga bog'liq bo'lgan [5].

Mulki xiroj va amlok yerlari xiroj solig'ining asosiy manbai sanalgan. Xirojning miqdori turlicha bo'lib, amlok yerlaridan hosilning $1/6$, $1/5$, $2/5$, va hatto, $1/3$, $1/2$ qismigacha xiroj solig'i yig'ilgan. Lalmi yerlarda yetishtirilgan hosildan $1/5$ miqdorda, mulki xiroj yerlarining har tanobidan esa yiliga 2-3 tangadan xiroj solig'i yig'ilgan [6].

Xiroj solig'i natura shaklida olinib, sug'oriladigan yerlarda oq ekinlarning $1/4$ qismi, ko'k ekinlarning $1/3$ qismi miqdorida, lalmi yerlardan esa $1/4$ hissa yoki har tanob [7] yerdan 6 tangadan yig'ilgan. Uzumzorlardan soliqning qaysi turi bo'lishidan qat'i nazar, naqd pul shaklida har tanob yerdan 0,5 tangadan olingan [8].

Agar yig'iladigan xiroj solig'i pulga hisob qilinadigan bo'lsa, ko'rib chiqilayotgan davrda uning miqdori:

1 tanob beda ekilgan amlok yerdan – 5 tanga;

1 tanob mevali bog'dan (agar boshqa ekin ekilmagan bo'lsa) – 10 tanga;

mulki xiroj yerlariga qarashli 1 tanob mevali bog'dan – 12 tanga;

1 tanob beda ekilgan mulki xiroj yerlaridan – 2 tangani tashkil qiladi [9].

Xirojni yig'ish uchun amlokdor o'zining ma'murlari bilan yetishtirilgan hosilning taxminiy miqdorini ma'lum vaqtlarda aniqlab, maxsus daftarga qayd etib borgan. Hosil yig'ib olingach, amirlikning ba'zi bekliklarida xirojning bu turi mahsulot bilan emas, balki mahsulotning bozordagi narxiga qarab naqd pul shaklida olingan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Yuqoridagi ma'lumotlar xiroj solig'i bekliklarda turlicha bo'lganligini, soliq miqdorini belgilashda yerning hosildorligi, suv bilan ta'minlanganligi va boshqalar hisobga olinganligini ko'rsatadi. Xullas, xiroj solig'i amirlikning barcha hududlarida hosilning o'rtacha $1/3$ yoki $1/5$ qismi atrofida bo'lgan [10].

Vaqf yerlaridan keladigan barcha daromadlar machit-madrasalar qurilishi va ta'mir ishlariga, mullalar, imomlar, mudarrislar va boshqalarning maoshiga

sarflangan. Ba'zan istisno tariqasida turli xayriya maqsadlarida vaqf yerlaridan ham hosilning 1/3 miqdorida yer solig'i yig'ilgan.

Buxoro amirligida yer solig'ining "ushr" deb ataluvchi turi ham mavjud bo'lib, u "mulki ushr" yerlaridan hosilning 1/10 miqdorida olingan [11]. Undan keladigan daromaddan shariatda belgilangan tartibda, asosan, xayriya maqsadlarida foydalanilgan [12].

Mulk yerlarining egalari o'z yerlarining hajmidan kelib chiqib, yiliga ikki marta ariqlarni tozalash uchun ishchi yuborishlari shart bo'lgan. Yuboriladigan ishchilar soni mirob va amlokdor tomonidan aniqlab berilgan. Ishga chiqmagan har bir kishi uchun mulk egasi kuniga 2 tangadan puli boqi to'lagan [13].

Amirlikda "safid bori" (oq ekinlar) turiga kiruvchi kuzgi ekinlardan hosilning 1/10 ulushi miqdorida, "kabud bori" (ko'k) – bahorgi va yozgi ekinlardan esa 1/3 hissa soliq olingan [14].

Buxoro amirligida bahorgi ekish oldidan maxsus "qo'sh puli" solig'i ham yig'ib olingan [15]. Ushbu soliq "xiroji muazzaf"ning o'zgargan shakli bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas. Bu soliq hamal oyida Devoni sarkor boshchiligida ekin ekiladigan yer maydoni o'lchamiga qarab yig'ilgan.

Xiroj solig'i ochiq dalalarga ekilgan ekinlardan mahsulot ko'rinishida, devor bilan o'rab olingan yerlarga ekilgan ekinlardan naqd pul shaklida olingan. O'rganilayotgan davrda ochiq dalalar xiroj yerlari, devor bilan o'rab olingan yerlar esa tanob yerlari hisoblangan [16].

Manbalarda soliqlar har xil nomlar bilan atalganligiga duch kelamiz. Xususan, ba'zi manbalarda xiroj solig'iga nisbatan "mol" atamasi ishlatilgan. Amir Haydarning mahalliy amaldorlarga yozgan ko'pgina nomalarida xiroj, mol, tanobona atamalari birgalikda va bir xil ma'noda ishlatilganligini ko'ramiz. Bunda xiroj va mol mahsulot, tanobona esa pul bilan olinadigan soliqni anglatgan. Soliqlarning bunday nomlanishi oldingi davrlarda ham bo'lgan. Misol uchun, ashtarxoniylar davriga oid hujjatlarda ham mahsulot bilan olinadigan soliq "moli zamin" shaklida uchraydi [17].

XIX asrda Buxoro amirligida naqd pul bilan olinadigan soliqlar “naqti mol” nomi bilan atalganligi ma’lumotlarda qayd etilgan. Mutaxassislar fikricha, bu pul bilan yig’ib olinadigan tanobonaning boshqacha ko’rinishidir [18]. Ma’lumki, tanobona solig’i 3600 m² maydondan yig’iladigan soliq miqdorini bildirgan. Bu soliq turi manbalarda XVI asrdan boshlab uchraydi. Tanobona solig’i asosan uzumzorlar, mevazorlar, poliz va bedazorlardan olingan.

Yuqoridagilarga asoslanib, tanobona solig’i mahsulot bilan ham to’langanligi haqida xulosa qilish mumkin. Tanobonani naqd pul bilan to’lashga qurbi yetmaganlarga ba’zi paytlarda bu soliqni mahsulot bilan to’lashga ham ruxsat etilgan. Tanobona solig’i yilda ikki marta, bahor va kuz faslida yig’ib olingan [19].

Amirlikda yer solig’i asosan oktabr oyida yig’ib bo’lingan. Qurg’oqchilik va boshqa sabablarga ko’ra hosildorlik past bo’lgan yillarda soliqlarni yig’ish ancha og’ir kechgan. Xususan, 1913 yil 2 dekabrda Buxoro amirligidagi Rossiya siyosiy agentligi boshlig’iga Qarshi shahridan yuborilgan xabarda Qarshi bekligidagi aholi hosil bo’lmaganligi uchun soliq to’lashdan bosh tortganligi xabar qilinadi. Mazkur hujjatda ta’kidlanishicha, Qarshi begi barcha amlokdorlarni chaqirib, belgilangan soliqni to’liq yig’ish haqida qat’iy topshiriq bergan, sustkashlikka yo’l qo’yganligi uchun uchta amaldorni qamagan va ulardan birini darra urish bilan jazolagan [20]. O’sha yili Qarshi bekligida qurg’oqchilik va suv tanqisligi tufayli hosil kam bo’lib, donning narxi nihoyatda ko’tarilib, chorva mollarinig narxi esa tushib ketgan. Masalan, noyab oyida 1 botmon bug’doyning narxi 8-9 tanga atrofida baholangan bo’lsa, dekabr oyiga kelib, 11-12 tangaga chiqqan. Erta bahorda Qarshi bozorida narxi 5-6 tanga bo’lgan 1 botmon arpa dekabrda 8 tangaga ko’tarilgan [21].

Buxoro amirligidagi asosiy soliqlardan biri zakot ekanligi yuqorida aytib o’tilgan edi. Bu davrda chorvadan 1/40 yoki har 100 bosh qo’ydan 14 Buxoro tangasi miqdorida zakot solig’i yig’ilgan [22]. Savdodan esa umumiy mahsulotning 2,5 foizi miqdorida olingan. Samarqand viloyatidan olib kelingan don mahsulotlaridan quyidagi miqdorda soliq olingan: bir vagon (610 pud) guruchdan 60 tanga; bir vagon (610 pud) bug’doydan 45 tanga; bir vagon (610 pud) arpadan 35 tanga [23].

XIX asr boshlariga oid ma'lumotlarga ko'ra Qarshi viloyatidan yig'ilgan zakot solig'i miqdori 2 lak, ya'ni 200 ming tangadan ortiq hisoblangan [24].

Chorva mollaridan olinadigan zakotdan tashqari amirlikda zakotning yana quyidagi turlari mavjud bo'lgan:

1) Bozordagi mahsulotlar musulmonlar va rus fuqarolariga tegishli bo'lsa, mahsulot umumiy qiymatining $1/40$ qismi, musulmon bo'lmagan boshqa savdogarlardan esa umumiy mahsulotning $1/20$ qismi miqdorida zakot yig'ilgan. Qonun bo'yicha narxi 200 tangadan oshmaydigan mahsulotlardan zakot solig'i olinmagan [25]. Amirlikda savdogarlardan yig'iladigan zakotning aniq hisobi yuritilmagan.

2) Qo'shni davlatlar va Rossiya viloyatlaridan keltiriladigan puldan olinadigan zakot: musulmonlar uchun umumiy pulning $1/70$ hissasi, boshqa din vakillari uchun $1/35$ hissa miqdorida bo'lgan, rus fuqarolaridan bunday soliq yig'ilmagan.

3) Buxoro amirligiga temir yo'llar orqali keltirilgan don mahsulotlaridan olinadigan zakot temir yo'llar qurilib ishga tushirilgach joriy qilingan. Soliqning bu turi quyidagi miqdorda yig'ilgan [26]:

№	Mahsulot nomi	Buxoro tangasiga	Rus puliga
1	Har bir vagon guruchdan	60 tanga	9 rubl
2	Har bir vagon bug'doydan	45 tanga	6 rubl 75 kop
3	Har bir vagon arpadan	35 tanga	5 rubl 25 kop.

Zakoti savoyim [27] – chorva mollaridan olinadigan soliq turi bo'lib, har o'nta qo'ydan yiliga 4 tanga miqdorida yig'ilgan [28].

Zakoti chakana [29] shariat qonunlariga zid ravishda zakot solig'ini to'lay olmaydiganlardan va xo'jaligida 40 tadan kam qo'y va echkilari bo'lib, chorva zakotini to'lashdan ozod etilganlardan olingan. Mazkur soliqni yig'ish uchun beklar amlokliklarga o'zlarining ishonchli vakillarini yuborar va ular orqali zakot solig'i to'lamaydiganlar to'g'risida ma'lumot to'plar edi. Zakoti chakana har bir bosh qo'y uchun tanga (7,5 kopeyk), har bir bosh echki uchun tanga (3,25 kopeyk) miqdorida yig'ilib, asosan amirlik aholisining kam ta'minlangan, kambag'al qismi gardaniga tushardi [30].

Qo'sh puli yer egalaridan har bir juft yer haydaydigan ho'kizdan 8 tanga (1 rubl 20 kopeyk), otlardan esa 4 tanga (60 kopeyk) miqdorida yig'ilgan. Qo'sh puli asosan kuz oyidan boshlab, to ekin-tikin ishlari mavsumiga qadar yig'ilgan [31].

Yaksara bir bosh qo'shchi ho'kizi yoki oti bor yer egasidan olinadigan soliq turi bo'lib, bir botmon, ya'ni 8 puddan 12 pudgacha (2,5 rubldan 5rublgacha) bug'doy narxida to'langan.

Osiyo puli – suv tegirmonlaridan olinadigan soliq. Bu tegirmonning qancha miqdorda un ishlab chiqarishiga qarab yiliga 20 tangadan 100 tangagacha (3-15 rubl) miqdorda yig'ib olingan.

Objuvoz puli – tariq va sholi oqlaydigan tegirmonlardan olinadigan soliq. Tegirmonning ishlab chiqarish hajmiga ko'ra yiliga 20 tangadan 100 tangagacha (3 rubldan 15 rublgacha) olingan [32].

Tanop puli [33] poliz ekinlari, uzumzorlar va mevali bog'lar egalaridan har tanob yer uchun yiliga uning joylashgan yeri, ya'ni bozorga yaqin-uzoqligiga qarab 16-18 tanga (2 r. 40 k. – 2 r. 70 k.) gacha [34] miqdorda olingan.

Alaf puli har bir tanob (1/6 desyatina [35]) beda ekilgan maydondan yiliga kamida 0,5 tangadan yig'ilgan [36].

Zakoti chakana, qo'sh puli, yaksara, osiyo puli, objuvoz puli, tanop puli, alaf puli kabi soliqlar shariatda belgilanmagan bo'lib, ular asosan mahalliy boshqaruv organlari, ya'ni beklarning ehtiyojlari uchun yig'ilgan [37].

Kafsan puli [38] yoki **panj sara** amlokdorning foydasiga yig'ilib, xirojdan tashqari har o'n botmon bug'doy, arpa, jo'xori, mosh va boshqa ekinlardan 20 funt [39] (qadoq), g'o'za va amerika paxtasidan 15 funt miqdorida olingan [40]. Kafsan puli amlokdorning shaxsiy mulki hisoblangan.

Mirobona [41] aholidan mirob foydasi uchun yig'iladigan soliq turi bo'lib, u bir juft qo'sh hayvoni haydaydigan yer uchun bir botmondan don yoki 1 botmon bug'doyning bozor narxidagi puli bilan to'langan.

Kafsani dorug'a dorug'a foydasi uchun yig'iladigan soliq bo'lib, uning hajmi aniq belgilanmagan. Yer egasi va dorug'aning o'zaro kelishuvi asosida yig'ilgan [42].

Jo‘rabekning Samarqandga qilgan yurishi vaqtida savdogarlarga mahsulotining umumiy summasiga qarab 1 tilladan 3 tillagacha miqdorda favqulodda bay puli solig‘i solingan [43].

Mushtak yoki mushti par – aminlar, oqsoqollar va boshqa quyi mahalliy boshqaruv organlari xodimlari foydasiga ixtiyoriy ravishda yig‘iladigan soliq turi [44].

Yuqoridagi soliqlar va to‘lovlardan tashqari ba’zi bir bekliklarda **suv puli** va **tol puli** singari to‘lov turlari ham mavjud ediki, ular savdogarlardan suv yoki quruqlik orqali o‘z mollarini olib o‘tganliklari uchun yo‘l puli sifatida olingan. Har ikki yig‘in turidan keladigan mablag‘ to‘g‘ridan-to‘g‘ri bek xazinasiga tushar edi [45].

Tagjoy yoki taxta joy puli [46] bozordagi sotuvchilardan olingan [47].

Aminona – bozorlarda sotiladigan oziq-ovqat va chorva mollaridan olinadigan soliq [48]. U quyidagi tartibda yig‘ilgan:

1 botmon paxtadan 5,5 tanga (82,5 kop.);

1 botmon jundan 7 tanga (1 rubl 5 kop.);

Qorako‘l teridan sotilgan narxining 2 foizi miqdorida;

Choy, indigo bo‘yog‘i (nil buyog‘i) va ingliz dokasidan sotilgan narxining 10 foizi miqdorida;

Sotilgan har bir otdan 1 tanga 2 pul (15,5 kop.);

Sotilgan har bir tuyadan 2 tanga (30 kop.);

Sotilgan har bir eshakdan 0,5 tanga (7,5 kop.);

Sotilgan har bosh qora moldan 20 puldan 1 tangagacha (5-15 kop.);

Sotilgan har bosh qo‘ydan – 24 pul (6 kop.).

Aminona solig‘ini yig‘ish uchun bozorlar, odatda, biror kishiga ma’lum narx evaziga bir yilga ijaraga berilgan yoki aminonachi deb ataluvchi maxsus amaldor va uning yordamchilari tomonidan amir xazinasiga uchun yig‘ilgan. Ijarachi kabi aminonachi ham bozorning tozaligi uchun javobgar bo‘lgan [49].

Jo‘rabek bek lavozimiga tayinlangunga qadar ochamayli urug‘idan bo‘lgan beklar davrida xalqdan 2 tangadan 6 tangagacha **soliq** deb ataluvchi jon solig‘i undirilgan [50].

Jiz'ya [51] – voyaga yetgan yahudiylar, hindlar, lo'lilar, umuman, amirlik hududida istiqomat qiluvchi boshqa din vakillaridan (ruslardan tashqari) yig'iladigan soliq. Bu soliq turi soliq to'lovchining iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, ya'ni kambag'allardan yiliga 12 tanga (1 rub. 80 kop. yoki oyiga 1 tanga), o'rtahollardan 24 tanga (3 rub. 60 kop. yoki oyiga 2 tanga) va boylardan 48 tanga (7 rub. 20 kop. yoki oyiga 4 tanga) miqdorida yig'ilgan [52]. Ayollardan va 9 yoshga to'lmagan bolalardan jiz'ya olinmagan [53].

Boshqa bir manbada esa o'z mustaqil hovlisiga ega bo'lgan yahudiydan oyiga 40 tanga, 16 yoshga to'lgan o'rta hol yahudiydan oyiga 2 tanga, kambag'allaridan esa mazkur to'lovning yarmi miqdorida soliq undirilganligi aytiladi. Shu tariqa, yahudiylardan yiliga amirlik xazinasiga foydasiga taxminan 24.000 rubl miqdorida soliq undirilgan [54]. Soliqning bu turi asosan Kitob, Shahrisabz va G'uzor bekliklarida yashovchi yahudiylardan yig'ilgan.

1. **Kechuv puli** (qayiq puli) – daryolarning kechuv joylaridan qayiq yordamida boshqa qirg'oqqa olib o'tganligi uchun to'lanadigan to'lov. U quyidagi tartibda olingan :

2. 1 kishi uchun – 8 pul (2 kop.);
3. Otliq kishi uchun – 1 tanga (15 kop.);
4. Tuya uchun – 1 tanga (15 kop.);
5. Qoramol uchun – 6 pul (1,5 kop.).

6. Daryo kechuvlari ma'lum pul evaziga bir yilga oldindan ijaraga berilgan [55].

7. Amirlikdagi soliq turlarini o'rganar ekanmiz, ularni ikki turga ajratish mumkin:

8. 1) Davlat soliqlari va to'lovlari. Ularga barcha turdagi zakot, xiroj, aminona va jiz'ya kiradi. Bu soliqlardan keladigan daromad to'g'ridan-to'g'ri amir xazinasiga tushgan.

9. 2) Ma'muriyat va mahalliy boshqaruv organlari foydasiga yig'iladigan soliqlar. Ularga zakoti chakana, qo'sh puli, yaksara, osiyo puli, objuvoz puli, tanob puli, alaf puli, mushtak puli, mirobona, kafsansara, kafsani dorug'a, qayiq puli va boshqa mayda soliqlar kiradi. Bu soliqlardan keladigan daromadning bir qismi (aniq

miqdorini belgilash qiyin) ma'muriy amaldorlar foydasiga, qolgan qismi esa beklıklardan yig'iladigan umumiy soliqlar bilan birgalikda amir xazinasiga borib tushgan [56].

10. Yuqoridagi to'lovlar va soliqlardan tashqari amirlik aholisi quyidagi mehnat majburiyatlariga jalb etilgan:

11. O'z mehnat qurollari bilan yiliga ikki uch marta ariq tozalash va qazish ishlariga;

12. Mahalliy hokimiyat ko'rsatmasiga binoan yo'llar, ko'priklarni tuzatish ishlariga [57].

Shuningdek, beklıklarda **qo'rg'on mardikor** deb ataluvchi mehnat majburiyati ham amal qilgan. Bunda qadimiy an'anaga ko'ra beklıklardagi qishloqlardan aholining soniga qarab 5 tadan 20 tagacha kishi yiliga ikki marta bahor hamda kuz oylarida ark va uning ichidagi ishlarga jalb qilingan. Qo'rg'on mardikorga jalb qilinganlarga hech qanday haq to'lanmaganidan tashqari, ularning ovqatlanishi ham o'z hisobidan bo'lgan, bunday ishchilar har kuni yangisiga almashtirib turilgan. Qaysidir qishloqdan belgilangan miqdordagi ishchilar kelmagan taqdirda, bek tomonidan har bir ishga kelmagan ishchi uchun 2 tangadan dakki puli deb ataluvchi jarima solingan. Bundan tashqari yo'lga yaqin qishloqlar aholisiga yo'llarni tuzatish uchun **yo'l majburiyati** ham joriy qilingan [58].

Jo'rabek faoliyati davrida Kitob bekligi yerlaridan mahsulot shaklidagi 10.000 botmon bug'doy hamda 60.000 tangadan tanob va zakot solig'i yig'ilgan [59].

Mahalliy amaldorlarda boqimandalik hissi ustun bo'lib, ular o'z mansablariga vaqtinchalik berilgan mukofot tarzida qarar va har daqiqada uni yo'qotib qo'yishidan qo'rqqar hamda imkon qadar o'z mansablaridan foydalanib, boylik orttirib qolishga intilar edi [60].

Ma'lumotlarga ko'ra Chiroqchi bekligi amirlik xazinasiga yiliga 100.000 tanga (25.000 rub.) miqdorda tanobona to'lagan [61].

G'uzor bekligi dehqonlari esa yillik 165.000 botmon hosildan bekka 20.000 botmon miqdorida xiroj to'laganliklari manbalarda qayd etilgan [62].

Gʻuzor bekligi yiliga amirlik xazinasiga rasman 200.000 pud miqdorida soliq toʻlab, shundan 5000 botmoni yoki 40.000 pudi bugʻdoy va arpadan olinadigan xirojga toʻgʻri kelgan. Amalda esa umumiy soliq miqdori yuqoridagidan ancha koʻp boʻlgan. 50.000 aholiga ega beklikda kishi boshiga yiliga oʻrtacha 4 pudga yaqin soliq toʻgʻri kelgan [63]. Qarshi bekligida birgina paxta va uzumdan yiliga 20.000 rublgacha soliq yigʻilgan [64].

Amirlikdagi iqtisodiy ahvol bilan yaqindan tanishgan Gubarevich-Radobilskiyning qayd qilishicha, soliqlarning maʼmuriyat amaldorlari ixtiyorida qolgan yarmidan tashqari amirlik xazinasiga yiliga xiroj soligʻidan 4 mln. rubl, zakotdan 1 mln. rubl, aminonadan 1,5 mln. rubl, turli xil toʻlovlardan 1,5 mln. rubl, jami 8 mln. rubl miqdorida daromad kelib tushgan [65]. Arxiv hujjatlarida esa amirlik xazinasiga yiliga 7 mln. 349 ming rubl kelib tushishi qayd etiladi [66]. Shundan 600.000 rubli Qarshi bekligi, 500.000 rubli Shahrisabz bekligi, 200.000 rubli Kitob bekligi, 300.000 rubli Gʻuzor bekligi, 200.000 rubli Chiroqchi bekligi, 150.000 rubli Yakkabogʻ beklikligi zimmasiga toʻgʻri kelgan [67]. Shahar va qishloq hunarmandlari toʻlaydigan zakot soligʻi **zakoti rasta** deb atalgan.

Amirlik hududida oltin, kumush va mis pullar muomalada boʻlib, ularning rus pullariga nisbatan qiymati qoʻyidagicha boʻlgan:

Oltin pul: tilla – 6 rubl 80 kop.

Kumush pul: tanga – 15 kop.

Mis pul: miri – 4 kop., pul – 1/4 kop., paysa yoki yarim miri – 2 kop.

Bundan tashqari, katta miqdorda qoʻshni davlat pullari: forslarning kumush kroni – 30-40 kop., afgʻon kumush rupiyalari – 30-45 kop. qiymatda muomalada boʻlgan [68].

1901 yili rus hukumati Buxoro amirligining barcha hududida Buxoro tangasini rus puliga 15 kopeykdan bir xil almashtirishni talab qiladi [69].

Buxoro amirligida jami 50 ga yaqin soliq va toʻlovlar joriy etilgan boʻlib, aholi bularni toʻlashga majbur edi. Toʻlanishi shart hisoblangan umumiy soliqlardan tashqari har bir beklikda qoʻshimcha toʻlovlar ham joriy qilingan boʻlib, ularni beklar oʻz bilganlaricha belgilagan. Soliq yigʻuvchilar esa Buxoro hukumati

tomonidan joriy etilmagan to'lov va majburiyatlarni ham aholidan talab qilishgan [70].

Ma'lumki, amirlikda soliq siyosatini tartibga olish borasida bir qator islohotlar o'tkazishga harakat qilingan. Xususan, XX asr boshlarida Amir Olimxon tomonidan o'tkazilgan "Farmoni islohot" shular jumlasidandir. Bu islohotdan asosiy maqsad ma'muriy amaldorlar va soliqchilarning o'z mansablarini suiiste'mol qilishiga, aholidan, birinchi galda, dehqonlardan ortiqcha soliq va yig'inlar undirishlariga chek qo'yishga qaratilgan edi. Aslida esa "bir bo'lmag'ur buyruq" natijasida [71] amirlikda ilgari yer solig'i 4/10 miqdorda olib kelingan bo'lsa, Amir Olimxon davrida uning miqdori 3/10 hissaga ko'tarildi. Saroy xizmatchilari, xususan, harbiy-ma'muriy amaldorlarning maoshi bir qadar oshirildi. Lekin bu tadbir ham amalda kutilgan natijani bermadi. Islohotlarda belgilangan vazifalarning amalda bajarilishi ustidan nazoratning deyarli yo'qligi, soliq yig'uvchi amaldorlarning o'z faoliyatida mutlaqo erkinligi mamlakat soliq siyosatida ko'pgina adolatsizliklarga sabab bo'ldi.

Islohotlar natijasida sarbozlar va amaldorlar maoshining oshirilishi ham aholidan soliqlarning ko'proq yig'ib olinishiga olib keldi. Chunki amaldorlarga to'lanadigan maosh tufayli amir xazinasining chiqimi ortib, uning o'rnini to'ldirish yana raiyatning zimmasiga tushdi. Shu tariqa, Amir Olimxon islohotlari kutilganidek soliqlarni kamaytirishga emas, balki ularning yanada oshishiga olib keldi.

1899 yili Shahrisabz begi yillik 700.000 rublga yaqin soliqni to'lashdan bosh tortadi. Bundan g'azablangan amir o'z sarbozlari bilan Shahrisabzga hujum qilib, bekning bor mol-mulkini musodara qiladi va barcha yordamchilarini quvib yuboradi [72].

XULOSA

Xulosa sifatida shuni qayd etish lozimki, amirlikda turli soliqlarni yig'ib olish ko'p sonli soliq yig'uvchi amaldorlar tomonidan amalga oshirilsa-da, soliqlarning belgilangan aniq miqdoriga qat'iy amal qilinmas, soliqchilar tomonidan ko'plab suiste'molchiliklarga yo'l qo'yilardi. Soliqlarning shariatda belgilanganidan ko'pligi, ular miqdorining oshib ketishi aholining noroziligi, turli g'alayonlarni keltirib chiqarardi.

XIX–XX asr boshlarida Buxoro amirligida shariatda belgilangan tartibda olinadigan asosiy soliqlar hamda ko‘plab qo‘shimcha soliq va majburiyatlar mavjud bo‘lib, bu holat mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotining barcha sohalariga o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. Ko‘p sonli qo‘shimcha soliq, to‘lov va majburiyatlar aholining asosiy qismi iqtisodiy hayotiga katta zarar yetkazdi. Manbalar ma‘lumotlariga ko‘ra tabiiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlar ta‘sirida turli davrlarda bozorlarda mahsulot va tovarlarning narxi keskin o‘zgarib turgan. Ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o‘sishi natijasida oddiy aholi orasida ommaviy ocharchiliklar yuzaga kelib, ushbu jarayonlar markaziy va mahalliy hokimiyat, amaldorlar va aholining boshqa qatlamlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga jiddiy ta‘sir o‘tkazgan.

IQTIBOSLAR / ЧОККИ / REFERENCES

1. Kap. Pokotilo. Otchet o poyezdke v predeli Sentralnoy i Vostochnoy Buxari v 1886 godu. – Tashkent: Tipografiya Okrujnogo Shtaba, 1888. – S. 59.
2. Abduraimov M.A. Ocherki agrarnix otnosheniy v Buxarskom xanstve. T.2. – Tashkent: Fan, 1970. – S. 147.
3. Semenov A.A. Ocherk pozemelno-podatnogo i nalogovogo ustroystva v Buxarskogo xanstva // Tr. SAGU. – Tashkent, 1929. – Seriya II. – Vip. 1. – S. 22.
4. Kun A. Buxarskiye poryadki. Zametki o poryadke vzimaniya pozemelnix podatey // Turkestanskiye vedomosti. 1873. – №3.
5. Abduraimov M.A. Ocherki agrarnix otnosheniy... – S. 154.
6. O‘zR MDA. 1-jamg‘arma, 34-ro‘yxat, 791-ish, 2 orqa varaq.
7. Tanob – tomonlari 60 gaz bo‘lgan maydon.
8. Kun A.A. Ocherki Shagrisebzskego bekstva. – SPb., 1880. – S. 30.
9. O‘zR MDA. 1-jamg‘arma, 34-ro‘yxat, 791-ish, 3-varaq.
10. Xoroshxin A.I. Sbornik statey, kasayushixsya do Turkestanskogo kraya. – SPb.: tip. A. Transhelya, 1876. – S. 125.
11. Semenov A.A. Ocherk pozemelno-podatnogo i nalogovogo ... – S. 24.
12. Chexovich O.D. O razmere xaradja v Buxare XIX vv. – Tashkent, 1961. – S. 38.
13. O‘zR MDA. 1-jamg‘arma, 34-ro‘yxat, 791-ish, 2-varaq.

14. O‘zR MDA. 126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 596-ish, 7-varaq.
15. Kun A.A. Buxarskiye poryadki... – №3.
16. Kun A.A. Ocherki Shagrisebzskego bektva... – S. 30.
17. Semyonov A.A. Ocherk pozemelno-podatnogo i nalogovogo ... – S. 52.
18. Abduraimov M.A. Ocherki agrarnix otnosheniy... – S. 165.
19. Abduraimov M.A. Ocherki agrarnix otnosheniy ... – S. 167.
20. O‘zR MDA. 3-jamg‘arma, 2-ro‘yxat, 275-ish, 5-varaq.
21. O‘zR MDA. 3-jamg‘arma, 2-ro‘yxat, 275-ish, 5-varaq.
22. Kun A.A. Ocherki Shagrisebzskego bektva... – S. 30.
23. O‘zR MDA. 1-jamg‘arma, 34-ro‘yxat, 791-ish, 3-varaq.
24. Vyatkin A. Karshinskiy okrug, organizatsii nem voyska i sobitiya v period 1215-1217 (1800-1803) godov. Otdelnyy ottisk iz XVIII toma. Izvestiya Sredneaziatskogo otdela gosudarstvennogo russkogo geograficheskogo obshestva. – Tashkent, 1928. – S. 28.
25. Logofet D.N. Buxarskoye xanstvo pod russkim protektoratom. – SPb.: B.I., 1911. – T. II. – S. 43.
26. Logofet D.N. Buxarskoye xanstvo... – S. 44.
27. O‘zR MDA. 126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 663-ish, 2-3-varaq.
28. Semenov A.A. Ocherk pozemelno-podatnogo i nalogovogo... – S. 47.
29. O‘zR MDA. 126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 638-ish, 1-varaq.
30. Logofet D.N. Buxarskoye xanstvo... – S. 51.
31. Xoroshxin A.P. Sbornik statey... – S. 171–172.
32. Logofet D.N. Buxarskoye xanstvo... – S. 52.
33. O‘zR MDA. 126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 600-ish, 19-varaq.
34. Semenov A.A. Ocherk pozemelno-podatnogo i nalogovogo ... – S. 52.
35. 1 desyatina = 1,09 ga, 1/6 desyatina = 0,18 ga.
36. Semenov A.A. Ocherk pozemelno-podatnogo i nalogovogo ... – S. 52.
37. Logofet D.N. Buxarskoye xanstvo... – S. 53.
38. O‘zR MDA. 126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 609-ish, 3-varaq.
39. Og‘irlik o‘lchov birligi bo‘lib, 1 funt = 409,5 g.

40. Semenov A.A. Ocherk pozemelno-podatnogo i nalogovogo ... – S. 35.
41. O‘zR MDA. 126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 599-ish, 13-varaq.
42. Logofet D.N. Buxarskoye xanstvo... – S. 54.
43. Kun A.A. Ocherki Shagrisebzskskago bekstva... – S. 30.
44. Semenov A.A. Ocherk pozemelno-podatnogo i nalogovogo ... – S. 35.
45. Logofet D.N. Buxarskoye xanstvo ... – S. 54.
46. O‘zR MDA. 126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 610-ish, 1-varaq.
47. O‘zR MDA. 126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 1279-ish, 1-varaq.
48. O‘zR MDA. 126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 604-ish, 23-varaq; 605-ish, 29-varaq.
49. Logofet D.N. Buxarskoye xanstvo... – S. 55.
50. Kun A.A. Ocherki Shagrisebzskskago bekstva... – S. 30.
51. O‘zR MDA. 126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 656-ish, 10-varaq.
52. Girgas V. Prava xristian na vostokey. – SPb., 1865. – S. 26-31 .
53. Kun A.A. Ocherki Shagrisebzskskago bekstva... – S. 30-31.
54. Meyyendorf YE.K. Puteshestviye iz Orenburga v Buxaru / Predisl. N.A.Xalfina. – M.: Nauka, 1975. – S. 96.
55. Logofet D.N. Buxarskoye xanstvo... – S. 56-57.
56. Logofet D.N. Buxarskoye xanstvo... – S. 57.
57. Logofet D.N. O‘sha asar. – S. 58.
58. Kun A.A. Ocherki Shagrisebzskskago bekstva... – S. 31.
59. Kun A.A. O‘sha asar. – S. 31–32.
60. Logofet D.N. Buxarskoye xanstvo... – S. 61.
61. Kap. Arxipov. Voyennaya rekognossirovka ravninnoy chasti Buxarskogo xanstva... – S. 176.
62. Kap. Arxipov. O‘sha asar. – S. 182.
63. Polk. Fedorov’. Statisticheskiy ocherk Guzarskogo i Kuytangskogo i Kallyukskogo amlyakdarstv Kelifskogo bekstva // Sbornik geograficheskix, topograficheskix i statisticheskix materialov po Azii. – SPb.: Voyennaya tipografiya, 1894. – Vip. LVII. – S. 167.

64. Кар. Arxipov. Voyennaya rekognossirovka ravninnoy chasti Buxarskogo xanstva, proizvedennaya v 1883 g. // Sbornik geograficheskix, topograficheskix i statisticheskix materialov po Azii. – SPb.: Voyennaya tipografiya, 1884. – Vip. XX. – S. 206.
65. Logofet D.N. Buxarskoye xanstvo ... – S. 62.
66. O‘zR MDA. 2-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 251-ish, 66-orqa varaq.
67. Logofet D.N. Buxarskoye xanstvo. – S. 65.
68. Logofet D.N. O‘sha asar... – S. 68.
69. Turkestanskiy vedomosti. 1906. – №86.
70. O‘zR MDA. 2-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 344-ish, 15-varaq.
71. Fitrat A. Amir Olimxon hukmronligi davri. – Toshkent, 1992. – B. 32. O‘zR MDA. 2-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 251-ish, 87-orqa varaq.

Tog‘ayev J.E.
t.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.,
O‘zbekiston Milliy universiteti
jasur.togaev@nuu.uz

**BRONZA DAVRI IJTIMOIIY-IQTISODIY MUNOSABATLARI
TARIXIGA DOIR MULOHAZALAR
(JANUBIY O‘ZBEKISTON MISOLIDA)
ANNOTATSIYA**

Markaziy Osiyo qadimgi davr tarixi turli qabilalarning migratsiyalari, assimilyatsiya jarayonlari hamda madaniy aloqalari bilan tavsiflanadi. Bronza davri tarixini arxeologik ma’lumotlar va yozma manbalar tahlili asosida tiklash mumkin. Maqolada bronza davri ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari tarixi rekonstruksiya masalasi Janubiy O‘zbekiston misolida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: bronza, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, Baqtriya, metallurgiya, madaniyat.

Тогаев Ж.Э.
д.ф.и.н. (PhD), и.о. доцент,
Национальный университет Узбекистана
jasur.togaev@nuu.uz

**РАЗМЫШЛЕНИЯ ПО ИСТОРИИ СОЦИАЛЬНО-
ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ БРОНЗОВОГО ВЕКА
(НА ПРИМЕРЕ ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА)**

АННОТАЦИЯ

Древняя история Центральной Азии характеризовалась наличием миграций, ассимиляционных процессов и культурных взаимодействий между различными племенами. История эпохи бронзы может быть реконструировано на основе анализа археологических данных и письменных источниках. В статье анализируется проблемы реконструкции истории социально-экономических отношений эпоху бронзы на примере Южного Узбекистана.

Ключевые слова: бронза, социально-экономические отношения, Бактрия, металлургия, культура.

Togaev J.E.
PhD, acting docent,
National University of Uzbekistan
jasur.togaev@nuu.uz

**REFLECTIONS ON THE HISTORY OF BRONZE AGE SOCIO-
ECONOMIC RELATIONS
(BASED ON THE EXAMPLE OF SOUTHERN UZBEKISTAN)
ABSTRACT**

The ancient history of Central Asia features migrations, assimilation processes and cultural interactions between different tribes. The history of the Bronze Age can be reconstructed based on the analysis of archaeological data and written sources. The article analyzes the issues of reconstruction the history of socio-economic relations of the Bronze Age on the example of Southern Uzbekistan.

Key words: bronze, socio-economic relations, Bactria, metallurgy, culture.

KIRISH

Bronza va ilk temir davri ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari tarixini (Janubiy O'zbekiston misolida) qayta tiklash jarayonida O'rta Osiyoning turli geografik sharoitida tarixiy-madaniy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, mintaqaning janubida (Baqtriya, Sug'd, Marg'iyona, Parfiya) va shimoli-sharqida (Xorazm, Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi) ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida, madaniyatlarning notekis taraqqiyoti bilan belgilangan muayyan tafovutlar mavjud bo'lgan.

Bronza davri O'rta Osiyo janubida (shu jumladan, Surxon vohasida) ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar va ixtisoslashgan hunarmandchilik sohalarining rivojlanishi, savdo-sotiq va madaniy aloqalarning tobora kengayib borishi, o'troq dehqonchilik aholining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarida katta o'zgarishlarga sabab bo'lgan [1].

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Yozma manbalarda yoritilmagan bronza davri tarixi va madaniyatini faqat arxeologiya materiallari asosida tiklash mumkin. Ular moddiy va ma'naviy madaniyat, iqtisodiy munosabatlar va ijtimoiy aloqalar tarixini o'rganishda muhim

manba bo‘lib xizmat qiladi. Tarixiy rekonstruksiya jarayonida quyidagilarni ochib berish muhim:

1. Turar joylarning topografiyasi va me'morchilik tarhi, alohida uy-joylardagi xonalarning funksiyasi.

2. Tabiiy sharoit (paleogeografiya, paleoekologiya), moddiy ishlab chiqarish imkoniyatlari, hayot sharoiti, inson turmush tarzi, antropogen landshaftning rivojlanishi.

3. Jamoalarning iqtisodiy tuzilishi, xo‘jalik shakllari, xonaki va ixtisoslashgan hunarmandchilik darajasi, paleodemografiya, oila va jamiyat.

Bronza davri Sopollitepa aholisi A.A.Asqarovning fikriga ko‘ra, ko‘p xonali uy-joylarda yashagan va urug‘ jamoalariga birlashgan 8 ta katta oilalar a‘zolaridan iborat bo‘lgan. Ular tomorqa yerlari, chorva, ishlab chiqarish qurollari, ro‘zg‘or buyumlari va qishloq xo‘jalik mahsulotlari zahiralariga ega bo‘lib, mustaqil xo‘jalik yuritgan va katta ijtimoiy tuzilish (manzilgoh) doirasida hayot kechirgan [2, C. 142-143]. Xuddi shunday holat bronza davri Dashtli vohasi misolida, ya‘ni katta patriarxal oilalarga mansub ko‘p xonali turar joylar Shimoliy Afg‘onistonda aniqlangan, biroq bu yerda dehqonchilik jamoalari uy-joylari qatorida saroy va ibodatxonalar kabi katta inshootlar qoldiqlari topilgan. Keyin bunday imoratlar Janubiy O‘zbekistondagi Jarqo‘ton shahar xarobasida ham aniqlangan [3].

V.I.Sarianidi bronza davri Baqtriyada ibodatxonalarning xususiy yer mulki va xo‘jaligi to‘g‘risida masalani ilgari surib, ularni Mesopotamiya ibodatxonalarining xo‘jaliklari bilan qiyoslagan [4, C. 132-135]. Ma‘lumki, Ikkidaryo oralig‘ida (Shumer) va Elamda sun‘iy sug‘orish tizimini yaratish erkin jamoa a‘zolari mehnati bilan bog‘liq bo‘lgan, dehqonchilik vohalarida jamoatchilik yerlari o‘troq aholi sig‘inadigan ma‘budalarning xususiy mulki hisoblangan [5].

Yer-mulklarga oliy huquq haqidagi tasavvurlar tufayli, yirik tashkillashtirilgan ibodatxonalar xo‘jaliklari vujudga kelib, ular qishloq jamoalari xo‘jaligi va jamoatchilik yer mulkidan ajralgan hamda o‘z xizmatchilariga ega bo‘lishgan [6].

Baqtriyaga qo‘shni Marg‘iyonada hosildorlik, suv va olov e‘tiqodlari bilan bog‘liq bronza davriga oid katta ibodatxonalar va mudofaa devorlari bilan o‘rab

olingan saroylar aniqlangandan so'ng, Marg'iyona va Baqtriya ham Mesopotamiya singari ibodatxona va saroy yer-mulklari rivojlanganligi haqidagi xulosalar xorijiy nashrlarda ham o'z aksini topgan [7].

Ibodatxona va saroy xo'jaliklari Marg'iyona-Baqtriya aholisining ijtimoiy va iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutgan, bu xo'jaliklarni shakllangan ma'muriy tashkilot boshqarib turgan kabi fikrlarga qo'shilgan holda [8], bizningcha dehqonchilik vohalarida aholining asosiy ijtimoiy qatlamlari ziroatchilik va chorvachilik bilan band bo'lgan kishilar, hunarmandlar, binokorlar va turli xizmatlarni bajaruvchi jamoa a'zolaridan iborat bo'lgan. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi darajasini ijtimoiy mehnat taqsimoti belgilab bergan. Qo'lga kiritilgan ilmiy ma'lumotlar bronza davri Janubiy O'zbekiston hududida jamoatchilik hayotining yuqori darajasidan darak beradi.

Bronza davri ijtimoiy-iqtisodiy tizimini qayta tiklashda tasviriy san'at namunalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Bu borada, Yaponiya tarixiy poytaxti – Kiotodan uncha uzoq bo'lmagan hududda joylashgan Mixo muzeyi kolleksiyasining mil. avv. III ming yillikning oxiri – II ming yillik boshlariga oid Baqtriya – Marg'iyona sivilizatsiyasiga tegishli buyumlar majmui e'tiborga molik [9]. Ularning biri – kumush qadah sirtida qishloq xo'jalik ishlari hamda marosim sahnalari, idishning quyi va yuqori qismida tasvirlangan (12-ilova). Quyi qismida omoch tortayotgan ikkita xo'kiz, o'ng qo'li bilan omoch bosib shudgorlash harakatidagi qo'shchi, shoh yordamida xo'kizlar haydovchisi va silindrsimon idishdan yerga urug' sepgan ziroatkor tasvirlangan. Yuqori manzarada o'tirgan holatdagi sakkizta odam aks ettirilgan. Ular, ehtimol hosildorlik e'tiqodiga bag'ishlangan diniy marosimni o'tkazayapti. O'ng tarafning oxirida o'tirgan shaxs (bosh kohin?) qadah ko'tarib ichimlik iste'mol qilayapti, uning yonida mevalar to'ldirilgan vazasimon idish mavjud. Uning oldidagi kishining yelkasiga savat osilgan. Bu kishi uning qo'lini ko'tarib, qutlayapti [4, B. 452].

Bu davr jamoalarning iqtisodiy asosini dehqonchilik, chorvachilik, ixtisoslashgan hunarmandchilik va konchilik ishlari tashkil etgan. Tariq, arpa va bug'doy ekilgan, bog'dorchilik rivojlangan, mayda chorva va qoramol boqilgan,

qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ayirboshlash va tashqi savdo-sotiq aloqalari mavjud bo'lgan [10]. Bronza davrida bir muncha kichikroq manzilgohlarning (Bobolangar, Qo'shtepa) vujudga kelishi ham e'tiborga molik [11]. Ular o'z xususiyati, mulkiga ega alohida katta oilalarning turar joylari bo'lgan.

Ma'lumki, bronza davrining xo'jalik sohasida erishgan eng katta yutuqlaridan biri qadimgi dehqonchilikning keng yoyilishi va chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishidir. Ishlab chiqarish munosabatlari rivoji ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda sezilarli o'zgarishlarga olib keldi [12].

Metallurgiya rivoji va mehnat qurollarini yasash uslubi o'zgarishi bilan odamlar mis, qalay va qo'rg'oshin konlarini kashf etadilar. Bronza davrida (mil. avv. III ming yillikning o'rtalari – II ming yillik) o'zlashtirilgan yerlar va yashash hududlar tobora kengayib borgan. Aholi sonining o'sishi, qabilalarning o'zlashtirilgan hududlarda zich joylashishi, doimo o'sib borayotgan xo'jalik va hunarmandchilik ehtiyojlari, tabiiy qazilma boyliklar – polimetallar ruda konlari, bo'z yerlar, suv manbalari va keng yaylovlarni o'zlashtirish zaruratini vujudga keltirgan. Mazkur omillar dehqonchilik va urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishi hamda mil. avv. II ming yillikda yaylovlarda boqiladigan chorvachilik ajralib, maxsus xo'jalik shakliga aylanishi bilan belgilangan [13].

Shuni ham alohida qayd etish joizki, uy chorvachiligi bronza davri jamoalari hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Sopollitepadan 16 mingtacha hayvon suyaklari aniqlangan bo'lib, ularning asosiy qismi qo'y va echkiga tegishli bo'lsa, shuningdek, ular orasida cho'chqa, tuya, sigir, it va mushuk suyaklari ham uchraydi. Bronza davri odamlari hayotida yovvoyi hayvon va qushlarni ovlash ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, zero arxeologik yodgorliklardan aniqlangan bug'u, jayron, quyon, o'rdak, kaptar va shu kabi boshqa hayvon va parranda suyaklari qoldiqlari yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi [14]. Qo'shimcha tarzida aytish mumkinki, osteologik ma'lumotlar tahlili hayvon suyaklarining asosiy qismi uy hayvonlariga (Sopollitepada – 70,2%, Jarqo'tonda – 90 %, Kuchuktepaning bronza davri qatlamida – 73,4% bo'lsa ilk temir davri qatlamlarida – 85,2%, Talashkantepada – 78,2%), shuningdek, qolgan qismi yovvoyi hayvonlarga

(Sopollitepada – 29,8%, Jarqo‘tonda – 10 %) tegishli ekanligini ko‘rsatadi. Jarqo‘tondan yetti turdagi uy havonlari hamda o‘n olti turdagi yovvoyi hayvon suyaklari qoldiqlari aniqlangan [15].

Tarixiy rekonstruksiya jarayonida mazkur ko‘rsatkichlarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega, negaki oziq-ovqat mahsulotlarini qo‘lga kiritishning ishlab chiqarish xo‘jaligi taraqqiy topgan bronza davrida, o‘zlashtirish xo‘jaligi sohasi, yovvoyi hayvonlarni ov qilish, ma’lum darajada ilgari ahamiyatini saqlab qolgan. Shu bois, qadimgi xo‘jaliklar tizimini tiklash paytida turli manbalardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

Aniqlangan uy hayvonlari suyaklari (foiz ko‘rsatkichida %) [15, C. 53]

Hayvon turi	Bronza davri			Ilk temir davri	
	Jarqo‘ton	Sopollitepa (Botirov bo‘yicha 1974)	Kuchuktepa I	Kuchuktepa II	Talashkantepa I
Yirik (shoxli) chorva	18,0	36,5	14,6	16,0	16,4
Mayda (shoxli) chorva	60,0	55,1	51,7	48,0	54,1
To‘ng‘iz	0,8	3,4	10,4	16,6	18,1
Ot	7,7	-	5,2	2,6	4,9
Tuya	0,4	0,8	3,4	2,0	4,9
It	8,5	0,8	3,4	2,5	-

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mayda (shoxli) chorva Janubiy O‘zbekistonning bronza va ilk temir davri yodgorliklarida ustunlik qilgan. Yirik va mayda chorva aholining go‘sh, sut hamda teri mahsulotlariga bo‘lgan asosiy ehtiyojlarini ta‘minlagan.

Bronza davrida O‘zbekistonning janubiy hududlarida o‘troq dehqonchilik madaniyati taraqqiy etadi. Janubiy O‘zbekistonning bronza davri yodgorliklari tog‘ oldi hududlari va tog‘lar oralig‘idagi vohalarda, suv manbalariga yaqin hududlarda joylashgan [14].

Janubiy O'zbekistonning bronza va ilk temir davri yodgorliklarini rayonlashtirish masalasi A.A.Asqarov, E.V.Rtveladze, A.S.Sagdullayev hamda Sh.B.Shaydullayev tadqiqotlarida muhokama etilgan [16].

16. Гулямов Я.Г. Археологические работы к северу от Бухарского Оазиса // Труды Института истории и археологии АН УзССР. – Ташкент,1956. - Вып.8. - С.149-161.
17. Гулямов Я.Г., Исламов У., Аскарлов А. Первобытная культура в низовьях Зарафшана.-Ташкент,1966. – 266 с.
18. Ставиский Б. Я. Сергей Николаевич Юренев. - Бухара,1996. – 30 с.
19. Мухаммаджонов А.Р. Қуйи Зарафшон водийсининг суғориш тарихи. - Тошкент,1972. - 376 б.
20. Мирзаахмедов Дж.К. Глазурованная керамика Бухары второй половины XVII – начала XX вв. как исторический источник. Авт. дисс. канд. ист. наук. -Самарканд,1987.

21. Адылов Ш.Т. О короластике Бухарского Согда // ИМКУ.- Ташкент, 1983. – Вып. 18. – С. 65-75.

22. Семенов Г.Л. Согдийский город V-XI вв. Формирование плана (по материалам Пайкенда вв Бухарском оазисе и Ак-Бешима в Семиречье). Диссертация в виде научного доклада на соискание ученой степени доктора исторических наук. – СПб., 2002.

23. Холматов Н.Ў. Ўзбекистон неолит даври жамоаларининг моддий маданияти. – Тошкент: Фан, 2008. – 181 б.; Сайфуллаев Б.К. Палеолит долины р. Зарафшана и Северо-Восточных Кызылкумов. Автореф. дисс. ... канд. истор. наук. – Самарканд, 2003. – 62 с.; Холматов Н.У., Жўракулова Д.М. Зарафшон воҳаси илк жамоалари маданиятининг узвийлик хусусиятлари // Зарафшон воҳаси ва унинг тарихдаги ўрни. – Самарканд, 2001. – Б. 17-20; Ниязова М. И. Қадимги ва ўрта аср заргарлик буюмлари Бухоро маданияти тарихи манбаи сифатида (археологик материаллар бўйича). Тарих фанлари номзоди ... диссертацияси. – Самарканд, 2007. – 158 б.; Сайфуллаев Б.К., Хужаназаров М.М., Джуракулова Д.М. Новые данные по палеолиту Кызылкумов // история и археология Турана. – № 3. – Самарканд, 2017. – С. 31-37; Хошимов Х.Б. Оёқоғитма макони – илк неолит даври тош индустрияси. Тарих фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Самарканд, 2019. – 22 б.

24. Brunet F., Khudzhanaarov M., Hoshimov H.B. Nouvel les doonnes sur la chronologie de la culture de Kel'teminar (VII-IV millenaires) en Ouzbekistan // The history of material culture of Uzbekistan.-Samarkand, 2012. – № 38. – P.118-125.

25. Szumchak K., Khudzhanaarov M. Exploring the neolitik of thr Kyzyl-kums Ajakagytna “the site” end other collection. – Warshava university, 2006. – 252 p.

26. Genito B et al. Preliminary notes on the ‘Archaeological Topography in the Bukhara Oasis’ project // Italo-Uzbek Scientific Cooperation in Archaeology and Islamic Studies. - Rome , 2003 – Pp 73-74; Silvi Antonini C. Loscavo. Il castello eil complesso fortificato meridionale // Gli scavi di Uch Kulakh (oasi di Bukhara).

– Rome, 2009. – Pp. 43-180; Cerasuolo O Indagine topografica nel territorio di Varakhsha// Gli scavi di Uch Kulakh (oasi di Bukhara). – Rome, 2009. – Pp. 189-210.

27. Ранте Р., Фуаш Э., Мирзаахмедов Д.К. Динамика развития поселений Западного Согда в связи с изменением русла Зарафшана и формах торговли: фортирование «северо-восточного Великого шелкового пути» // История и археология Турана.– Самарканд, 2017. -№ 3. – С. 384-402.

Sheripov U. A.

t.f.n., dotsent.

Urganch davlat pedagogika instituti

mohiramatnazarova4@gmail.com

XIX ASRNING BIRINCHI CHORAGIDA XIVA XONLIGINING SIYOSIY VA IQTISODIY YUKSALISHI ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX asrning boshlarida Xiva xonligining siyosiy va iqtisodiy yuklalishiga katta hissa qo'shgan Xiva xoni Muxammad Raximxon I faoliyati to'g'risida so'z yuritilib, uning davlat xokimiyatini mustaxkamlash, siyosiy tarqoqlikka barxam berish va xonlik xududlarini kengaytirish maqsadida zarur xollarda kuchli ko'shin yordamida, ayrim xollarda iqtisodiy ta'sir choralari qo'llash orqali, ya'ni suv inshootlarini buzib tashlash, to'g'onlarni to'sib qo'yish yoki suvdan foydalanishdan maxrum qilish kabi choralarni qo'llash orqali xonlikka bo'ysundirishi to'g'risida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Markaziy xokimiyatni kuchayishi, isyonchilarga qarshi kurash, qoraqalpoqlarning bo'ysundirilishi, Buxoro amirligiga qarshi urushlar, to'g'onlar, arna, damba, Pitnak, Tuyamo'yin qisnog'i, iqtisodiy yuksalish.

Sheripov U. A.

PhD., associate professor

State pedagogical institute of Urgench

mohiramatnazarova4@gmail.com

POLITICAL AND ECONOMIC PROGRESS OF THE KHIVA KHANATE IN THE FIRST QUARTER OF THE 19th CENTURY ANNOTATION

This article discusses about the activities of Khan of Khiva, Muhammad Rahim Khan I, who greatly contributed to the political and economic burden of the Khanate of Khiva at the beginning of the 19th century. Consolidation of state power, elimination of political disunity and expansion of the Khanate's territory were the main goals of the policy of Muhammad Rakhim Khan I. In order to achieve this goal, Khan of Khiva used powerful troops to strengthen the political

power of the state, in some cases, by using measures of economic influence, destroying water projects. It is reported that they will subjugate the khanate by means of blocking dams or depriving them of access to water.

Key words: Strengthening of the central authority, fight against rebels, subjugation of Karakalpaks, wars against Bukhara Emirate, dams, arna, dam, Pitnak, Tuyamoyin mountain, economic growth.

Шерипов У.А.

К.И.Н., доцент

Государственный педагогический институт Ургенча

mohiramatnazarova4@gmail.com

ПОЛИТИЧЕСКОЕ И ЭКОНОМИЧЕСКОЕ УКРЕПЛЕНИЕ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА В ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЕ XIX ВЕКА АННОТАЦИЯ

В данной статье рассказывается о деятельности Хивинского хана Мухаммед Рахим-хана I, который внес большой вклад в политический и экономический подъем Хивинского ханства в начале XIX века. Упрочение государственной власти, устранение политической разобщенности и расширение территории ханства были основными целями политики Мухаммад Рахим-хана I. Для достижения этой цели хивинский хан использовал мощные войска для укрепления политической мощи государства, в некоторых случаях, применив меры экономического воздействия, т. е. уничтожая водные объекты, сообщается, что они подчинят себе ханство путем блокирования плотин или лишения их доступа к воде.

Ключевые слова: Укрепление центральной власти, борьба с повстанцами, покорение каракалпаков, войны против Бухарского эмирата, плотины, арна, плотина, Питнак, гора Туямойин, экономический рост.

KIRISH

1804 yilda taxtga o'tirgan Avaz inoqning o'g'li Elto'zar (1804-1806) o'zbeklarning qo'ng'iro't urug'idan birinchi bo'lib, rasmiy ravishda xon deb e'lon qilindi[1]. Xivadagi madrasalardan birida ta'lim olgan va harbiy ishlarga ko'proq e'tibor bergan xon Buxoro bilan munosabatlarni keskinlashtirdi.

Natijada 1806 yilda amir Haydarning qo'shinlari Xorazmga yurish boshlab, Shabboz yaqinidagi jangda Xiva qo'shinlariga shikast yetkazdilar. Amudaryoning so'l qirg'oqqa o'tishga uringan Eltuzarxon kema ag'darilishi natijasida cho'kib ketdi. Xon bu vaqtda 37 yoshda edi[2].

Buxoro amirligi bilan urushdagi mag'lubiyat Xiva xonligining harbiy-siyosiy mavqeini pasaytirib yubordi. Ayrim amaldorlar markaziy hokimiyatni tan olmay qo'ydilar. 1806 yilda soliqlarning ko'pligidan norozi bo'lgan Beshqal'a hududidagi (Chimboy, Qipchoq, Mang'it, Xo'jaeli va Qo'ng'iroq) aholi qo'zg'olon ko'tardi. O'zini xonlikdan mustaqil deb e'lon qilgan qozoq-qoraqalpoqlarning Xivaga qarab yo'lga chiqqan qo'shinlari qurolsizlantirildi. Xiroj deb nomlangan mahsulot bilan olinadigan soliq o'rniga solg'ut deb atalgan pul solig'i joriy qilinishi aholi noroziligini biroz bo'lsada pasaytirish imkonini berdi. Ushbu vaziyatdan foydalangan Muhammad Rahimxon to'rt oy taxtda o'tirgan Abulg'oz V o'rniga davlatni boshqarishni o'z qo'liga oldi[3].

Yangi xon salkam 20 yillik hukmronligi davrida mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatga alohida e'tibor qaratdi, xonlikni birlashtirishda ma'lum ijobiy natijaga erishdi. Rus elchisi N.Muravyev o'z hisobotida "Muhammad Rahimxon butunlay yangi davlat barpo qildi, deyish mumkin. Endilikda bu davlat O'rta Osiyodagi eng kuchli xonliklar jumlasiga kiradi" [4],— deb yozgandi.

1806 yilda Xiva taxtiga ko'tarilgan Muhammad Rahimxon I davlatni boshqarishga kirisharkan "Sulton-mirob, Munis-mirob va Bekali-mirobni Xeyvak kanalining boshini (Polvonyop) tozalashga ehtiyoj bor-yo'qligini bilib kelish uchun Tuynuqli degan joyga yubordi" [5], — deb yozgandi muarrih Bayoniy.

Muhammad Rahimxon kuchli qo'shin tuzishga va uning yordamida xonlik hududlarini kengaytirishga intildi. Xususan, 1809 yilda Muhammad Rahimxon I Qo'ng'iroq atrofidagi aholini bo'ysundirish maqsadida 10 ming kishilik qo'shin bilan boradi va Amudaryoning ikki kuchli tarmog'i — Changli Bo'zsuv va Chumanayda (Shumanay) bahaybat to'g'onlar qurib, suvni boshqa tomonga

burib yubortiradi. Xon mazkur to‘g‘onlarni qurish ishini tashkil qilish va nazorat etishni Munis-mirob va Qora Bahodir-mirobga topshiradi. To‘g‘onlar qisqa muddatda tiklanadi. Ammo, suv bosimiga bardosh berolmay 20 kundan keyin buzilib, daryo yana eski o‘zanlari orqali oqa boshlashi natijasida qo‘ng‘irotliklar va ularning ekinzorlari halokatdan qutilib qoladi [6].

Muhammad Yusuf Bayoniyning guvohlik berishicha, muntazam otliq qo‘shinlarda o‘zbek, turkman va qoraqalpoklar asosiy o‘rinni egallardi. Navkarlarga harbiy xizmatlari uchun yer ajratib berilgan va ular soliqlardan ozod etilgandi. Xiva navkarlari 1810 yil bahoridan kech kuzgacha Janadaryo (Yangidaryo) bo‘ylaridagi qozoq va qoraqalpoq ovullariga tajovuz qilib turdilar [7]. Natijada Aydosbiy, Kechenekbiy, O‘rinbiy yordamida Yangidaryo atrofida yashayotgan qoraqalpoqlar xonlikga bo‘ysundirildi[8].

1811 yil fevralidan boshlab xon buyrug‘i bilan Orololdi o‘zbeklari ustiga qo‘shinlar yuborila boshlandi [9]. Shu bilan bir qatorda 18 yildan buyon mustaqil hudud sifatida xonlik tarkibida mavjud bo‘lib turgan Qo‘ng‘irot bekligiga qarshi harakatlar boshlandi[10] Natijada qo‘ng‘irotliklar yetakchisi To‘ramurod so‘fi o‘ldirildi[11].

Keyinchalik, 1818–1819 yillarda Xiva xonligi qo‘shinlari janubiy Turkmaniston va Xuroson yerlariga harbiy yurishlar uyushtirdilar. Chorjo‘y yaqinidagi janglardan birida Xiva qo‘shinlari Buxoro amirligi lashkarlaridan zarba yedi va yengildi. 1820-1824 yillarda Muhammad Rahimxon yangi kuchlarni to‘plab, Buxoroga qarshi bir necha bor yurishlar qildi. Buxoroga tegishli Qoqishtivon va Og‘ar qal‘alari bosib olindi[12]. Buxoro amirligiga qarashli Mari va Tajan vohasi turkmanlarining chavdur, go‘klan, taka, sariq va yovmut urug‘lari Xiva xonligi qaramog‘iga o‘tdi. Xonning farmoni bilan Axal-Taka turkmanlarining bir qismi Ko‘hna Urganch va Ilonli qal‘alari atrofiga ko‘chirildi[13]. Xiva qo‘shinlarida navkarlik xizmatlarini o‘tash sharti bilan turkmanlarga yer ajratib berildi va soliqlar miqdori kamroq qilib belgilandi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Soliq tizimini tartibga solishga jiddiy e'tibor bergan xon davlat xazinasini to'ldirish yo'llarini izladi. Endilikda soliqning miqdori mulkdorlarga qarashli ekin maydoni hamda olingan xosilining hajmiga qarab belgilanadigan bo'ldi. Soliq to'plash ishi mahalliy hokimlar qo'lidan markaziy hukumat tasarrufiga o'tkazildi. Davlat soliqlarini yig'ish vazifasi qo'shbegi va mehtarga, zakat to'plash esa devonbegiga topshirildi. Fuqarolardan solg'ut usuli bilan hazinaga olinadigan daromad va harajatlar maxsus daftarlarda qayd etilib, xonning nazorati ostiga olindi.

Munisning yozishicha, Muhammad Rahimxon I davlatni qo'lga olganidan keyin uning qarindoshi Muhammad Rizobek unga bo'ysunishdan bosh tortadi. U o'ziga tegishli odamlari bilan Qiyot qo'ng'irotidagi hovlisiga boradi. So'ngra Qipchoq qal'asini bosib olib, qal'a hokimi Ollohberdibekni o'ldiradi. U orol hokimi To'ra Murod so'fidan xonga qarshi kurashda yordam so'radi. Xon Qipchoq qal'asiga avval Qutluq Murod inoqni yuboradi, keyin o'zi ham uni qamal qiladi. Muhammad Rizobekka Muhammad Niyozbek va Muhammad Niyoz otaliqlar madad beradilar. Bu kurashda u Orol hokimi To'ra Muroddan ham yordam oladi. Suyunbek va O'roz Alibek Oroldan yordamga kelgandilar. Muhammad Rahimxon natijasiz Xorazmga qaytadi[14]. Muhammad Rizobek Qipchoq qal'asidan so'ng Gurlanga ham hujum qiladi va uni qamal qiladi. Bu yerda ham unga katta mulkdorlar Muhammad Niyozbek va Muhammad Niyoz otaliq yordam beradilar. Ular Buxorodan madad olgach Qiyotni ham bosib olib Xivaga yaqinlashadilar. Muhammad Rizobek xon bilan sulh tuzish bahonasida Xivaga kirib uni tarafdolari bilan o'ldirmoqchi bo'ladi. Uning bu niyatidan xon xabardor bo'lib, poytaxtga kelgan Muhammad Rizobekni tarafdolari bilan tutib olib qatl va zindonband etadi[15].

1808-1809 yillardan boshlab Muhammad Rahimxon I o'z hukumatini turkmanlar, qaroqalpoq va Orol bo'yi o'zbeklar orasida mustahkamlash uchun harakat qilib, urush va muhorabalar olib borgan. 1810 yilda Muhammad Rahimxon

Gurlan tumanidagi isyonchi uyg'urlarning bir qismini ko'chirish maqsadida Yangiariq kanalining quyi qismini tozalatib, Oqmachit mavzeiga suv chiqarish va dehqonchilik uchun yangi yerlarni o'zlashtirish to'g'risida buyruq beradi.

1810–1811 yillarda Orolbo'yi qozoq–qoraqalpoqlari xonlikga bo'ysundirilgach, ular bilan o'lpon va soliqlar masalasida bitim tuzildi. “Muhammad Rahimxon butun nizolarni yo'qotish maqsadida,— deb yozgandi A.L.Kun, – qoraqalpoq oqsoqollari bilan shunday qarorga keldi: 1. Qoraqalpoqlar qancha yer ishlatishiga qaramasdan, har yili xonga 20 ming kichik tillo to'lab turadilar; 2. Ular xonga 2 ming askar yuboradilar; 3. Umumiy ishlarga har yili 6 ming odam beradilar. 4. Qo'ng'iroqliklar va nukusliklar 2 ming tildan, xo'jayliklar 500 kichik tilla solg'ut to'laydilar”[16].

1814 yilda xon buyrug'i bilan Shovot kanalining etaklari tartibga solinib, bu yerga Gurlandagi uyg'ur urug'ining yana bir qismi ko'chiriladi. Kelgusi yili esa, bu yerda Toshhovuz shahri barpo etildi. Xonlikning chegara shaharlarida, karvon va kemalar qatnaydigan yo'llarda maxsus bojxona xizmati joriy etildi. Xonlikda ziroat, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning jonlanishi davlat xazinasini daromadining o'sishiga imkon yaratdi. Xivaga kelgan rus elchisi N.Muravyev xon xazinasining bir yillik daromadi 4 mln. so'mdan oshib ketganligi haqida ma'lumot bergandi.

Xiva xonligining iqtisodiy taraqqiyoti sug'orish inshootlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi bilan bog'liq edi. Shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak Xorazmda Amudaryodan birinchi bo'lib suv oladigan hudud — Pitnak vohasi hisoblanadi. Bir vaqtlar, daryo hali Tuyamo'yin qisnag'idan o'tmasdan, Sulton Sanjar tuz koni yaqinidan Qoraqum tomon oqqan va Pitnak vohasini vujudga keltirgan. Daryo suvlari Chingiz tepa va Qoratosh yaqinidan o'tib, Pitnak va Yakka-chig'ir vohalarini shakllantirgan. “Pitnak vohasi boshqa yerlardan ajralib qolgan, — deb yozgandi Y.F. Fulomov. — U Xorazm vohasidan baland Toshsoqa tepaliklari bilan ajratib qo'yilgan. Janubda va janubi-g'arbida u Qoraqum sahrosi bilan tutashgan. Pitnak uncha katta bo'lmagan Xonyopi kanali bilan sug'oriladi. Rivoyatlarga qaraganda, bu kanal Xiva xoni Muhammad Rahimxon (1806-1825) tomonidan

qazdirilgan. Sugʻorish uchun qulay boʻlgan Pitnak vohasidan bundan ancha ilgari vaqtlarda ham foydalangan boʻlsalar kerak”[17].

Bir vaqtlar mashhur Mahmud az-Zamahshariy tugʻilgan joy nomi bilan maʼlum boʻlgan Izmuxshir shahri aholisi suvsizlikdan juda qattiq aziyat chekkan. Xiva xoni Muhammad Rahimxon I buyrugʻi bilan qazilgan arna shahardagi hayotni qayta tiklashga imkon bergan[18].

Munis va Ogahiyning guvohligicha, 1815 yilda Muhammad Rahimxon kenja inisi “Muhammadnazarbekka buyurdikim, Gurlan qiblasidagi Boʻzdan bir ulugʻ ariq qozdurgʻay. Lojaram beki mazkur bu amrda masosi mashkura taqdinga yetkurib, Bogʻolon arnasidan qozdurib, Qiyot ustidan oʻturib, Oʻrozali inoqning Boʻzdagi bogʻining qiblasidin, Boʻzga solib chiqarib, soʻngin Yangiqalʼaiy Xitoyning qiblasidan oʻtkardi. Va Anborda oqosining mulozimatiga yetib, marhimi podshohonagʻa sarafroz boʻldi. Ullu arigʻ holo “Qilichniyozboy arnasi”ga mashhurdir”[19].

Xuddi shu voqea haqida muarrih Muhammad Yusuf Bayoniy yozadi: “Bogʻolon arnasidan yordirib, Qiyot ustidan oʻtkarib, boʻzga chiqarib, yoinki qalʼai Xitoyning janubiy hududidan oʻtkarib, itmomga yetkurdi. Ul ariqning oyogʻi Shorqirovuqqa borurkim, oni Qilichboy arnasi derlar”[20].

Y.F. Fulomov yozishicha: “Yana Bayoniy, Qilichniyozboy arnasidan chap tomonga Beshoʻyli, soʻl tomonga Gurlan, Nukus, Uygʻur, Polvonbek yoplari ajralib chiqqan”[21], deb koʻrsatgandi. Shu bilan bir qatorda Y.F. Fulomov: “Qorakoʻz va Qilich Niyozboy kanallari Muhammad Rahimxonning ikki lashkarboshisi — Qilich Niyozboy va Davlat Qorakoʻz tomonidan qurildi”,— deb yozgandi [22].

Xon dastavval mamlakatdagi tarqoqlikka chek qoʻyish, davlat hokimiyatini markazlashtirish va mustahkamlashni oʻzining asosiy vazifalaridan biri deb hisobladi. Odamlarning qobiliyatiga qarab ish topshiradigan xon davlat ahamiyatiga molik tadbirlarini amalga oshirish uchun oʻz atrofiga ishonchli, nufuzli, ishbilarmon amaldorlar, ruhoniylar va harbiylarni toʻpladi. Xiva xonligi tobeligiga oʻtgan turkman, qozoq va qoraqalpoqlarning badavlat va nufuzli

arboblarini o'ziga yaqinlashtirib, ularga yer mulk va yuqori lavozimlar in'om etdi. Musulmon dindorlarining el–yurt orasidagi obro'–e'tiborini hisobga olib, o'zini ularga yaqin tutish maqsadida payg'ambar avlodlaridan hisoblangan sayyidlar qiziga uylandi. Saroyda yirik din arboblari joy va lavozim berdi, mol-mulk in'om etdi, ko'plarini soliq va to'lovlardan ozod qildi[23].

XULOSA

Davlatni boshqarish ishlarini isloh qilish bilan jiddiy shug'ullangan Muhammad Rahimxon Abulg'oz Bahodirxon davrida joriy etilgan boshqaruv tartibini o'zgartirdi. Xiva xonligining ma'muriy markazlari sifatida Xiva, Hazorasp, Xonqa, Gurlan, Anbar, Manoq, Shabboz, Mang'it, Qipchoq, Qilich Niyozboy, Xo'jayli, Xitoy, Toshhovuz, Yangi Urganch, Ilonli, G'azovot belgilandi. Keyinchalik ular qatoriga Qo'ng'iro't va Chimboy ham qo'shildi. Endi kent oqsoqollari va inoqlari o'rniga hokimlar va masjid qavmlari oqsoqollari boshqaruvi joriy etildi[24]. Shu bilan bir qatorda ayrim joylarda urug'lar vakillaridan tayinlangan noiblar o'z qavmlarini boshqarishni davom qildirdilar. Holbuki Xiva xonligida urug'chilik munosabatlari o'lkadagi boshqa feodal davlatlarga qaraganda ancha kuchli bo'lgan[25].

Muhammad Rahimxon Ko'hna Arkda Zarbxona uchun bino qurdirdi va o'z nomidan oltin va kumush tangalar chiqara boshladi. Yangi pullar xonlikda tovar–pul munosabatlarini yaxshiladi va soliq to'lovlari tartibga solishda muhim rol o'ynadi. Davlat xizmatida bo'lgan saroy ayonlari va viloyat amaldorlari uchun lavozimiga qarab ish haqqi — maosh belgilandi. Shu bilan hukmdorlarning daromad taqsimotida mavjud o'zboshimchaliklariga chek qo'yildi. Davlat arboblari orasida o'zbeklarning qo'ng'iro't urug'i vaqillari mavqei yanada oshirilib, ularning soni ortib bordi. Yusuf Mehtar og'a o'zbeklar vakili sifatida xon saroyida bosh vazir lavozimiga tayinlandi[26].

1819 yil 6 oktabrda Kavkazdan elchi sifatida kelgan kapitan Muravyevni xon qabul qilmasdan, “josus bo'lsa kerak” degan shubha bilan Qo'shko'pirdagi Ilgaldi qishlog'ida 47 kun davomida kutib turishga majbur qildi[27]. 1819 yil 20 noyabrda

xon N.N.Muravyevni Xivaga taklif qildi va muzokaralar vaqtida savdo karvonlari xavfsizligini ta'minlash, chegaralar haqida kelishib olishga intiladi.

1825 yil 7 mayda 50 yoshida bo'lgan Muhammad Rahimxon I vafot qildi. Uning o'rniga taxtga ko'tarilgan o'g'li Olloqulixon (1795–1842) xonlikning hududlarini kengaytirish va chegaralarini mustahkamlash ishlarini davom ettirdi[28].

IQTIBOSLAR / ЧОККИ / REFERENCES

1. Sulola nasabi: Avazbiy inoq → Eltuzarxon → Muhammad Rahimxon I → Allohqulixon → Rahimqulixon → Muhammad Aminxon → Sayyid Abdullohxon ibn Qutuluq Murodxon → Qutluq Murodxon ibn Ibodullohbek → Sayyid Muhammadxon ibn Muhammad Rahimxon I → Sayyid Muhammadxon Rahimxon II → Sayyid Isfandiyorxon → Sayyid Abdulloh II. – U.S.H.
2. .Munirov Q. Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari. – B. 8.
3. Yo'ldoshev M.Y. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. – B. 86 va keyingilari.
4. Muravyev N.N. Puteshestviye v Turkmeniyu i v Xivu.– M., 1822. Ch. 2. – S. 44.
5. Fulomov Y.F. Xorazmning sug'orilish tarixi... – B. 76.
6. Bartold V.V. K istorii orosheniya Turkestana. Amu-Darya // Soch. – T. III. – S. 181; Fulomov Y.F. Xorazmning sug'orilish tarixi... – B. 8-9, 277.
7. Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 110b var. (shu yurishda Munis ham qatnashganini ko'ramiz).
8. Kamalov S. Qaraqalpoqlardan xaliq bolip qaliplesio'i ham onin mamleketliginin tarixiyxinan. — Nukus. 2001. – B.27.
9. U davrdagi voqealar haqida Y.G'.G'ulomov shunday yozadi: "XIX asr boshlarida Qo'ng'irotni qamal qilgan xon shahar himoyachilarini taslim qilish maqsadida atrofdagi barcha ekinzorlarni yo'q qildi. Xonning talabiga qo'ng'irotliklar: "Uch oy - qovun, uch oy - sut-qatiq, uch oy - qovoq, uch oy - baliq", ya'ni hali tirikchilik uchun imkoniyatimiz bor deya javob qaytargan ekanlar // Gulyamov Y.G. Istoriya orosheniya Xorezma. – S. 7. / WWW: Kungrad.com.

10. Saymanov S.S. Istoriya goroda Kungrada (XVIII – pervaya polovina XIX vv.). Avtoref. dis. ... kand. ist. nauk. – Nukus, 2001. – S 16.
11. Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 163b var; Yana qarang: Kamalov S. Qaraqalpoqlardin xaliq bolip qaliplesio‘i ham onin mamleketliginin tarixiyxinan. – B. 28; Shu muallif. Materiali po istorii Karakalpakii i karakalpakov. – S. 78.
12. Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 234b - 235a var.
13. Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 212a,b var.
14. Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. – B. 73-74.
15. O‘sha joyda.
16. Kun A.L. Zametki o podatyah v Xivinskom xanstve // “Turkestanskiye vedomosti”, 1873. – № 83. – B. 52.
17. Fulomov Y.F. Xorazmning sug‘orilish tarixi... – B. 48.
18. O‘zR. FASHI. Qo‘lyozmalar fondi. – № 1335. – 58-b-varaq.
19. Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. – B. 414.
20. Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. – B. 217.
21. Fulomov Y.F. Xorazmning sug‘orilish tarixi ... – B. 227.
22. Fulomov Y.F. Xorazmning sug‘orilish tarixi ... – B. 304
23. Munis va Ogahiy Firdavs ul-iqbol. – 124a-125a,b; 129a-132a; 132a,b var.
24. Ivanov P.P. Arxiv xivinskix xanov XIX v. Issledovaniye i opisaniye dokumentov s istoricheskim vvedeniyem: Noviye istochniki dlya istorii narodov Sredney Azii. — L., 1940. – S. 21.
25. Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik: (XVII-XIX va XX asrning boshlari). — Tashkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 2002. – B. 74 va keyingilari.
26. Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 122a var.
27. Rus tarixchisi I.N.Zaxarinning ta’kidlashicha, Muhammad Rahimxon N.N.Muravyevning elchi va bojmon niqobi ostidagi harbiy ekanligini ancha keyin bilgan va uning boshini tanasidan judo qilmaganligiga afsuslangan ekan.
28. Mufasssal qarang: Mutalov O. Xiva xonligi Olloqulixon davrida. Tarix fan. nom. diss. — Toshkent, 2003. – 150 6.

Axmedov G'.J.

Urganch davlat universiteti

“Tarix” kafedrası tadqiqotchisi

axmedov.gulom.1981@gmail.com

**KONCHILIK ISHI RIVOJLANISHINING TARIXIY BOSQICHLARI
(O‘ZBEKISTON MISOLIDA)
ANNOTATSIYA**

O‘rta Osiyo qadimdan o‘zining nodir metallar, oltin va kumush konlari bilan mashhur. Bu mahsulotlarni qazib olish va ulardan foydalanish bronza davrida boshlangan va bu jarayon mehnat taqsimotini chuqurlashtirish, ijtimoiy munosabatlarni o‘zgartirish, mehnat qurollarini takomillashtirish natijasida yangi yerlarni o‘zlashtirish, shuningdek, qadimgi aholining iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. . Maqolada O‘zbekistondagi tog‘- kon sanoati tarixi va arxeologik ekspeditsiyalarning natijalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: mehnat qurollari, metall, mis, bronza, konchilik tarixi, arxeologik ekspeditsiyalar.

Ахмедов Г. Ж.

Исследователь кафедры “История”

Ургенчского государственного университета

axmedov.gulom.1981@gmail.com

**ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ГОРНЫХ РАБОТ (НА
ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА)
АННОТАЦИЯ**

Средняя Азия издревле славилась месторождениями редких металлов, золота и серебра. Добыча и использование этих продуктов начались еще в бронзовом веке, причем этот процесс приобрел важное значение в углублении разделения труда, изменении общественных отношений, освоении новых земель в результате совершенствования орудий труда, а также в экономическое развитие древнего населения. В статье анализируется история горного производства в Узбекистане, результаты археологических экспедиций.

Ключевые слова: орудия труда, металл, медь, бронза, история горного дела, археологические экспедиции.

Akhmedov G'.J.

Researcher at the Department of "History"

Urgench State University

axmedov.gulom.1981@gmail.com

HISTORICAL STAGES OF THE DEVELOPMENT OF MINING WORK (IN THE EXAMPLE OF UZBEKISTAN) ABSTRACT

Central Asia has been famous since ancient times for its deposits of rare metals, gold and silver. The extraction and use of these products began in the Bronze Age, and this process became important in the deepening of the division of labor, the change of social relations, the development of new lands as a result of the improvement of labor tools, and the economic development of the ancient population. The article analyzes the history of mining production in Uzbekistan, the results of archaeological expeditions.

Key words: tools, metal, copper, bronze, history of mining, archaeological expeditions.

KIRISH

O'zbekiston hududlarida tog'-kon ishlab chiqarish tarixi paleolit-qadimgi tosh davrida boshlangan. Eng qadimgi odamlarning suv, oziq-ovqat va xom ashyo zahiralari mavjud hududlarda o'rnatish boshlaganlari muhim hayotiy ehtiyoj bo'lgan [3].

Qulay tosh turlaridan turli shakldagi mehnat va ov qurollari yasash zarurati ibtidoiy konchilikning rivoj topishiga asos soldi. Metall kashf etilishi davriga qadar (mil. avv. IV-ming yillik) odamlar qurollarni kvarsit, chaqmoqtosh, yashma, ohaktosh va boshqalardan ishlab chiqarganlar [2].

O'zbekistonning tog'lik hududlarida, Qizilqum janubida ko'p mingyilliklar mobaynida foydalanilgan chaqmoqtosh konlari topilgan. Zarafshon vohasida Uchtut va Ijond, Toshkent viloyatida Ohangaron, Farg'ona vodiysida Qopchig'ay, Nurota tog'larida Chaqmoqtepa konlari shular jumlasidandir [8].

Konlardan mahsulotlar xom ashyo tarzida manzilgohlarga olib borilgan yoki ashyolarga konlar yaqinidagi ustaxonalarda ishlov berilgan. Ilk paleolitda tosh sihchalar, qo'l cho'qmorlari va daryo toshlaridan ishlangan sodda, qo'pol qurollar-chopperlar yasalgan, o'rta paleolitda nayzasimon tosh qurollar paydo bo'lgan, so'nggi paleolit davrida qurollar yasashining yangi usullari vujudga kelib, tosh keskich, qirg'ich, yupqa pichoqsimon va boshqa qurollarning shakllari ko'paya boshlaydi [10].

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Toshlardan mehnat qurollari yasash murakkab, ko'p mehnat va vaqt talab etilishi tufayli, odamlar qurollar uchun qulay bo'lgan tosh turlarini topishga harakat qilganlar. Natijada, yangi konlar o'zlashtirilgan. Ko'rilayotgan davr materiallari arxeologik ekspeditsiyalar tadqiqotlariga asoslanadi.

Bugungi kunga qadar olib borilgan turli tadqiqotlar Toshkent vohasida foydali qazilmalarni qazib chiqarish va ularni qayta ishlash davri hamda ma'lum tarixiy bosqichlarda konchilik ishi va temirchilikning darajasi bilan bog'liq ko'pgina masalalarga oydinlik kiritish imkonini beradi. Eng ko'p material o'rta asrlar bilan bog'liq bo'lsa-da, ammo ayrim ma'lumotlar Qoramozor va Janubiy Chotqol hududining qazilma boyliklari bilan inson olis qadimdan tanish ekanligidan dalolat beradi.

Tadqiq qilinayotgan hududda konchilik ishlari qadimgi tosh asrida boshlangan. Paleolit davridan boshlab neolit davrigacha bu erda tog'lardan ohaktosh qazib chiqarilgan. Bu ishlarni Toshkent vohasidagi konchilik faoliyatining ibtidosi, hudud tabiiy boyliklarini o'zlashtirishning ilk bosqichi deb hisoblash mumkin [4].

Arxeologik tadqiqotlar Chotqol-Qurama hududida metall qazib chiqarish ishlari miloddan avvalgi II ming yillikdan boshlanganini ko'rsatadi. Bronza davridagi konchilik ishlarining izlari Chotqol-Qurama hududida hozircha juda kam qayd etilgan. Oqtoshkondagi uncha chuqur bo'lmagan er osti yo'llariga o'tuvchi ayrim ochiq konlarni bronza davriga mansub deb ko'rsatish mumkin. Oqtoshdan olingan materiallar ham Qoramozorda sul'fid ma'danlarini qazib chiqarish so'nggi bronza davridan boshlanganini ko'rsatadi [1].

Qayroqqumdan olingan ma'lumotlar ayniqsa diqqatga sazovor. Bu erda so'nggi bronza va ilk temir davriga mansub bir qancha temir eritish joylari topildi. Aniqlangan manzilgohlarning aksariyatida temir qotishmalar uyumlari uchraydi, ayrim manzilgohlar aholisi esa temir eritish bilan maxsus shug'ullangan bo'lsa kerak. Bu holat «markaziy guruh»ga kiruvchi manzilgohlarga ayniqsa xosdir, chunki bu erda ma'dan eritish faoliyati bilan bog'liq ancha yirik uyumlarga duch kelindi [5]. Ular orasida bir qancha yirik uyumlar va mayda to'kilmalar asosan mis ma'danini eritish bilan bog'liq. Eritish hajmining kattaligi konchilik ishlarining ko'lamidan dalolat beradi. Qayroqqumdagi manzilgohlardan topilgan ma'danlar, qotishmalar va bronza buyumlar (bir tig'li va qo'sh tig'li pichoqlar, ignalar, bigizlar, nayzalar va yoy o'qlarining uchlari, bilaguzuklar, marjonlar va to'qalar)ni maxsus o'rganish xom ashyo olish joylari qaerda joylashganligini aniqlashga ko'maklashadi, ammo mazkur hududda temir eritish joylari jamlanganligining o'ziyoq Qoramosor muhim xom ashyo manbalaridan biri bo'lganini ko'rsatadi.

Bu hududdagi ayrim qimmatbaho metallar, avvalambor, oltin, kumush konlarini miloddan avvalgi I ming yillikka mansub deyish mumkin. Oltin konlari orasida Ko'chbuloqdagi ayrim yodgorliklar eng qadimgi hisoblanadi. Kumush qazib chiqarilgan hududlar orasida Konimansurni qayd etish lozim. Bu erda yoy o'qlarining bronzadan yasalgan uchlari topilgan.

Konchilar foydalangan mehnat quollarining topilishi konchilik ishlarini tavsiflash uchun muhim ahamiyatga ega. Bronza va ilk temir davrida konchilik ishlari amalga oshirilgan joylardan bir nechta qo'pol tosh bolg'alar va og'irligi 8 kg ga yaqin katta tosh cho'kich topildi. Yirik mehnat quollari asosan ma'danni ochiq usulda qazib chiqarishga mo'ljallangan. Nisbatan kichik mehnat quollaridan yopiq konlarda ham foydalanilgan. Ayrim quollardan qo'lda siqib foydalanilgan, ayrimlariga esa dastaklar bog'langan. Yumaloq yoki to'g'ri to'rtburchak shakldagi tosh bolg'a vazifasini bajargan. Mehnat quollariga maxsus ishlov berilmagan [9].

Qo'shni hududlar bilan taqqoslaganda, Chotqol-Qoramosor hududi konchilari toshdan yasalgan mehnat quollari bilan bir qatorda, temirdan yasalgan mehnat quollaridan ham foydalangan bo'lsa kerak. Mil. avv. I-ming yillik o'rtalarida

konchilar foydalangan qurollari orasida temirdan yasalgan mehnat qurollari paydo bo'ladi.

Konchilik ishlab chiqarishining rivoji, ibtidoiy xo'jalik ehtiyojlari tosh davridayoq odamlarni chaqmoqtosh va boshqa toshlardan ham yaxshiroq bo'lgan xomashyo qidirib topishga undagan bo'lishi tabiiy edi. O'rta Osiyodagi foydali qazilmalar va ularning joylashish xususiyatidan kelib chiqilsa, insonlar neolit davridayoq tabiiy mis, oltin va kontimir tosh (meteorit-temir) kabi metallarga duch kelganlar. Bu esa mil.avv. IV-ming yillikdayoq konchilik ishlab chiqarishida yangi davrning – metallurgiya davrining boshlanishiga olib keldi [6].

Mil. avv. IV-ming yillikning 2-yarmiga kelib, qadimgi Sharq sivilizatsiyasi markazlari bo'lgan Mesopotamiyada va Misrda, Kichik Osiyo va Hindistonda, O'rta Osiyoda ilk metall – misdan yasalgan mehnat qurollari paydo bo'la boshlaydi. Bu insoniyat tarixida tosh davri o'z o'rnini yangi davrga – metall davriga bo'shatib berayotganligidan, insoniyat taraqqiyotida muhim o'rin tutgan metallurgiya davri boshlanayotganligidan dalolat bergan.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, insoniyatning mis bilan tanishishi tosh davridayoq boshlangan. Lekin kishilarga misning turli tosh turlaridan farqli xususiyatlarini o'zlashtirish uchun bir necha yuz yillar zarur bo'ldi. O'zlariga kerakli mehnat qurollarini yasash uchun yaroqli va mustahkam toshlarni qidirish jarayonida ibtidoiy odamlar urning yuza qismlarida joylashgan mis konlariga duch kelgan bo'lishi tabiiy. Asta-sekinlik bilan bu yangi xomashyoning xususiyatlari o'zlashtirildi va uning olov ta'sirida o'z xususiyatini o'zgartirishi, turli shakllarga kirishi kashf qilindi. Keyinchalik mis eritilib, undan turli mehnat qurollari va harbiy qurol-yarog'lar yasala boshlandi. Bu jarayon takomillashib, O'rta Osiyo hududida ko'plab mis konlari ochilishiga va ular atrofida metall eritish ustaxonalari paydo bo'lishiga olib kelgan.

Mintaqa hududida mil. avv. 3-ming yillik oxiriga kelib yangi metall birikmasi - jez (bronza)dan tayyorlangan mehnat qurollari paydo bo'ladi. Mis va qalay yoki mis va qo'rg'oshin birikmasidan (9:1 nisbatda) paydo bo'lgan bu yangi metall

mehnat qurollari, ov va harbiy sohada foydalaniladigan qurol-yarog'lar turining kengayishiga olib keldi.

Kaltaminor madaniyatining so'nggi davrida (mil.avv. IV-ming yillik), Amudaryoning quyi oqimida yashagan qabilalari misdan foydalana boshlaganliklari haqida ma'lumotlar bor. Markaziy qizilqumda ilk bronza davriga oid 13 ta qadimgi mis konlari bo'lganligi aniqlangan. Bu hududlardan mis ustaxonalari ham topilgan. Tadqiqotchilar misdan yasalgan mehnat qurollarining o'z tarkibidagi qo'shilmalar (mishyak, surma)ga qarab Farg'onadagi yoki quyi Zarafshondagi mis konlaridan olingan xomashyodan tayyorlanganligi haqida fikr bildiradilar [6].

Qadimgi ajdodlarimiz mis metallurgiyasidan foydalana boshlagach, konchilik ishlab chiqarishi taraqqiyotining yangi bosqichi boshlandi. Aynan shu davrda odamlar mis bilan birga boshqa metallarni, xususan, qalay, kumush, oltinni ham kashf qildilar. Bu jarayon O'rta Osiyoda konchilik rivojidagi muhim bosqich edi.

O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida eneolit va bronza davri yodgorliklaridan misdan yasalgan ko'plab topilmalar (pichoqlar, nayza uchlari, bigiz, igna) va turli taqinchoqlar (uzuk, munchoq va boshqa.) topilgani ma'lum [9]. Lekin mis kimyoviy xususiyatiga ko'ra ancha yumshoq metall bo'lganligi uchun tosh qurollarni butunlay siqib chiqara olmadi. Shu tufayli ham so'nggi tosh va bronza davri oralig'idagi davr eneolit, ya'ni mis-tosh davri deb ataladi.

Mis davri yodgorliklarini va ulardan topilgan turli topilmalarni o'rgangan mutaxassislarning fikricha, dastlabki metall buyumlar sof misdan yasalgan. Bu buyumlarni eng qadimgilari misni olovda eritmasdan, sovuq holda, xuddi toshga ishlov bergandek, urib ishlangani aniqlangan. Faqatgina mil.avv. IV-ming yillikning so'nggi yuz yilliklariga kelibgina qadimchi qabilalar misning qimmatli xususiyati – kuchli olovda suyuqlikka aylanishini va har xil shaklga kirib, sovugandan keyin shu shaklni saqlab qolishini bilib olganlar [8].

Mis davriga o'tilishi ishlab chiqaruvchi kuchlarning yanada yuksalishiga olib keldi. Misdan ishlangan qurollar tosh qurollariga nisbatan ancha takomillashgan

bo'lsa-da, lekin mis chidamli va og'ir qurollar (ayniqsa, mehnat qurollari) yasash uchun uncha yaroqli emas edi.

Mis davri va bronza davri yodgorliklaridan topilgan ashyolarga asoslanib misdan asosan taqinchoqlar, harbiy qurollar, uy-ro'zg'or buyumlari yasalgan, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Shunga qaramay, mis metallurgiyasining paydo bo'lishi va ibtidoiy xo'jaliklarda misdan yasalgan mehnat qurollarining paydo bo'lishi asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, tosh qurollarni siqib chiqara boshladi.

Mil.avv III-ming yillik boshlariga kelib misdan yasalgan mehnat qurollari takomillashib bordi. Aynan shu davrda rudali metallar, mis, qalay, kumush, oltin kabi ma'danlarni qazib olish keng rivojlana boshladi. Ularni eritish, qoliplarga quyib turli shakldagi buyumlar yasash o'zlashtirildi. O'rta Osiyo va qozog'iston hududlarida ochiq ma'dan konlari va ular atrofidagi metall eritish ustaxonalarining topilishi [11] yuqoridagi fikrimizning to'g'riligini ko'rsatadi.

Yetimtov tog'laridagi Kentov kon jamlanmalari qadimgi konlar hisoblanib, bu erda 50 dan ziyod kon lahmlari mavjuddir. Ular asosan ochiq usulda qazib olingan. Ma'dandagi misning miqdori o'rtacha 10 foizga teng bo'lgan. Undan g'arbroqdagi Aumingzatovda esa 20 tadan ziyod kon lahmlari bo'lib, ularning shakli va qazib olinishi birinchi hududdagiga ancha yaqin. Uncha katta bo'lmagan kon lahmlari Toshditov va Beltovda aniqlangan. qadimgi konchilarni asosan tez eriydigan va uncha chuqurlikda bo'lmagan mis oksidli ma'danlar qiziqtirgan [1].

Ko'ktov yaqinida qadimgi daryo sohili bo'lgan deb taxmin qilingan joyda, ma'danni eritish uchun mo'ljallangan maxsus joylar ochilgan. Eng katta misni qayta ishlash punkti – Boysag'onek Yetimtovdan g'arbda joylashgan bo'lib, u yerda eng katta Ko'ktepa ma'dan koni joylashgan. Bu yerda mis ma'dan minerallari bo'lmish – malaxit, xalkazin va boshqardan iborat ma'dan maydonlari ochilgan.

XULOSA

Shimoliy So'g'dda, ya'ni Janubiy qizilqum hududlarida mezolit va neolit davriga xos kon majmualari aniqlangan. Bu erdagi uncha baland bo'lmagan Kuljukto'v, Aumingzatov, Toshditov va Bo'kantov deb ataluvchi tog' tepaliklarida

qadimgi kon lahmlari topildi. Arxeologlar olib borgan geologik-qidiruv ishlari natijasida oltin koni borligi ham aniqlangan. Lekin ular orasida eng ko'pi qadimgi mis konlari izlari hisoblanadi.

Bu hududlarda 1999-yili O'zbek-Germaniya arxeologik guruhi olib borgan tekshirishlar natijasida yangi, aylana shakldagi hamda sun'iy havo haydash qurilmasi bo'lgan ma'danni eritish uchun ishlatilgan qozon topilgan. Topilmalarning o'rganilishi asosida qilingan birlamchi xulosa bu ma'dan joylashgan hududlarni yanada chuqurroq o'rganish, So'g'dning bronza va ilk temir davrida O'rta Osiyo iqtisodiyotida tutgan o'rnini ob'ektiv baholash imkonini beradi.

IQTIBOSLAR / СНОСКИ / REFERENCES

1. Буряков Ю.Ф. Из истории горного дела и металлургии древнего Согда // Центральная Азия: источники, история, культура. Тезисы докладов конференции. –М., 2003. –С.40.
2. Исламов О.И. Из истории геологических знаний в Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1976. Кн.1. –102 с.
3. Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – Б.15-17.
4. Касымов М.Р., Ростовцев О.М. Мастерские каменного века в долине р. Ангрен //ИМКУ. Вып.8. –Т., 1969. С.21-27.
5. Литвинский Б.А., Окладников А.П., Ранов В.А. Древности Кайраккумов (Древнейшая история северного таджикистана) -Душанбе, 1962. - С.182, 196-231.
6. Лордкипанидзе Л.Н. История геологического изучения Узбекистана. – Т., 2001. С.11.
7. Массон М.Е. Археологические материалы к истории горного дела в Средней Азии. Горные инструменты. //САРГРУ Бюллетень. –Т., 1930. №2.
8. Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана. – Ташкент: 1953. –С. 6-7; Касымов М.Р. Кремнедобывающие мастерские и шахты каменного века Средней Азии. –Ташкент: Фан, 1972. –160 с.; Темиров

Ғ.Т., Одинаев З.Д. Қадимги давр кончилиги ва металлургияси. –Навоий, 2004. –Б. 8-10.

9. Массон В.М. Средняя Азия и Древний Восток. –М.-Л.: Наука, 1964;
Сарианиди В.И. Энеолитическое поселение Геоксюр. //Тр. ЮТАКЭ. –Т.Х. –
Ашхабад: Ёлым. 1960.

10. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. –Тошкент: Университет,
2004. –Б. 11-13.

11. Темиров Л.Т., Одинаев З.Б. Қадимги давр кончилиги ва
металлургияси. –Навоий. 2004. 16-бет.

Kenjaeva N.T.

Master of ORIENTAL University

historianoriental@inbox.ru

**REMARKS ON THE GEOGRAPHY OF BRONZE AGE SITES IN
CENTRAL ASIA
ABSTRACT**

The Bronze Age is a historical period in which important cultural innovations took place in the history of mankind. The study of the geography of the archaeological monuments of this period is of great scientific importance. In the archeology of Central Asia, the issues of zoning of ancient monuments have attracted the attention of researchers for many years. The collected materials were used to register the monuments, determine their geographical distribution, record their location along trade and cultural communication routes, and study some issues of historical geography. However, archeological cartography data is extremely important in researching the problems of economic-cultural types, formation of historical-cultural regions, and ethnic geography. On the basis of archeological data, it is possible to study the geography of monuments and restore maps of archaeological monuments. The article focuses on these aspects.

Key words: historical geography, archaeological research, settlement, site, Bronze Age, region.

Kenjayeva N.T.

ORIENTAL universiteti magistri

historianoriental@inbox.ru

**MARKAZIY OSIYO BRONZA DAVRI YODGORLIKLARINING
GEOGRAFIYASIGA DOIR MULOHAZALAR
ANNOTATSIYA**

Bronza davri insoniyat tarixidagi muhim madaniy innovatsiyalar sodir bo'lgan tarixiy davr hisoblanadi. Mazkur davr arxeologik yodgorliklari geografiyasini o'rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega. O'rta Osiyo arxeologiyasida qadimiy yodgorliklarning rayonlashtirish masalalari ko'p yillar mobaynida tadqiqotchilarning e'tiborini jalb etgan. To'plangan materiallardan yodgorliklarning ro'yxatga olish, ularning geografik yoyilishini aniqlash, savdo va

madaniy aloqalar yoʻllari boʻylab joylashishini qayd etib oʻtish hamda tarixiy geografiyaning ayrim masalalarini oʻrganishda foydalanilgan. Biroq arxeologik kartografiyasi maʼlumotlarining xoʻjalik – madaniy tiplar, tarixiy–madaniy viloyatlarning shakllanishi va etnik geografiyasi muammolarini tadqiq etishda ham oʻrni nihoyatda katta. Arxeologiya maʼlumotlari asosida yodgorliklar geografiyasini oʻrganish hamda arxeologiya yodgorliklari xaritalarini tiklash mumkin. Maqolada shu jihatlariga eʼtibor qaratilgan.

Kalit soʻzlar: tarixiy geografiya, arxeologik tadqiqotlar, turar-joy, manzilgoh, bronza davri, mintaq.

Кенджаева Н.Т.

магистр университета ORIENTAL

historianoriental@inbox.ru

РАССМОТРЕНИЕ О ГЕОГРАФИИ ПАМЯТНИКОВ БРОНЗОВОГО ВЕКА В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ АННОТАЦИЯ

Бронзовый век – исторический период, в котором произошли важные культурные новации в истории человечества. Изучение географии археологических памятников этого периода имеет большое научное значение. В археологии Средней Азии вопросы зонирования древних памятников уже многие годы привлекают внимание исследователей. Собранные материалы были использованы для учета памятников, определения их географического распространения, фиксации местоположения на путях торговых и культурных коммуникаций, изучения некоторых вопросов исторической географии. Однако данные археолого-картографии чрезвычайно важны при исследовании проблем экономико-культурных типов, формирования историко-культурных регионов, этнической географии. На основе археологических данных можно изучать географию памятников и восстанавливать карты археологических памятников. В статье основное внимание уделяется этим аспектам.

Ключевые слова: историческая география, археологические исследования, поселение, памятник, бронзовый век, регион.

INTRODUCTION

As a result of large-scale archaeological research conducted in Central Asia, important information about the geography and cartography of the monuments of the region was obtained.

